

821
A-39

SADRIDDIN AYNIY



ODIYNA

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предельных
выдач _____

4.09.21.

18.10.21.

13.04.22

А.21
А-39

SADRIDDIN AYNIY

17.07.1928-2001

АХБОРОТ RESURS MARKA

ODINA

ODINA

QISSA

- 2204 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'QITISH VAZIRLIGI
TOSIQUENT VILLOYATI QIRG'IZ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKA
1-FILIALI

«Kamalak» nashriyoti
Toshkent – 2019

UO'K 821.222.8-31
K BK 84(5Toj)

A 39

Nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir
O'ktamoy XOLDOROVA

Ayniy, Sadriddin.

Odina: qissa. –T.: «Kamalak» nashriyoti, 2019. – 152 b.

Hurmati kitobxon!

Mazkur kitobda mashhur yozuvchi, o'zbek va tojik tillarda ko'plab she'rlar, qissalar va romanlar yaratgan Sadriddin Ayniy tomonidan yozilgan «Odina» qissasi joy olgan. Qissada Odina, Oyshabibi, Gulbibi kabi obrazlar orqali ota-bobalarimizning og'ir va ayanchli hayot tarzlari jonli aks ettiriladi. Ularni o'sha davr orqali yurtga bo'lgan muhabbatlari, bugungi kun avlodlarini ham mehnatsevar bo'lish har doim insonni yaxshilikka yetaklashi yozuvchi tomonidan mohirona yoritib berilgan.

Keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-5684-9-5

© C. Ayniy, 2019
© «Kamalak», 2019

ODINA

yoki bir kambag'al tojikning sarguzashti

(Istibod xoirlaridan)

I

ODINA

Odina o'n ikki yasharligida ota-onasidan ayrilib, yetim qolgan edi. Odinaning otasi kambag'al bir kishi bo'lib, o'lar ehtiyojida bir yosh sigiridan bo'lak hech bir meros qoldirmagan edi. Odinaning otasi o'lgandan keyin, uning uyiga Qo'ntegin viloyatining qozisi mulozim va mufti yuborib, uning molini taraka¹ ettirdi. Qozining taraka pulisi, mufti va mulozimning xizmat haqlari uchun sigirni sotib saf qiluvdan boshqa, yana tag'in sag'ir Odina qishloq arbobi² Kamoldan o'n tanga qarzdor bo'ldi. Odinani o'z tarbiyasiga olgan katta omasi tilidan bu qarz uchun quyidagi mazmunda xat olindi:

«Men Oyshabibi Shohmurod qizi, o'z nabiram sag'ir Odina nomidan olasining o'limi xarajati uchun Arbob Kamoldan vastiylik sifati bilan o'n tanga qarzdor bo'ldim, shu shart bilanki, Odina ulg'ayib, qo'lidan ish keladigan bo'lganda, uni mazkur Arbob Kamol qo'lga topshiraman; u shu qachada budadilga mazkur arbobga xizmat qiladi».

Oyshabibi Odinani uch-to'rt yil tarbiya qilib, o'n besh yosh bo'lganida, Arbob Kamol qo'lga topshirdi. Arbob Odinaga ellik bosh qo'y, echki va bir eshak topshirib, uni ehtiyoj ponlik va o'tin tashuv ishiga qo'shdi.

¹ Taraka – meros molini chamalab bo'lish.

² Arbob – oqsoqol.

Odina har kun ertalab xo'jayining mollarni dalaga haydardi. Ramazni o'tlatarkan o'tin terar, kun bo'yi yig'ishtirgan o'tinni kechqurun eshaka ortgan holda mollarni haydab xo'jayini uyiga qaytar edi.

Odina shu yo'sinda ikki yil ishlab o'n yetti yoshga to'ldi, lekin shu muddatda qorni oshga to'yimadi, usi kiyim-boshga yolchimadi: tashlandiq eski-tuski lattalarni bir-biroviga yamab, kiyim o'rniida kiyar, chitrgan ko'nlarni ip bilan yamab, choriq o'rniida oyog'iga bog'lar, xo'jayin «davlat xonasi»dan beriladigan oz-moz mog'orlagan to'qon va qurt bosgan qurutni tog' o'simliklari bilan qo'shib erta, tush va kechki ovqat o'rniida oshar edi. Shuncha qiyinchiliklar ustiga xo'jayindan sira yaxshi so'z eshitmas, ochiq chehra ko'rmas, balki bo'lar-bo'lmas sabablar bilan yakkash qarg'ish-so'kish eshitar edi. Hatto, Arbob Kamol boshqa biron sabab bilan qayg'uiga tushgan bo'lsa ham, o'chini Odinadan olar edi. Masalan, birorta qarzdor pulini va'da qilgan vaqtida bermasa, Odina so'kish eshitar, Samarqand yo'li bog'lanib, Qorateginda qo'y narxi pasayib qolsa, tag'in Odina tahqirlanar edi. Agarda Odinada biror kamchilik sezilsa, u kamchilik uning ixtiyorisiz bo'lgan bo'lsa ham, uning boshida yong'oq chaqilar, uning ko'ziga yorug' kun gora tunga aylantirilar edi.

II

JAZO

Bahor shamoli hilpillab esadi, ko'klam o'simligi vizillab o'sadi, tog' etagidagi yashilliklar yumshoq yel bilan silkinib yengil to'liqini darvo kabi ko'zlarni qamashtiradi, sabza to'liqini goh u tomonga, goh bu tomonga surilib, tomosha daryosiga g'arq bo'lgan nazarlarni adashtiradi, bu sabzalar to'liqining yo'lini unda-bunda bosh ko'tarib turgan xar-sanglar to'sib/tursalar ham, yog'ish ta'siri bilan shafaqlan-

gan bu toshlar, qovoq ustiga qo'ndirilgan yasama qoshlardek ehtiroy ustiga chiroq qo'shar edilar.

Odina shunday bir bahor kunida ramasini surib, eshagini olibay solib tog' etagiga keldi, mollarni o'tloqqa haydab, o'zi o'tin termogga kirishdi. Kunning tush paytida o'tlab to'rgan mollarni soyalaib, o'zi ham bir xarsang ustiga yonboshladi, unar bo'yi Arbob Kamolning qish kechalaridek sovuq va qorong'i yuzidan bo'lak narsani ko'rmagan ko'zlari ko'klam bo'zalliklariga tomon sanchildi-da, turmushdagi hamma qayg'uli manzaralardan uzildi.

Odina bu vaqtda tomoshadan mast bo'lib, o'zidan ketgan va boshidan o'tayotgan har bir qiyinchilikni unutgan edi, uni goh-goh tog' boshida kakirib sayrab yurgan kakiliklarning akak-kak-kaklari tomosha olamining mastligidan bir oz o'ziga keltirsa-da, bu holning o'zi ham boshqa bir tomosha olami edi. Durrust, ba'zi bir vaqtda qora bulut parchalari Arbob Kamolning solinib turgan qovoqlari va burushgan yuzlaridek ko'rilib, dunyoni Odina ko'ziga qorong'ilatardi, lekin bir oz vaqt o'tar-o'tmas tag'in o'tlob qora pardalar ostidan qutulgan sharq qizidek qora bulutlarni yirib chiqar va Odinaning qayg'uli yuziga o'zining quvonchli nurini separ edi.

Odina tomosha mastligi bilan tosh taxti ustida goh u yoni, goh bu yoni bilan va goh chalgancha cho'zilib, eng oxirida uyquga toldi-da, undan keyin surining qayoqqa ketganidan, eshakning nima qilganidan, o'tinning nima bo'lganidan xabariz qoldi.

Qo'y, echkilar o'z qo'riqchilarining dam olish chog'ida uning tevaragida halqa urib yotib, ertadan beri hayvonlik hushi bilan chaynamasdan yuta boshlagan o'tlarni qaytadan og'izlariga chiqarib kavsh qaytarmoqda edilar, qorinlari bo'shab, bir oz tinchlangandan keyin tuyuqlari uchi bilan bo'yinlarini, quloqlarini qashiy boshladilar. Bu ish bididi,

ko'ngillari tag'in ovqat tilay boshladi, tag'in yangi ko'katlar topish payiga tushib, atrofga targaldilar.

O'tloqning bir tomoni tog' bo'lib, ikkinchi tomoni uzun va chuqur bir jarlikka yondoshar edi, jarlik tikka tortilgan silliq bir devordek bo'lib, unda-bunda chiqib turgan toshlar silliqlikni bir oz buzar edilar. Lekin osilgandek bo'lib turgan bu sarg'imitir-qizg'ish va zangori toshlarning taglaridan o'sgan yashil o'simliklar, bu devorga boshqacha go'zallik, boshqacha ko'rinish berar edilar. Bu o'simliklardan biri bir qo'yni orgasidan ergashirib jar bo'yiga kelgan bir echkning och ko'zini o'z tomoniga tortdi, echki, jinsdoshlarida bo'lgandek mahorat bilan o'zini o'simlik tomonga otdi va temirchilarning qisqichiga o'xshagan tuyoqlarini tosh ostiga qistirib hil-pillab turgan o'simlikni arrasimon tishlari bilan g'irch-g'irch kesib chaynamasdan yuta berdi.

Echkiga taqlid qilishdan boshqa hunari bo'lmagan bechora qo'y ham o'ylamasdan o'zini uning orgasidan otdi. Lekin, qo'y bu taqlidda yolg'iz echki borib turgan joygachagina emas, balki oyog'i biror joyga ilinmasdan soyga yunalab ketdi. Yunalagan qo'yning zalvari bilan o'z yeridan qo'porilgan toshlar yana boshqa toshlarga tegib, ularni yerlaridan qo'zg'atar edilar. Shunday bo'lib bir tosh bir necha toshni, bir necha tosh bir necha o'n toshni o'z o'rtidan irg'itib, tog' va soy orasini toshbo'ron holga keltirdi. Toshlarning bir-birlariga tegishlaridan paydo bo'lgan sharaq-shuruqlarning tog' tomondan yuzlaricha bo'lib chiqqan aksisadolari o'tloqning har tomoniga o'tlamok uchun tarqalgan qo'ylarni hurkitib, uzoz yerlarga to'zg'itib yubordi.

Bu g'ulg'ula bilan shirin uyqudan uyg'ongan Odina ko'zlarini uqalab, hodisani anglamoq istar edi. Bu paytda tosh tovushlari kesilgan bo'lsa ham, qo'ylarning hurkitib qochishlari hanuz davom qilmoqda edi. Odina suriga bo'ri uchragandir, deb o'yladi, yumshoqlik va sekinlik bilan «ba

quray-ba quray» deb ularni bir oraliqqa to'plab, bir-bir ko'zdan kechirdi.

«Bir qo'y bilan bir echki orada yo'gmi?»

O'zi o'ziga bergan bu so'rog'i Odina uchun juda dahshatli edi. Qo'ylar titrab, hurkitib soy tomonga qaramoqda edilar. Odina bu holdan, ha, o'sha tomonda bir ish bo'lsa kerak, deb o'yladi va tekshirmoq uchun soy bo'yiga borib, pastga ko'z tashladi: echki esa, jar yon bag'rida dunyoda hech bir voqea bo'lmagandek tinchgina o'simliklarni g'irchillatib uzib yemogda edi. Odina echkning topiluvidan qo'yning ham topiluviga umidvor bo'lib, undan pastroqqa ko'z soldi. Qo'y bo'lsa soy tagida suv ichida uzangan holda boshini yuqori ko'tarib qimirlamoqda edi.

Odina yomon tush ko'rib qora bosgan kishilar uyqudan uyg'onganlaridek bir oz tinch turib, qo'yning yo'qolishidan o'zida yuz bergan dahshatni bartaraf qildi. So'ngra jarlikning bir tomondan qulayroq yo'l topib pastga tushib, qo'y ag'amanab yolgay yerga bordi. Uning dumbasi yorilgan, ikki oyog'i singan, gavdasining boshqa yerlari ham shikastlangan edi.

Bu manzaradan yorug' kun Odinaning ko'ziga qorong'i timga aylandi, qo'yning topiluvi bilan yuz bergan quvonchli daqiqqa qish kunlarining oftovidek qalin va qora qayg'u but-larlari ostiga kirib yo'qoldi: Odina bu holning natijasida Ar-hob Kamol tomonidan o'z boshiga nimalar kelajagini o'ylab chuqur qayg'uga cho'mdi. Xayriyatki, qo'y yiqilgan chog'da toshqingga to'g'ri kelmagan ham soyning qumlik bir yeriga yiqilgan edi, bo'lmasa qo'yni yo suv oqizib ketar yoki o'z zalvari bilan soy yogasidagi toshlarga urilib, suyaklarigacha ezilib ketar edi.

Odina bir oz dahshat va hayratlar orasida turgandan keyin hushini boshiga to'pladi. Qo'yning tamom yo'qolib ket-ganidan ko'ra mayib bo'lsa ham topilishini g'animat bilib,

oyog'idan ushlagancha sudradi va boyagi tushgan yo'li bilan yugoriga tortib chiqardi.

Odina sira tinchlana olmas va Arbob Kamol bu ishini otdiy so'kishlar bilan kechirmas, deb o'ylar edi.

«Mayib bo'lgan qo'yni o'chini olmoq uchun mening qo'l, oyoglarimni sindirarmikan, yoki badanimni pichoq bilan tilib, tuz tiqarmikan va yo boshqa yo'l bilan jazo berarmikan?..» — deb o'z-o'ziga ketma-ket so'roqlar berar va qo'rqar edi.

Odina shunaga o'ylashlar orasida o'zini yo'qotgan edi. Sovliq qo'ylar ma'rashib, qo'zilarini eslab qishloqqa tomon yuz o'girishlaridan o'ziga kelgan Odina qaytish chog'i yetganini bildi. Endi xo'jayinning uyiga borib har bir ko'rgilikni ko'rishdan bo'lak iloj yo'q edi.

Erta bilan terib qo'ygan o'tinlarini ikki bog' qilib eshakra ortdi, yugoriga qo'yiladigan uchinchi bog' o'tin o'rninga mayib bo'lgan qo'yni ortib, ustidan argon tortib, eshakni oldiga solib, podani haydab uyga jo'nadi. Uyga yaqinlashgan sari uning yuragining urishi, vujudining titrashi ortar edi.

«Arbob Kamol har nima qilganida ham, o'ldirishdan ortiq ish qo'lidan kelmaydi-ku, men uchun shu tirikchilikdan ko'ra o'lmoq ming qatla yaxshiroqdir, shunday bo'la turib, nima uchun qo'rqaman, nima uchun o'limni shodlik bilan qarshi olmayman», — deb o'z-o'zini yupatdi va bu muhokamaning natijasida qo'l, oyog'i madoriandi. Bu vaqtda xo'jayinning darvozasi oldiga kelib yetgan edi.

Odina eshak ustidan avval mayib bo'lgan qo'yni awaylab tushirib devor tagiga qo'ydi, undan so'ng o'tinni ag'darib, podani ham qo'raga kirgizdi.

Arbob Kamol eshakning hangrashi va qo'ylarning ma'rashini eshitgach, yeb turgan oshini chala qoldirib, tash-

qariga chiqdi, kundalik odati bo'yicha, mollarni birma-bir ko'zdan kechirgandan keyin birdan:

— Odina, qora shishaki qaerda? — deb baqirdi.

— Mana bunda, — deb devor tagini ko'rsatdi Odina.

Arbob:

— Padar na'lati, bu haromzodalikni kimdan o'rganding, bu qo'yni o'g'irlamoqchi bo'lib qo'raga kirgizmadimmi, seni bir urayinki, o'tiz ikki tishing sinib halqumingga tiqlash, — deb devor tagida yotgan qo'yni oldiga bordi va uning mayib bo'lganini ko'rib qaynar qozondek toshdi:

— Bu qanday hol?! — deb Odinaga qarab baqirdi, og'ziga kelgan so'z bilan uni so'ka boshladi.

Odina voqeani hikoya qilib bermogchi bo'lib:

— Men o'-o'-o'tin, te-terishga, — deb tutila-tutla so'z boshlaganda, Arbob Kamol so'zlamogga erk bermay, gadoyga qarab hurgan iddek unga tomon yugurdi va oyog'iga ilashgan bir toshni yerdan ko'tarib Odinaga qaratib otdi, toshning zarbidan Odinaning boshi yorilib, o'zi yerga yiqildi. Arbob Kamolning g'azab o'ti bu bilangina sennadi: yerga ag'anagancha qonga bo'yilib yotgan Odinani oyog'i bilan tepar va tovushining boricha baqirib so'kar edi.

Odina boshlab jon achchig'ida:

— Voy o'ldim, tavba qildim, — deb dodlasa ham, keyindan butunlay holdan ketdi, Arbobning oyog'i ostida jonsiz tulumdek yotib, u yon-bu yon yunalovdan bo'lak, hayot asari ko'rnatma olmas edi. Ammo, Arbob hamon baqirar, so'kar va urar edi.

Bu vaqtda machit oldiga xufton namozi uchun yig'ilgan «kattalar» Arbob Kamol uyidan so'kish, qarg'ish va urish tovuqlarini eshitib, imom-domla boshliq u yerga keldilar.

Urish va baqirishdan charchagan Arbob, kattalar kelishi bilan Odinani o'z holicha qoldirib, ular so'z ochmasdan butun voqeani bayonlamogga kirishdi:

– Bu ona taloq, ko‘rmamakni qarang, – dedi Arbob, – nima qilgan? Mening osh-nonimni yedi, kiyimimni kiydi, otasining o‘ligini bo‘lsa men ko‘mdim, shuncha yaxshiliklarim badaliga bu kun podani o‘z boshiga qo‘yib, o‘zi uxlagan yoki o‘yin bilan ovora bo‘lgan, natijada bu shishaki qo‘y jarga yiqilib, shu holga tushgan. Bu juvonnarni hali ham urmogga haqqim yo‘qmi?.. Urmog nari tursin, o‘ldirmogga ham haqqim bor. Bir qo‘y bunda go‘dakning yuztasidan yaxshiroq. Sizlar kelmaganda, haligacha buni o‘ldirar edim. Endi, bu ishning chorasini siz qishloq kattalari ko‘rarsiz.

«Kattalar» bunday voqealarda ramuzfahm³ bo‘lmamlarmi?.. Ular ham Arbob Kamolning g‘azabi qacrga borganligini sezib, Odinaning boshiga keldilar, uning yaratlarini ko‘rgan bir mo‘ysafid.

– Zarari yo‘q, zarari yo‘q, yammog‘i o‘zidan, bir parcha kigiz kuydirilib bosilsa, sen ko‘rding, men ko‘rmadim bo‘lib ketadi, – deb Odinani yupatmogchi bo‘ldi.

Ikkinchi mo‘ysafid masalaga yaqinlashmogchi bo‘lib:

– Sen bolalik va nodonlik qilgansan, Arbobning bu qizishi va seni urib-so‘kishni senga jonkuyarligidan keladi. Seni hushyor bo‘lsin va odam bo‘lsin deydi.

Qishloq imomi mulla Xakirai Arbobning asli maqsadining yuzini ochib:

– «Moli mo‘min, xuni mo‘min» deganlar. Sen Arbobning molini o‘ldirib go‘yoki uning qonini to‘kkanсан. Arbob to‘g‘ri gapiradi, bu gumohing uchun seni urib o‘ldirmogga ham uning haqi bor edi.

– Xayriyalki, ish ustiga biz yetib keldik, bo‘lmasa se-ning yuz joningdan bir jonning qutulmas edi, – deb birinchi mo‘ysafid Odinani o‘zlaridan minnatdor qildi.

Mulla Xakirai:

³ Ramuzfahm – farosati.

– Senga bizning otalik nasihatimiz shu: ishlaringga pis-hiq bo‘l, Arbobning molini o‘zingnikidek asra, otang yo‘q, Arbob sen uchun ham ota, ham ona, – deb Odinaning minnatdorligini Arbob tomoniga burdi. Birinchi mo‘ysafid Arbobga yuz o‘g‘irib:

– Odina aqisizlik qilgan bo‘lsa ham kechir⁴, kichiklardan gumoh, kattalardan kechirishdir, – deb Odina tomonidan afv so‘radi.

– Nobud bo‘lgan qo‘y uchun g‘am yema, – deb mulla Xakirai ish bitirishga kirishdi. – Odinaning sendan qarzdorligi, – dedi mulla Xakirai, – bizning hammamizga ma‘lumdir. Bu to‘g‘rida sening qo‘lingda hujjat ham bor. Nobud bo‘lgan qo‘yni narxlab, uni ham o‘sha hujjatning tagiga yozib qo‘yamiz. Odinaning umri vafo qilsa, xizmatigda o‘z qarzidan qutulib, seni rozi qilar.

Mulla Xakirai yuzini Odinaga o‘g‘irib:

– Shunday emasmi, bolam? – deb undan iqrorlik so‘radi.

Odinaning bosh qimirlatish ishorasi bilan «hovva» deyishdan boshqa chorasi yo‘q edi. Hatto bu tahlika shunday umonlik bilan o‘tdi, deb ichidan quvonar edi.

«Kattalar» mayib bo‘lgan qo‘yni o‘n tanga narxladilar.

Arbob Kamol:

– «Nonni tandirning qizig‘ida yopgil» deganlar, men eski hujjatni topib chiqarayin, shu majlisning o‘zida bu pul ham uning tagiga yozilsin, – deb ichkari hovliga kirib, eski hujjatni topib chiqdi. Mulla Xakirai hujjatni Arbobning qo‘lidan olib hujjalab o‘qib, mazmunini Odinaga tushuntirdi. So‘ngra hujjatni buklab qo‘yniga soldi-da:

– Hujrada qalam, siyohni yaxshilab, bu o‘n tangani ham yozaman. Lekin Arbobning yog‘liq palovini yemasdan, huj-

⁴ Tog‘ tojiklari katta-kichiklarni ajratmasdan, bir-birlarini sansanlas-hib gapiradilar.

jatni unga topshirmayman, — deb kuldi-da, fothaga qo'lini ko'tardi.

Boshqalar ham:

— Omin ollohu akbar, — deb qo'llarini betlariga siypab, machit tomonga jo'nadilar.

Arbob esa, mayib qo'yni o'sha kunning ertasiga qassobga sakkiz tangaga sotgan bo'lsa, Odina undan roppa-rosa o'n tanga qarzdor bo'lib qoldi.

III HISOB

Gulbibi o'z otasi Sultonmuroddan bir yasharlik chog'ida yetim qolgan edi, sakkiz yasharligigacha Odinaning xolasi bo'lgan o'z onasi Rahimabegimning qo'lida tarbiyalandi. Rahimabegimning birdan-bir maqsadi Gulbibini bo'yiga yetkazib, o'z singlisining o'g'li Odinaga xotinlikka bermoq va bu vosita bilan o'zining va singlisining chirog'ini yondirib qoldirmoq edi.

Rahimabegim bu istagiga yetisha olmadi va o'lar chog'ida Gulbibini ham Odina qatorida tarbiya qilib, bu tilagini amalga oshirishni onasi Oyshabibiga topshirdi. Albatta Oyshabibi qizining bu vasiyatini unutmadi, kecha-kunduz Odinaning tezroq o'sib-ulg'ayishini, Arbob Kamol qo'lidan qutilishini, to'y kam-ko'stini tayyorlab o'z omonati Gulbibini uning (Oyshabibining) qo'lidan olishini tilar edi.

Oylar, yillar shunday shirin xayollar bilan o'tdi. Odina Arbob qo'lida ikki yil ishladi, o'n yetti yoshga to'ldi. Oyshabibi o'z murodigaga yetishuv chog'i yaqinlashganini bilib, bir kun Odinani o'z oldiga chaqirib:

— Onang aylansin, bolam, — dedi, — xudoga shukur, bo'yga yetgan bir yigit bo'lib golding, Arbobning haqqi-hisobi ham tugayozgan bo'lsa kerak. Endi o'z xo'jayiningdan fotha olib, boshqa birorta ishning payiga tush, besh-o'n

tanga o'rtirib, onangning eshigini och, otangning chirog'ini yonqir...

Odina ham ko'pdan beri shu xayolda edi, u ham tezroq Arbob Kamol qo'lidan qutulmoqni, boshqa vatandoshlaridek farqona tomonlariga bormoqni, unda hammollik, muzdurlik qilib besh-o'n tanga pul o'rtirmoqni, so'ngira o'z vatani-ga qaytib, xolavachchasi bo'lgan Gulbibiga uylanmoqni orzu qilgan edi. Ammo qanday va qaysi yo'l bilan Arbob qo'lidan qutulmoqni bilmas va bu boshi berk ko'chadan chiqmoqqa yo'l topolmas edi. Chunki Arbobning so'kishlari, shapaloqlari uning yuragini shu qadar olgan ediki, undan hisob-kitob va javob so'rash nari tursin, bosh ko'tarib uning yuziga qarashga ham yuragi dov bermas edi. Lekin, buvisining topshirig'i bilan bir oz dadilandi. Bir kun fursat topib, o'z mudaaosini Arbobga aytdi, Arbob bu gapni eshitish bilan yitqileb hayvondek bo'kirdi:

Javob... hisob... bu, nima degan so'z... bu valadi zino-niing qorni to'ygan shekilli!..

So'ngira g'azab bilan mash'aldek yongan ko'zlarini Odina-ga qaradi:

Gudoybachchal! Sen nimalar deysan? Biror xotinaloq yo'ldan o'zdirganga o'xshaydi!.. Sen shuni bilginki, o'lgan-ningdan keyin sening suyaklaringgina mening qo'lmdan qutula oladi. O'shanda ham sen mendan bo'lgan qarzingdan qutulma olmassan. Bor! Dodingni xudoga ayl... — dedi.

Odina odob bilan bo'yin egib, qo'lidagi cho'pon tayog'i-ga suyanib, ko'zini oyog'lari ustiga tikkani holda:

Buvim aytadiki... — dedi.

Arbob Odinaga o'z so'zini bitirmak uchun erk bermay, unga qarab yugurdi va qo'lidagi tayog'ni tortib olib Odina-niing boshiga solib yubordi. Odina yerga yiqildi uning yoril-

gan boshidan qung'on jo'mragidan keladigan suvdek qon oqa boshladi. Bu bilan ham Arbobning g'azab o'ti so'nmad. Ketma-ket boshiga, orqasiga va biqinlariga tayov bilan tag'in bir necha bor tushirdi. Odina jon talvasasi bilan dod degancha, yordamga odam chaqirdi. Ammo birorta qutqaruvchidan asar yo'q...

Arbob, to'satdan birorta ish esiga kelgandek tayovni bir tomonga uloqtirib, ko'cha boshiga yugurib chiqdi va bir nechta mo'ysafidlarni topib:

«Keling, bu holni ko'ring», – deb ularni boshlab keldi. Ular hali voqeadan xabarsiz edilar. Arbobdan:

– Nima gap, nima voqea bo'ldi? – deb so'radilar.

– Keling, ko'rasiz, o'zingiz qilgan ishni o'zingiz tuza-tarsiz, – degandan boshqa javob eshita olmadilar. Ammo Arbobning uyiga kelgandan keyin voqeani anglab, qonga bo'yaliy yotgan Odinaning boshida uymalashib unga nasihat qila boshladilar.

Mo'ysafidlardan biri dedi:

– Sen hali nodon bir bolasan, dunyoning issiq, sovuq'ini totib ko'rmagansan, sen hali pulning qanday topilishini, qaysi yo'l bilan qo'lga kirishini bilmaysan. Buni bilib qo'yginki, dunyoda bekor pul yo'qdir. Bir kishiga uzoq muddatli qarzi hasana⁶ beradigan odam ham yo'q. Sening otangning o'ligiga sarf bo'lgan Arbobning o'n tangasi har oyda bir tangaga foyda tug'adi.

Mulla Xakirah mo'ysafidning so'zini kesib:

– Foyda dema, – dedi. – Foydaning ma'nisi, masalan, ribo⁷ bo'ladiki, bu shariatda haromdir, tanzilde, tanzil!⁸

Arbob gapga qo'shib:

⁶ Qarzi hasana – protsentsiz qarz.

⁷ Ribo – protsent, foyda.

⁸ Tanzil – xudoning haqi, tangrining marhamati.

– Agar bo'yin tovlamasdan ishimni qila bersa, menga na foyda kerak, na tanzil, umr bo'yicha ham pulimni qarzi hasana qo'yishga roziman, – dedi.

Mulla Xakirah Arbobga qarab:

– Himmatingga sallammo, Arbob, musulmon kishi shunday bo'lmog'i kerak, – dedi.

– Xo'p, – dedi mo'ysafid, – domulla-imomcha qilib aytib, o'n tanganing har oyda bir tanga tanzili bor. Otangning o'limining beshinchi yili bo'lgan. Bu yilda foyda hisobidan...

Mulla Xakirah:

– Bir daf'a senga foyda dema, tanzil degil, dedim. O'zing bormi?

Boshqa bir mo'ysafid:

– O'zing tanzil deb yeb yuraver, domulla, – dedi. – Arbob bo'lsa foyda deb aytishdan ham yuz o'girmas, ota-bobomizdan eshitilmagan behuda «tanzil» so'zining nima keragi bor. Foyda bo'lsin, tanzil bo'lsin, maqsad pul ustida, pul ortitishdir, «Chuchvaradan maqsad go'sht yemakdir», deganlar o'ngan azizlar.

Buxoroyi sharif taqvodorlari, – dedi mulla Xakirah, – andko'rlik qilganda tanzil deb ataydilar.

Hali biz bu buxoroliklardek taqvodor bo'lmaganimiz, – dedi mo'ysafid.

Shariat ishiga qatnashishga sening haqing yo'q, – deb domulla qizishganda Arbob oraga kirib:

– Madrasa munozaralarining bu yerda keragi yo'q. Domulla, qo'ying, ishning ijrosini ko'rsinlar, – deb mulla Xakirah jorkib tashladi. Domulla qo'lini ko'kragiga qo'yib:

– Xo'p, xo'p! – degandan keyin jim turdi.

Birinchisi mo'ysafid yana Odinaga qarab gapira boshladi:

– So'zing qisqasi, shu besh yil orasida otangning o'limiga sarf bo'lgan pulning tani va foydasi to'g'risidan Arbobdan yetmish tanga qarzdor bo'lgansan. Bultur mayib

bo'lgan qo'y to'g'risidagi o'n tanga qarzing ham foydasi bilan yigirma tangadan oshadi. Agar Arbob hisob qilib har yilgi foydani ham tan pulga qo'shib, undan ham foyda tug'dirsa, sening qarzing o'z xun bahongdan ham ortib ketadir. Puch xayollar orqasidan yurma, do'st-dushman so'ziga aldanna, sochi uzun, aqli qisqa buvingning gaplariga quloq solma. Yosh boshingni tahlkaga qo'yma. Arbobning bir parcha no-niga shukur deb, jon-dil bilan uning xizmatini qilaver. Bo'sh so'zlar, kelishmagan harakatlilar bilan issiq o'rningni sovutma! Bizning senga beradigan otalik nasihatimiz shu.

Odina bu voqea va «nasihatlar» dan keyin bu tuzoqdan osonlik bilan qutula olmasligini, behuda urinishlar holining yanada og'irlanmog'iga sabab bo'luvini angladi. Shuning uchun biror fursat topilguncha tishni tishga qo'ymoqni lozim topdi.

IV

FURSAT

Odina tag'in bir yil bu balo zindonda, ya'ni Arbob Kamol xizmatida har qanday qiyinchiliklar bilan bo'lsa ham chidadi. Bu muddatda qutulmoq uchun biror yo'l topilmadi. Bu orada bir voqea yuz berdi, shuning orqasida Qoratgin viloyati ostin-ustun bo'lgan bo'lsa, Odina uchun qochish yo'li ochildi.

Buxoro – Termiz temir yo'li shirkatining katta sahindorlaridan biri Buxoro amiri Olimxon edi. Shirkat arzon ishchi topish payiga tushib, bu to'g'rida amirdan yordam va maslahat so'radi. Amir iqtisodiy jihatdan eng keyinda qolgan Qoratgin viloyati aholisidan bu to'g'rida foydalanmoqchi bo'lib, bu borada u yerning hokimi Ibodullabekka xat yozib, u yerdan bir qancha ishchi to'plab yubormoqqa buyurdi.

Hokim o'ziga aqcha to'plamoq uchun bu fursatdan foydalanmoqchi bo'ldi, ishning tagidan hech xabari bo'lmagan sahni yoppasiga Buxoroga uzatmoqchi bo'ldi.

Ular bo'yi ishsiz yurgan, unmas ovqat, chiqmas jon uchun boylar eshigida qul bo'lgan va ko'pincha Farg'onaga borib ishlab kun kechirmakka majbur bo'lgan xalq, bu oqibot nomi ham va nima uchun yuboriluvchi bilimagan safardor qo'rg'chi va har nima bilan bo'lsa bo'lsin, qutulish payiga ishladi. Odat bo'yicha bunday hodisalardan qutulmoqning uchdan bir yo'li pora edi. Biror narsaga ega bo'lgan kimsa har bir yo'qlarini hokimga berib, o'zlarini qutqazdilar. Biror narsasi bo'lmasa ham, ishlamakka kuchi borlar o'zlarini boylarga umrlik qullikka solib, hokim va uning odamlariga pora berdilar. Ba'zilar yosh o'g'il-qizlarini, hatto xotinalarini qutqazmoqqa majbur bo'ldilar. Oyog'i ostidagi yer, boshi ustidagi osmondan boshqa narsasi, tanidagi issiq jonidan bo'lak kuchi bo'lmaganlar esa, o'limga rozi bo'lib, bu safarga bo'yig'ga majbur bo'ldilar.

Arbob Kamol ham o'z navbatida bu voqeadan foydalanmoqchi bo'lib, qishloq «kattalari» oldida Odinaga:

«Seni bu balodan qutqazmoq uchun hokimga yuz tan-ga pora berdim, endi urug'-avloding bilan menga va mening avlodimga umr bo'yi xizmat qilsanglar ham, qarzdari qutula olmaymiz, – deb uning bo'yidagi eski sirtmoqlar ustiga tag'in bir sirtmoq solib qo'ydi.

Huquqatda esa Arbobning bu so'zi g'irt yolg'on edi. Dunyoda u hokimga yuz tanga pora bergan edi. Lekin bu pora Odinani qutqazmoq uchun bo'lmagan, Ibod degan yigirma ikki yashar o'z o'g'lini qutqazmoq uchun edi.

Odina o'tigan voqealardan yaxshigina hushyor bo'lgan va Arbobning ahvolini rosa bilib olgan edi, shuning uchun o'z bo'yig'ida:

«Meni qutqarmoq uchun bo'sh verga pora berib zahmat chikma, meni o'z holimga qo'yib, bergan pora tinganlar to'li

⁹ Sahindor – paychi, hissador.

bilan ketaman, agar boradigan yer va qiladigan ish go'r azobi bo'lsa ham sening ishingdan ming qatla yaxshiroqdir», der edi.

Lekin, Odina ko'nglidan o'tgan bu so'zlarni Arbobga bildirmadi, balki yasamaravishda Arbobning bu «yaxshiligi»dan o'zini juda xursand va minnador qilib ko'rsadi.

Ammo, yashirin suratda Odina ham bu fursatdan foydalanish payiga tushib, o'zini qutqarmoq uchun reja tuzar edi. Odina qatiq kasal bo'lib, o'lim to'shagiga yiqilgan edi. Arbob erta-inda Odina o'lib qolar, deb qo'rqdi. Shuning uchun Ibodni chaqirib:

— O'g'lim, — dedi, — bir-ikki odam topib dardisarni (Odinani) o'z uyiga elib tashla, agar bu yerda o'lib qolsa uning go'ru kafan xarajati ham bizning bo'yinimizga tushib, o'lik ustiga yuz tayog'¹⁰ bo'lar.

Ibod darrov otasining buyrug'ini o'rniiga keltirdi: qishloqdan ikki odamni chaqirib, bir zambil toptirdi. Odinani unga yotqizib Oyshabibning uyiga olib borib tashladilar.

Odina hushsiz edi, o'zining birdan-bir ko'ngil tayanchi bo'lgan Odinani bu holda ko'rgan Oyshabibi ham hushidan ketayozdi, tentaklardek yuz va sochini yulib yerga yiqildi. Lekin, uning bu holati ko'p uzaymadi.

Odinaning:

— Qo'rqma, onajon, menga hech narsa bo'lgani yo'q, — deb yupatishi uni bir oz tinchlantirdi. Lekin, bu qatiq kasallikdan shunday yengillik bilan qutulishining siri-sababi hali Oyshabibiga ma'lum emas edi.

Odina sirni ochdi:

— Onajon, — dedi, — o'zingni bekorga qayg'uiga solma, men kasal emasman. Lekin, bu jallodning (Arbob Kamol-

ning) qo'llidan qutulmoq uchun bir chora o'ylab, o'zimni kasallikka solganman.

Odina bir oz jim yotgandan keyin davom etdi:

Chora shuki, men bu kecha bu yurtdan bosh olib ketaman, sen bir haftagacha bu sirni yashirin saqla, men kim bo'lasan, qatiq kasal degin. Bir haftadan keyin so'rovchilarga hushim sog'ayib xo'jayimkiga ketdi, — deb javob ber.

Oyshabibi tag'in tentaklandi. Odinaning bu tadbiri amalga oshsa, o'zining birdan-bir ko'z nuridan tiriklayin ayrilish bilan bitar edi. Oyshabibi:

Men o'laman, meni o'ldiru so'ngra ket, — deb bir necha daqiqada dardlagandan keyin bir oz yumshadi:

Sening ketishing mening o'limimdir, jon bolam, o'z qo'ling bilan meni o'ldirma, menga rahm qil, — deb yolvorinog'iga tushdi.

Odina yolvorish va yumshoqlik bilan uni yupatib dedi:

Onajon, hech g'am yema, agar men tiriklay bu yurtdan ketib olsam, boshqa vatandoshlarimizdek Farg'ona tomonlarida ishlab, mol va pul topib, tez vaqtda qaytib kelarman, u vaqtda Gulbibi bilan mening to'yimni qilib, murodingim yetasan, ko'zing ochig'ligida o'lgan qizlarningning chiroqlari yonib, eshiklari ochilganini ko'rasan. Agar sabrsizlik va tadbirsizlik bilan bunday dodu faryod qila bersang, mening sirim ochilib, yana dushman qo'lga tushuvim ham qolmaydi. U holda bu ifos (Arbob Kamol) meni dunyoda tirik qoldirmas. Mayib bo'lgan qo'y va mening javobim ro'yim voqealarini esdan chiqargan bo'lmasang kerak. U holdanlardan bu jallod oldida odam o'ldirishning qo'y bo'yishdan ham oson ekanligi yaxshigina bilingan edi. Agar sirim ochilib, bu odamning qo'lga tushib nobud bo'lsam, menidan abadiy ajralasan, u vaqtda pushaymon qiluv yor-dam bermas. Vaqtincha ajralishga chidash maslahatdir, — dedi.

¹⁰ Tojiklarning «balo» murdan sad cho'p» maqolining tarjimas.

Arbob Kamolning qilig'idan bir oz xabari bo'lgan Oyshabibi nevarasining kattalarcha gapirgan bu so'zlaridan hushyor tortdi, umrlik birlashish umidi bilan bir necha kunlik aytilish azobi chekishni bo'ymiga oldi.

Odina yirtiq choring'ini kiydi. Bir xaltaga bir oz qurt va tolgon soldi. Shu bilan uning safar hozirligi bitgan edi. Kecha qorong'ilashi bilan to'rvasini orqasiga osib, bir tayovni qo'lga olib, Oyshabibining tovushsiz yig'ilari ostida yo'lga chiqdi.

Yarim kechada Buxoro safari uchun yo'lga chiqarilgan ishchilar karvoniga yetishdi. Karvon bir tog' etagida qo'ngan, tevarakni hokimning navkarlari qo'rimoqda edilar, Majburiy suratda yo'lga chiqarilgan bu musofirlar qatoriga Odina ham o'z ixtiyori bilan borib qo'shildi.

Tong otar-otmas navkarlar uyqudan turib, non va yaxna bilan qorin to'yg'azdilar. Ochlikdan qorinlarini toshga surkab yotgan mardiklarni qo'y podasidek oldilariga solib, yo'lga chiqdilar. Qarilikdan, ochlikdan yoki kasallikdan yo'l yurmakka bo'shlik qilganlarning boshlarida navkarlarning qamchilari, tayoqlari o'ynar edi. Haqiqatan bu mardiklar gurubi qo'y podasi kabi haydalmogda edilar. Farq yolg'iz shunda ediki, qo'y podasini to'xtatib, o'tlatib haydasalar, bularni ochlik va kuchsizliklariga qaramasdan zo'rlab quvar edilar. Qo'y podasining kasallari eshaklarga o'rtilib olib bo'rilgan holda, bularning o'lim holiga tushgan kasallari yirtiqch hayvonlar «himoyasiga» tashlanar edi.

Mardiklarning bir qismi yo'lga qirildi, bir qismi o'lim holatida yo'lga qoldirildi. Qolgan bir qismi Farg'ona vodiysiga yetishdi¹¹. Kuchli, yosh hamda o'lmas ovqat, chiqmas jon bo'lari qurt va tolgoni bo'lgan Odina esa, hech bir ofatga yo'lqimasdan o'zini bu falokat daryosidan salomat qirg'og'iga chiqara oldi.

Odina bir necha kun Andijonda hammollik, saroybonlik va mardikorlik qilib yurgan o'z vatandoshlariga mehmon bo'ldi. Keyin ulardan birining dalolati bilan u yerdagi paxta zavodlarining biriga ishchi bo'lib kiradi.

V

HIRON

Odina buvisini bir qadar yupatib, safarga chiqib ketgan edi. Haqiqatan ham Oyshabibini yupangandir, deb o'ylamoq sano bo'lar edi. Chunki u sira ham yupamagan edi, yetmish yashar bir kampir ko'zining oqu qorasidan ayrilgach, qanday ham yupansin, qarilik chog'ida o'ziga qarashadigan, o'lar chog'ida og'ziga suv tomizadigan, o'lgandan keyin go'ru kafan qilib ko'madigan kishisi qolmagan bir kampir qanday ham olara edi. Durust, Odina ketar chog'ida tezlik bilan qaytib kelmakka va'da bergan edi. Kim bilsin, ehtimol muqaddir yurtida o'lib ketar, tirik qolgan taqdirda ham ehtimol qaytmogga yo'l xarajati topa olmas, qaytish xarajati topilganda ham bu narsa bir necha yilsiz muyassar bo'lmas. U saqlagacha bir oyog'i go'rda turgan bu kampir o'lib qolsa qat'i ham emas, u holda bu kampir, dunyodan armon bilan ketar.

Bu o'ylashlar Oyshabibining to'zim xirmonini yel yo'lga qo'yar, uning umid o'chog'iga suv quyar edi. Oyshabibi tog'larga, toshlarga bosh urib yig'lab, keng sahralarda o'zining boricha dod-faryod qilib, sig'ilgan yuragini bir oz bo'shatmoqni istar edi. Lekin bu mumkin emas edi. Chunki, bunday harakatlar Odinaning qo'lga olimmog'iga sabab bo'lar edi. Shuning uchun nafasini ichiga yutib, sukut saqlamoqqa majbur edi. Ammo qanday sukut saqlash? Yuragi ayрилиq va hijron o'li bilan ko'mirchilar ko'rasidek yonadur. Alangasini tashqariga chiqara olmaydir. Durust, ikki ko'zidan oqadigan qonli yonlar bu o'lini so'ndirish, bu kuyishni pasaytirishda

¹¹ Bu voqea sanai hijriyanning 1333 yillarida yuz bergan edi.

edilar. Lekin, bu ko'z yoshlari cho'yan eritadigan doshlarga tomgan tomlarlardak asarsiz ketar edi.

Oyshabibi bir haftagacha o'tga tushgan qildak kuyish alo-mati ko'rsatmasdan o'z-o'zidan buralar, ostiga o'ti tushgan somon to'dasidek ochiq alanga chiqarmasdan ich-ichidan yonar edi.

Odinaning kasal bo'luvidan bir hafta o'tdi. Hali ham uning o'lik-tirigidan darak yo'q. Arbob Kamol: «Sog'ayib qolgan bo'lsa ham ajab emas, chunki «Dard boshqa, ajal boshqa», deganlar, deb o'yladi. O'g'li Ibodni chaqirib:

– Odinaning uyiga borib xabar ol, – dedi. – Agarda tuzatilib qolgan bo'lsa, kelib qo'ylarga qarasin, agarda hali-beri sog'ayadigan bo'lmasa, boshqa biron kishi topmoq kerak, – dedi.

Ibod Oyshabibining uyiga borib, Odinaning holini so'radi. Oyshabibi Odina o'rgatgan gaplarni eslab:

– Keyingi kunlarda bir oz tuzatib, boshini yostiqdan ko'targan edi, o'tgan kun sizning uyingizga ketgan edi, se-ning so'rovingdan, Odina sizlarnikida yo'qqa o'xshaydi, u bormadimi? – dedi.

– Men, – dedi Ibod ajablanib, – hozir otamning buyrug'i bilan Odinadan xabar olgani keldim. Keltirib senga topshir-ganimizdan beri Odina biznikiga qaytgan yo'q, qaerga ketdi ekan? Juda qiziq bu!

Oyshabibi o'z vazifasini ado qilib, o'z rolini muvaffaqi-yat bilan o'ynagan, ya'ni nevarasining sirini shu kungacha yashirib, javobini ham ustalik bilan bera olgan edi. Endi ochiqdan-ochiq dod demoqqa va yig'lamoqqa to'sqinlik yo'q edi. Faqat hayqirib yig'lash, bir haftadan beri siqilib yotgan yuragini bir oz bo'shatmoq uchun yolg'iz bir bahona kerak edi. Buni ham Ibodning keluvi va yugorida yozilgan savol-javob muassas etdi. Oyshabibi o'zining Ibodga go'yo haligacha Odinani ularning uylarida deb biladigandek qilib

ko'rsatib va bolasining yo'qoluvidan qo'rquvli xabar topgan tomlardak tinchsizlanib:

– Mening boshimga qanday musibat keldi, bolamning boshiga nimalar tushdi ekan? Sizning uyingizga bormaganda bu yerga qaytib kelmog'i kerak edi, yoki holisizlanib, soyga yotib, suvga oqdimi, bo'rilarga yo'liqdimi, yoki uni dev-lar urib keldimikan?.. Voy bolam! Voy jonim bolam! Voy ko'zinimga oqu qorasi, – deb yig'lay boshladi.

Oyshabibi bu kun o'z bolasini yo'qotgan edi, bu kampir-ning musibat tarixi bundan bir hafta burun boshlangan bo'lsa ham, yugorida aytilganidek, bu kungacha dodlamoqqa im-kon yo'q edi. Bukun ko'ngli bo'shalguncha soch yulmoqqa, yuzini tirnamoq va yogasini yirtmoqqa yo'l ochildi. Ovoz-i-ning boricha yig'lar, tuproqlarni changallab boshga sochar, mataryalar o'qir edi.

Ibod bu kutilmagan azaxonani hayron-hayron bir nafas tinchlashtirib o'tirganidan keyin borib otasiga bu voqeani gapirib berdi.

Ko'p o'tirgan, ellik yillik umrida bir necha Odina kabi boylarni o'z tuzog'iga tushirgan va qopqonlarigacha o'z qo'lliga kiritgan Arbob Kamol, tajribasiz o'g'li Iboddek bu voqeadan ajablanmadi, balki darrov ishning haqiqatini tus-tunadi, Odinaning qochganligiga hukm qildi. Ibodga:

– Faizki, bu ovni bekorga qo'ldan qochirdik, bu ko'rinmuk, albatta, bu yurtidan boshini olib chiqib ketgandir. Shunday ham bo'lsa, Oyshabibining oldiga boray, shoyad hertda xabar topa olsam, hech bo'lmaganda shallaqi kampir-dan o'ch olarman, – deb qo'lliga bir tayoq olib yo'lga tushdi. Arbob Kamol Oyshabibining uyiga borib, uni yig'lab o'tirgan holda uchratdi.

Oyshabibi Arbobning keluvi bilan ko'z yoshini artib unga salom berdi.

Arbob, salomning javobi o'tmida g'azab bilan:

— Odina qay erda? — deb so'radi.

Oyshabibi yumshoqlik, lekin tinchsizlik bilan yasama mojaroni hikoya qildi.

— Men sen kabi, — dedi Arbob, — shayton kampirlarning hiylalarini bilaman, Odinani o'zing yo'ldan ozdirib qochirgansan, bukun menga yasama matallar gapiryapsan. Sen meni bu afsonalarga ishonadi, deb o'ylaysanmi? To'g'risini ay!, qachon va qayoqqa qochirding? Bo'lmasa mana bu (qo'lida tayoqni ko'rsatib) bilan urib, hamma yog'ingni tildalayman.

Oyshabibi bu toshyurak qo'lidan osonlik bilan qutula olmasligini bilib, dushmanga fursat bermasdan birinchi hujumi o'zi qilmoqchi bo'lib:

— Hay, Arbob, mening bolamni o'zing o'ldirib, qaysi bir soyga tashlaganingni yaxshi bilaman, endi menga og'zaki do'q qilib, da'vogar ham bo'lmog'chisan, meni qozixona, hokimxona yo'lini bilmaydi deb o'ylama, hozir hokimxonaga borib, ustingga yasovul, taftishchi keltiraman, o'shanda sening boshingga qanday qiyomatlar qo'ptira olarimni ko'rsasan... — dedi.

Oyshabibi yirtiq paranjisini boshiga solib yo'lga chiqdi. Arbob Kamol Oyshabibining bu qilg'idan o'ylamoqqa tushdi. Hokimlar Odinaning o'limi uchun hech bir g'am yemasalar ham, bir kishining xoh haq bo'lsin, xoh nohaq bo'lsin, bir kishining ustiga da'vo qiluvlari ularning qo'lga pul kiritish, pora olishlari uchun bahona bo'la oluvini Arbob yaxshi bilardi. Agar bu xotin, qozi va hokimga borib arz qilsa, darrov ularning shogirdpesha va mulozimlari kelib, hech bir tekshirmasdan, Odinani Arbob qo'lida yo'qolgan hisoblab katta bir mablag' olarlari. Agar bu orada Odina topilib qolsa-chi, unda uni qochiq hisoblab, Arbobning qullig'iga yana mahkamroq qilib topshirar edilar. Lekin, hali u Qorategin hokimlarining qo'llari yetadigan va ko'zlari tushadigan yerda yo'q edi.

Arbob ko'rinishda o'z g'ururini sindirmasdan:

— Hay, qayerga borsang o'sha yerga bor, men hech kimdan qo'rqmayman, — deb do'q ursa ham, yuqoridagi mulohazalar bilan och-ichidan juda qattiq qo'rquvga tushgan edn. Shuning uchun tezdan kishiqqa bordi-da, bir-ikkita mo'ysafidni topib, ularga bo'lgan voqeani so'yladi va ulardan Oyshabibini hokimxona yo'lidin qaytarmoqlarini so'radi.

Kattalar Oyshabibini yo'lda to'xtatib, unga gapirdilar va bundan keyin Arbob tomonidan hech bir zarar-zahmat bo'lmishligini va'da berdilar.

Kamol Arbob qo'lida nobud bo'lmaganini aniq bilgan va bu harakatlarni yolg'iz Arbob hujumidan saqlanmoq uchun qilgan Oyshabibi ham, go'yo kattalarning yuz-xotirlari uchun hokimxona yo'lidin qaytdi va o'zining yo'qolgan Yulni g'amda o'z g'amxonasida o'tirmoqni munosib ko'rdi.

VI

HUSNI TABIIY

Shu tog'larni tomosha qilgandirsiz, hech bo'lmaganda ko'klam chog'larida gir etaklarini, soy bo'yalarini ko'rganingiz: tog' etaklariga yetishganingiz hamon dimga to'liq babor sharmoli bilan birga nozik bir xushbo'ylik uchadi. Shu mumkin qadar bu xush isni hidlaysiz, bu yoqimli havoni ko'kringiz sig'dirgancha yutasiz, bu yaxshi ishlardan bir zamon dimog'ingizda tozalik, bu toza havodan har dam mulozingizda pokizalik paydo bo'ladi. Bir tomonga ko'z ochsangiz, qizil, oq, sarig' lolalar ochilgan, ikkinchi tomondan qatnangiz, archa, yulg'in, yong'oq va pista kabi tog' dasturlari bir-birovlari bilan o'ralib, osmonga qarab bosh tortib, To'ch tevaraklari ravoch yaproqlari, binafsha gullari, sabbul shoxlari bilan o'ralib olingan tuproq yuziga sabzalar-don, sebzalarlardan yashil rangli gilam yoyilgan. Boshingiz ostiga tomonlari sadaf donalariga o'xshagan parcha-parcha

bulutlar har zamonda bir yog'moqda, oyog'ingiz ostida suv-lari tip-tiniq, muzdek sovuq bo'lgan ariqchalar oqmoqda. Bulbullarning chaqchaqlab sayrashlari madaniyat olamining musiqiy sadolarini unutiradi; qo'yu qo'zilarining o'ynoqlab o'tlamoqlari, kiyiklarning hurkib qochmoqlari teatr sahnalaridagi raqosalar raqsini unutiradir.

Aqcha va mehnat sarf etilmay muyassar bo'lgan bu tabiiy manzara qarshisida ko'p kuch va katta mablag'lar bilan bino qilingan shahar bog'larida yasamalikdan bo'lak go'zallik ko'ra olmaymiz.

Hikoyamizning kelini bo'lgan Gulbibi ham shunday tabiiy go'zallikka ega edi, uning oldida yuzlarini qizil bo'yov bilan pardozlab yuradigan shahar qizlari yasama bir surat bo'lib qolar edilar. Uning qora qoshlari o'smadan, qora ko'zlari surmadan, qizargan yuzlari qizil bo'yovdan, tiqmac-hoqday biaklari blaguzukdan hazar qilar edi.

Gulbibi shuncha go'zalligi bilan, ba'zi bir yengil oyoq shahar qizlaridek go'llarni ovlash, dunyoni o'ziga asir qilish payiga tushgan emas edi. Hatto yoshlik, sofdillik va tabiiy soddaligi sababidan o'zining go'zalligidan uncha xabardor ham emas edi.

Lekin xabarsizlik va soddalik bilan birga uning ko'ngli hamisha Odina xayoli bilan band edi. Chunki, u til chiqarib, o'ng va so'lni tanigandan beri onalari uning Odina bilan bir yostiqqa bosh qo'yajagini gapirar va uning abadiy umrdoshi sanar edilar. Bu uqtirishlar sababidan Gulbibi ham Odinaga o'zining umrdosh o'rtog'i ko'zi bilan qarar edi. Boshda bu munosabat ma'sumona bolalik o'yinidan nariga o'tgan bo'lmasa ham, bora-bora oshiqona bir huzurlikka (uns va ulfatga!) yetishdi. Odina o'n yetti-o'n sakkiz yashar bo'lib, Gulbibi o'n to'rt-o'n besh yoshga kirgach, bular haqiqatan bir-birovlariga oshiq-ma'shuq bo'lgan edilar. Lekin bularning bir-birovlariga o'z dardlarini ochiqdan-ochiq aytmogini

asli tortiya va xonaki odatlar yo'l bermas edi. Faqat oshiq-ning mahram vositachilari bo'lgan ko'z qochirib qarash-bari bolarning oralarida elchilik qilar edi. Yurak dukillashi, rang o'chishi, oh tortish kabi hollar bu ikkala dilso'zning hol-tilhoqiga tarjimonlik vazifasini ado etar edi.

Mana shunday bir-biroviga ko'ngil bergan ikki vujud ishqat nomma'lam bir judolikka uchrasalar, qanday qora kun-birga toshar edilar.

Farg'at, Odina erkakligi, yoshining kattaligi va muhokamaning o'nganligi sababidan har ishni yolg'iz ishq tuyg'usi bilan o'kehamas, balki ko'pincha aql tilagini ishq buyrug'idan qayiqroq ko'rar edi. Odinaning oldida ikki mushkullik turar edi. Muhojirlik, o'z yurtida qolib, Arbob Kamol qo'lida mahv bo'lish yoki umrlik uning qullig'ida qolish, bu holda uylamish mar'atursin, qotgan non bilan qorin to'yg'azish ham mu-yassar bo'lmas edi. Ikkinchisi, bu yurtdan qochib Farg'ona tomonlariga borish, u yerlarda erkin mehnat topish, qornini to'yg'azib, agar baxt madad qilsa, ul-bul topib, o'z yurtiga qaytib, Gulbibiya uylanish edi. Bu ikki ishning natijasi ho-zircha sevgilisidan ayrilish edi; faqat birinchi ishda abadiy ayrilish bo'lib, ikkinchisida, ortida visol umidi bo'lgan vaq-tidacha ayrilish edi. Odina aql muhokamasi bilan shu ikkinchi yo'l tutdi va visol umidi bilan hijron yukini ko'tarmakka bari bog'landi.

Animo bechora Gulbibining holi butunlay boshqacha edi. Muhojirlik, u sevgi hissiyotiga nihoyatda berilgan bo'lib, aqli hech bir muhokamaga yo'l topmas edi, ikkinchidan, uning tirkchiligi Odinanikidan ko'ra bir necha marta og'irroq edi. Chunki, Odinaning jondan azizroq sevgilisi bo'lganidek, buldan bir qarovchisi ham u edi, uning ota-onasi o'lgan, bu-eraning bo'lsa, o'lar vaqti yaqinlashgan, tevaragini nomu-ayga tajovvaz etishga tayyor turgan qonxo'r dushman o'rab

olgan... Bu sharoitda Gulbibi Odinadan ayrilish bilan, har bir narsasidan ayrilgan sanalar edi.

Gulbibining dardi shular bilangina tugamas edi. Odlina tezlik bilan qaytmasa, bibisi ham o'lib qolgunday bo'lsa, qishloq kattalari uni zo'rlab birovga bersalar bu holni Odlina eshitib «Gulbibi o'z ixtyori bilan boshqa bir kimsaning etagini tutgan, o'zining ishq-muhabbatini tuproqqa ko'magan deb o'ylasa, nima bo'ladi», deb qo'rqar edi.

Ba'zi vaqt ko'ngliga boshqa vasvasalar ham kelar edi kim bilisin, Odina Farg'ona tomonlariga borgandan keyin u yerlarda do'stlar, oshnalar topsa, bora-bora Gulbibini unutan, yoshlik xohishi bilan boshqa biron qizga ko'ngil qo'ysa, Gulbibining haqqi haloli bo'lgan o'z qo'lini begonalar bo'yiga solsa-yu, shu mahal Gulbibi esiga tushib, masxaralab kulmay...

Bularning eng mushkuli, bu yashirin dardlarini ochmoq va bir oz dardlashmoq uchun birorta sirdoshning yo'qligi edi. Bibisi yonida esa bu dardlarni ochuvdan uyalar edi.

Bu dardlarni ko'tarmak uchun Gulbibi kabi ko'ngil sevgi tuzog'iga ilingan tajribasiz o'n to'rt yashar bir qizcha u yonida tursin, hatto tosh yurakli erkak ham chiday olmas edi.

*Chiday olmas bag'ri toshdan bo'lgan tog'
Shuncha qattiqlig'i bilan vulqonga.*

*Hasrat, mehnat, qayg'u bilan ezilgan
Oshiq diti nechuk chidar hijronga?*

VII

PAXTA ZAVODI

Andijon temir yo'lidan uncha olis bo'lmagan keng maydonida bir katta imorat ko'rinar edi. Bu imoratning sirtida qo'rinishi diqqatni uncha o'ziga tortadigan bo'lmasa ham, uning qurum aralash nafasi havo yuzini qora bulut

dek ehtiyab oladigan yuksak mo'rilar tosh yo'ldan qargan kishi nazari o'ziga tortar edi. Bu binoning bir-biroviga

qarab yon qilib qurilgan ikki daromad – kirish yo'li bor edi. Hali juda keng va baland darvoza bo'lib, arava kirib chiqqanda ochlar, boshqasi, ikki gazlik kichikroq kirib-chiqariblar uchun qurilgan eshikcha bo'lib, hamisha ochiq turgan edi. Agar paxta zavodini tomosha qilmoqchi bo'lsangiz, bu kichik eshikdan kirar edingiz. Eshikdan kirgan hamon o'ng qo'lingizda bo'yi taxminan qirq gaz, eni o'n gaz va yuksakligi ham taxminan o'n gaz bo'lgan bir imoratni ko'rasiz.

— Biz musulmonimiz, — dedi zakotchi, — siz ham musulmon va islom podshosining raiyatisiz, podshoning shariatining hukmiga itoat qilmog'ingiz kerak; biz yulboz g'izim ko'ramiz, hisobini olamiz, salmoqlaymiz, bu olingan naqd pullaringizni, mollaringizni zakotiga hisoblaymiz va qo'lingizga zakot xati beramiz, u xatning soyasida siz barcha zakot omillari oldidan salomat o'tib, o'z uylaringizga borajaksiz. Bu podshoning amri, shariatning hukmi, bu amrga norozilik qilganlarning va bundan bo'yin tovlaganlarning

hami mollarni jazo yo'li bilan yorg'u¹⁷ qilib olamiz va zakotni kichiklab, yorg'iyar¹⁸ qatorida Qorategin zindoniga qo'yib, boshqa gap yo'q, vassalom...

Ular bosh tangalari uchun talvasa qilib, qon yutib turib, boshlar, harti mollarni talon oldida, o'zlarini bandlik qamoq o'rtida ko'rib, taqdirga rizo bo'ldilar va bosh egib o'tirdilar.

Mollarni tekshirishga navbat yetishdi, kulvorlarni, xurdonlarni bir-bir ochib boshladilar, ko'zga ko'ringan yaxshi to'qimani...

Ular bu uchun sovg'a, bu hokim janoblarga munosib, begoniga yarmahd¹⁹, deb ola berdilar. Kichik amaldorlar va mo'g'ila xizmatdorchilar ham o'z navbatlarida bir ro'molni qo'liga olib, bir kalla qand yoki choyni cho'ntakka so'kib yig'ib o'ldirdilar.

Musofirlarning qo'lidan yig'idan boshqa narsa kelmas ekan, navkarlar bularning yig'lab-yolvorishlarini boshlab qurashi olar edilar.

Taqdirlarning mollarni ham ochib ko'rishga navbat yetishdi. Bu turli parcha gul qizil satin ko'zga ko'ringan hamon o'z bosh barcha bir parcha go'sht ko'rgan kalxatdek o'rtidan o'z bosh satini chingallab olib:

— Har bir hay, juda yaxshi mol ekan, kichik begon shunga turli satin buyurgan edilar. Bu o'sha kishi uchun go'sht, deb yaxdonga¹⁹ tiqdi. Yigirma tanganing alamini berib, o'z boshini chingarmagan Odina ko'zlaridan yosh oqizib yollarni...

Hali janoblarning oyog'i ostiga yiqilay, jolim senga qo'lingizni, boshlaring oldida o'lay, bu satinni to'y qilish

¹⁷ yorg'u - musulmon.

¹⁸ yorg'iyar - qo'zg'atuvchi, isyonkor.

¹⁹ yarmahd - Musavviro alpothlari maxsus ko'n (cham)dan tikilgan qamchi sarfaga chiqqanda o'lgan ortadilar.

niyati bilan olgan edim, to'yimni azaga aylantirib, mening yoshligimga, betoleligimga rahm qil, satimni o'zingga bag'ishla.

— Bola, ko'p dodlama, — dedi zakotchi, — o'zing to'yga bor deding. Begionga to'yona bermaysanmi? Bu qanday uyat ish?..

Zakotchi bek tag'in bitta ro'molni olib qo'yninga tighi-
– Bu bizning to'yonamiz, – deb kulib Odinaning yig'itini
masxara qildi²⁰.

Mollarni ochib tekshirayotganda Sharif degan bir boling bonning xurjundan ikki qadoq choy o'ralgan bir eski topidi.

Zakotchi eski gazetani ko'rgach, g'azablanib o'z oilam
lariga:

– Qoʻl-yogʻini bogʻlang bu jadidni, – deb Mumin koʻrsatdi.

Do'ppi desa, bosh oladigan zakotchi odamlar yaxshigina do'pposlagandan keyin, qo'l-oyog'ini bir burchakka tashladilar.

– Orangi'zda bu murtadning qarindosh-urug'i yoki yaroqchisi bor yoki yo'q? –
do'st, og'a-inisi bo'lsa ko'rsating, – deb musallatlarini
so'radi zakotchi.

Bu ochko'ning niyatidan xabarsiz bo'lgan musulmonlar — Bu odamni tanimaymiz, bu bizga yo'lga yo'l yo'l doshidir, — dedilar.

Zakotchi bek musofirlari bir-bir ko'zdan kechirganida keyin:

– Roslini aytgʻinglar, sizning qaysingiz jadid? – dedi Musofirlar:

²⁰ Amir zamoniida Chorjo'ying Devonbog' zakotxonasida Moliyati Ishqobod (Ashxobod) tomonlarida ishlab kelgan turkman buntak boqari yerning zakotchisi shunday muomala qilganini o'z ko'zim bilan ko'rgan edim. (A.)

Ma'jud degan kishini bilmaymiz, bu nom bilan hech kimni ko'rgan emasmiz, — deb javob berdilar.

...musoniflarning barsi xat-savodsiz bo'lib, shu mehnatlari bilan ovora va keyingi yillarda Buxoroda bir qancha yangi aslohiyotlar o'rnatilgan. Shu aslohiyotlardan biri qadim vogaalardan butunlay xabarsiz edi. Bu qo'ychidan ko'tarilgan mojarodan: «Jadid oti qochog qochog boor ekan-da, uni izlar ekanlar», deb o'ylar,

the jacket design kishini tanimaymiz va shu nom bilan
bilan odamni uchratgan emasmiz, — der edylar.²¹

...dan keyin, Shari'ning masalasini hal qildi: uning butun
...ni va eshingini podsholik hisobiga o'tkazib, o'zining
...ni yet solib, bir necha navkar bilan Qorateginga, ho-
...ning uzatdi va talangan boshqa musofirlarni ozod qildi.
...tangan musofirlar mushuk og'zidan qutulgan sich-
...ni qo'tqazib, yul yo'lga tushdilar, lekin talon hali tamom
...ni ekan! yo'lida har bir qishloqdan, har bir daradan
...ning odamlari, qozining noibi, hokimning amlok-dori
...larini quyta boshdan tekshiruvga, tag'in zakot haqi,
...ni boshqacha ism bilan bir narsa topib olar edilar,
...ni talonida musofirlarning qo'lga berilgan zakot xatini

... deb maskaralar kular edilar.

...to'g'ri qishlog'i tomoniga keidi. Odina ham uyi

1981-yil yozida yuz bergan voq'ea o'sha yil aprel oyida Buxoroda akshamkat mutjasi²ga to'g'ri keladi. Amir Olim o'sha yili shaharga bir necha xat, sirkulyar yuborib, har yerdagi jadal³likda o'zining iddian bo'lsa, qo'liga olingan deb farmon bergan edi. Shu-
mashin shahba bilan ko'p odamlarni tutib gamash odat hukmi-

o'ziga yaqin bo'lgan Sangin otli bir ishchi bilan qishlog'iga yo'l tutdi. Bular ham bir-birovlaridan ayriladigan joyga yetishgach, Odina Sanginga:

— Xudo xohlasa, yaqinda to'yimiz bo'ladi, kelib xabar olib tur, — dedi.

Sangin:

— Xudo o'sha kunga yetkizsa, bizdan to'y yeyishni ko'r, — deb kuldi va xo'shlashib har birlari o'z qishloqlari sari ketdilar.

XIII

KO'RISHISH

Odina Arbob Kamoldan qo'rquvda edi. Shuning uchun kunduzi qishloqqa kirishni muvofiq ko'rmay, eshagini o'tloqqa qo'yib yuborib, o'zi kun botguncha soy bo'yida yotmoqchi bo'ldi. Kun botishga uch soat chaması vaqt qolgan edi, lekin bu uch soatli intizorlik Odinaga uch yillik ay-rilqdan og'irroq sezilar edi. Birov ko'rib qolmasin deb bir xarsang panasida pusib yotgan Odina ikki ko'zini oftobdan uzmas edi.

Har kun chiqishi bilan Odinani boshidan kecha qayg'ularini bir oz bartaraf qiladigan va botishi g'am-g'ussalar tug'uviga sabab bo'ladigan bu kun unga teskari ta'sir berar edi. Bu kun Odina oftobni yomon ko'rmaida va uning tezroq botishini joni didan istamakta edi. Lekin oftob bukun tezroq harakatlanmas va Odinani chulg'ab olganlarga sira parvo qilmas edi.

Oqibat asta-sekin bo'lsa ham, oftob tog' ortiga botdi. Lekin uning shu'lasi hali ham qarshidagi tog' cho'qqisiga sochilib turmoqda edi, bu sochilish oftobning kundalik sochilishiga o'xshamas, balki mo'zorisonda yoqilgan chiroqning pilpillashidek qayg'u sochmoqda edi.

Odinaning xushbaxtlik kuni tug'di, ko'zi oydinlashdi. Chunki, oftob keyingi pilpillashini ham tog' boshidan ko'tarib botgan va dunyoni qorong'ilik pardasi qoplagan edi. Durust, bu kechaning Odina uchun xushbaxtlik kunimi yoki badbaxtlik kechasini ekanligi hali belgisi emas edi. Lekin shunday bo'lsa ham, kelajakning yomon yoki yaxshiligini belgilashi bu jon oluvchi qo'rqinch va quvonch minutlardan qutulish zamoni yaqinlashgan edi.

Odina endi ko'p o'ylab turmadi. Ovchining ko'zidan qochib uzor muddat yotgan och bedanadek o'midan igr'ib tirdi. Eshak ham uning maqsadiga tushungandek, ko'cha qorong'ilashgach, o'tloqdan qaytib, u yotgan xarsangning yoniga kelib minishga shay bo'lib turgan edi.

Odina xurjun va ko'lvorini eshaka ortdi, bir necha kunlik tog'li-toshli yo'lni piyoda kezib, oyoqlari qavargan Odina, yolg'iz bu kechada tez yurmog'i lozim bo'lgan eng keyingi yo'lda o'zi ham eshaka mindi, birdan uch soat o'tlagan eshak ilgari kunlarga qaraganda bu kecha tezroq yurar va odatdan tashqari yugurar edi. Lekin, odatdan tashqari tez yurmog'ni, mumkin bo'lsa uchib bormog'ni istagan Odina uni mezmaz, eshak o'z yo'lini sekinlashtirganga o'xshaydi, dsb o'ylar edi. Shuning uchun eshakdan tushib, uni haydab yurmog'chi bo'ldi. Sag'risiga bir-ikki tayov yegan eshak chopdi. Piyoda yugurayotgan Odina unga yetisha olmadi. Shuning uchun «ish-ish-ish» deb uni to'xtatib, yana minib oldi, tug'i eshak yo'lini sekinlashtirdi, deb o'yladi. Tag'in tushdi, tug'in mindi. Shunday qilib, qishloqqa yetib kelib, o'z hovlisiga kirdi.

Uyda Oyshabibi to'shagida cho'ziib yotgan, Gulbibini bo'lsa, uning oyoqlarini ug'alab, so'zlarini tinglab o'tirgan edi. Gulbibini uchun bu so'zlar har kecha-kunduz bir necha qatla takror eshitiladigan so'zlar bo'lsa ham, ularni eshitmaktan u sira zerikmas edi. Chunki Oyshabibining so'zlarini

yakkash Odina ustida borar edi. Bu so'zlarning ko'pisi Odina to'g'risida ko'rilgan tushlar hikoyasi va ularning ta'biridan iborat edi.

Oyshabibining o'rgan kecha ko'rgan tushi ham burungi-lardek ikki yoqlama edi. Ya'ni yaxshi yoqqa ham, yomon yoqqa ham ta'bir qiliuv mumkin edi:

«Kechasi emish, Gulbibi bilan Oyshabibi yotgan mahal-da uyga o'g'ri tushgan emish. Oyshabibi:

— Sen qanday o'g'risanki, hech narsasi bo'lmagan bir fa-qirning uyiga tushib bekordan-bekorga kishini qo'rqitasan, — deganda, o'g'ri:

— Sening noyob bir gavharing borki, u menga kerak, — deb o'zini Gulbibi ustiga otgan emish. Oyshabibi achchig'i bilan turib chirog'ini yoqib qarasa, u o'g'ri emas, balki o'zining Odinasi bo'lib chiqqan emish».

Oyshabibi bu kun bir necha bor shu tushini Gulbibiga hi-koya qilgan bo'lsa ham, uyqu oldidan tag'in uni takrorlab, ta'bir to'g'risida dedi:

— Bu tushning yaxshi tomoni ham bor, yomon tomoni ham. Yaxshi tomoni shuki, eng qo'rqinchli soatlirimizda, kutilmagan chog'da Odina yetishib kelar, ammo yomon to-monidan xudo saqlag'ay... — Oyshabibi o'z tushining yomon tomonini Gulbibiga tavsiflab gapirmoqqa botirik qilgan bo'lmasa ham, o'zicha o'ylar edi:

«Gulbibining payida yurganlarning biri bosib kelib, Odi-naning haqi bo'lgan qizni tortib olmogchidir, shuning uchun tushimda u dushman ko'zimga Odina bo'lib ko'ringandir», deb qo'rqar va xudoga sig'inar edi.

Shu mahal eshikda oyoq tovushi eshitildi. Tushning yo-mon tomoni rost chiqmagay deb qo'rqib turgan Oyshabibi birdan seskanib Gulbibini turtib, uni yuqori eshikdan tash-qariga chiqmoqqa ishora qildi. Shu chog'da keluvchi ham

dahliz eshigidan uyga kirgan edi. Oyshabibi achchig'i bilan o'rimdan irg'ib turib:

— Kimsan, hech bir narsasi bo'lmagan bir kampingning uyida nima qilmogchisan? — deb baqirdi. Keluvchi yums-hoq tovush bilan:

— Onajon, qo'rqma. Men o'g'ling Odina bo'laman, — deb ovoz berdi va yuqori eshikdan chiqqan kishining Gulbibi-ligini bilib, yo'l bo'yi o'ylab kelgan xavotirlardan qutulib, bir oz tinchlandi.

Lekin Odina uchun boshqa qo'rqinch yuz bergan edi: «O'g'ling Odina» so'zini eshitgan Oyshabibining «voy», deb hushsizlanib yiqilganidek, eshikda turgan Gulbibi ham gurs etib yiqildi.

Haqiqatan ham, bu daqiqa ham xoh Oyshabibi uchun bo'lsin, xoh Gulbibi uchun bo'lsin juda tahlikali daqiqa-lardan edi. Odatda birdaniga yuz bergan qattiq qo'rqish va haddan tashqari quvonish zaif, yumshoq qalbi kimsalarning hulokatlarga sabab bo'ladi. Oyshabibi, Gulbibi bo'lsa bu daqiqaning o'zida birdaniga ham qattiq qo'rqish, ham ortiq quvonishga uchragan edilar.

Har nima bo'lsa Gulbibining o'zini tez o'nglab olganligi va eshikka suyanib turganligi eshikning bir yopilib, bir oc-hilishidan bilindi. Ammo Oyshabibi hali hushsiz yotmoqda edi.

Gulbibining o'ziga kelganligini sezib botirlangan Odina ortiq dovdirab turmadi. Dahlizni timirskilab mo'ndini topdi-da, undan bir hovuch suv keltirib hushsiz yotgan Oyshabi-bining yuziga sepdi, buni bir necha daf'a takrorlagandan so'ngira sovuq suv ta'siri bilai Oyshabibi asta-asta o'ziga kela boshladi va tamom hushyor bo'lgandan keyin, boshini yerdan ko'tarib:

— Ko'rgan tushimning yaxshi tomoni o'ng keldi, — deb Odinaning bo'yiga qo'l solib, uni o'pib, shodlik yig'isini

boshladi. So'ngra gugurt chaqib, qora chirog'ini yoqdi. Yorug'da Odinaning yuzini ko'rib, tag'in bo'yniga osilib, uning yuz-ko'zidan o'par edi. Faqat bu o'pishlar qancha qizg'in bo'lsa, o'shancha quruq edi: kutilmagan shodlikdan yetmish yoshdan oshgan kampingning tili-og'zi butunlay qurushagan edi. Lekin, uning ko'zidan tutash tomib turgan shodlik yoshi Odinaning yuz-ko'zini shuncha ho'llagan edi-ki, uni yengi bilan artib turmoqqa majbur bo'ldi.

Oyshabibi bir oz tinchlangandan keyin, uch yillik sarguzastini bir-bir hikoya qila boshladi. Albatta bu voqealar orasida birinchi o'rinni Odina qochgandan keyin, Arbob Kamolning Oyshabibiga qilgan hujumi va uning aksi hujumi voqeari olar edi.

Odina bu hikoyalarni eshitmoqqa qancha havasi bo'lsa ham, uning uchun aziz bo'lgan nomzodning ahvolini so'rash yana ham muhimroq edi. Shuning uchun buvisining tuganmas hikoyasini kesib:

— Gulbibini qalay? — deb so'radi.

Odinani ko'rishi bilan har bir narsani unutgan kampir o'rnidan turib:

— Xudoga shukur, eson-omondir. Uni unutibman-a, uning uchun nariyi uyga joy solib bermoq kerak edi, — deb tashqariga chiqdi. Haliqacha boshdan-oyog'igacha quloq bo'lib eshik orqasida turgan Gulbibini ikkinchi uyga kirgizib, eski-tuski parcha-paloslarni yoyib uni yotqizdi.

— Tinch yot, qizim! Tushimning yaxshi tomoni o'ng kel-di, — deb tag'in Odinaning oldiga qaytib kirdi. Gulbibini bilan yuzma-yuz ko'rishmoq tilagini Odinaning ko'zidan sezgan tajribakor kampir:

— Gulbibini sening nomzodning va yaqinda xotining bo'ladigan bir qiz bo'lgani uchun ikkalangiz xolavachcha bo'lsangizlar ham, nikohgacha ko'rishmanglar, — deb tanbehlab qo'ydi va:

«Nikoh qachon bo'lar ekan?» deb Odinaning ko'nglidan o'tgan so'roqni anglab:

— Men nomzodimni tezlik bilan o'z qo'lingga topshir-mogni tilar edim. Lekin hammadan burun Arbob Kamolning janjalini bartaraf qilmoq kerak, bo'lmasa bu nobakor to'yni azaga aylantirib yuborishi ham hech gapmas, — deb Odina-ning Arbob Kamol tomonidan o'ylab yurgan qo'rqinchini ta'kidladi.

Oyshabibi shu bilan Gulbibini masalasini tugatib, yana o'z sarguzastini takror hikoya qilishga kirishdi. Lekin endi bu gaplar Odinaning qulog'iga kirmas, uning butun xayoli Arbob Kamol masalasi bilan band edi. Chunki har bir tilak, har bir maqsadning qo'lga kirishi shu masalaning yechiluviga bog'lanib qolgan edi.

XIV MUROFA

Odina bu kecha tong otguncha Arbob masalasida bosh qotirgan bo'lsa ham, uni yechish yo'lini topmay o'zicha o'ylar edi:

«To'y, nikoh yashirin bo'ladigan ishlardan emas. Uyda yashirilib yotgandan biron ish chiqmas, qancha yashirilib yotsam ham, axir bir kun chiqajakman yoki uy-joyimni tashlab, Gulbibidan ko'ngil uzib, g'urbat o'lkalariga qochmoqqa majbur bo'larmen, lekin men uchun jon berish Gulbibidan ko'ngil uzishdan osonroqdir, yaxshisi shuki, har nima bo'lsa bo'la bersin. Maydonga chiqay, ajab emas, najot yo'li ham shu oradan chiqib qolsa».

Odina shunday mulohazadan keyin, tush chog'larida ko'chaga chiqdi, machit oldiga borib, qishloq imomi mulla Xakirah bilan ko'rishdi va unga birmuncha choy, qandni tortiq qildi. Mulla Xakirah:

— Kerak emas, kerak emas edi, xayt, xudo xayr bersin, — deb choy, qandni ikki qo'llab oldi, Odinaning haqiga duo va otasining arvohiga fотиha o'qidi. So'ngra sadaqaning sharo-fatidan bir oz gapirib oxirida dedi:

— Bundan ikki kecha ilgari tushimda otangni ko'rgan edim, ikki yuzi olmadek qip-qizil, egnida oq to'ni, boshida oq dastori bor edi, menga yaqinlashib bir oz choy, qand berib:

«Domulla! Odinaning haqiga duo qiling, sizni duoningiz, albatta mustajob bo'ladi», — dedi.

Hali sen menga bergan choy, qand, o'sha tushimda ko'rgan qand bilan choyga o'xshaydi. Bu tushim tamom o'ng keldi. Otang arvohining bashoratiga ko'ra, sening haqingdagi duom ham mustajob bo'lsa kerak.

Albatta mulla Xakirah shuncha yolg'onlarni qo'lliga kirgan qand, choyni yaxshigina hazm qilish va kelajak uchun ham sadaqaga yo'l ochib qo'yish, yuzi qoraligi bilan yasagan edi. Odinadan boshqa odam bo'lganda ehtimol domullaning bu afsonalariga ishonib, tag'in boshqa narsalar ham sadaqa qilargi edi.

Zavodda ishlab bir oz tarbiya olgan, ayniqsa fevral inqilobi namoyishlariga qo'shilib, mullalarning nayranglari to'g'risida birmuncha so'zlar eshitgan Odina, bu valdirashlarga sira inonmadi va domullaning yolg'onchiligi va past himmatligiga ichidan kulti. Shunday ham bo'lsa, o'z maslahati uchun ko'rinishda o'zini uning so'zlariga ishonganday qilib ko'rsatdi.

Odina imomning «duosini» olgandan keyin uyiga qaytdi. Domulla ham uni uzatgach, Arbob Kamol uyiga qarab yugurdi, uni ko'rib salom-alik o'rinda:

— Suyunchi ber. Odina keldi. Endi bu qochogdan o'z haqingni undirish chog'i yetdi. Lekin haqingni undirganda menga ham ulush chiqargin, davlatingdan bir qozon kaynatib bola-chagalar bilan haqingga duo qilaylik, — dedi.

Arbob Kamol choy puli va'dasi bilan imomni quvonitgandan keyin, o'g'li Ibodni otga mindirib qozi noibi mulla Mardixudoni topib kelmoqqa jo'natdi.

Bu kech Arbob Kamol uyiga qishloqning «men» degan kattalari yig'ilgan edilar. Noib mulla Mardixudo bilan imom mulla Xakirah albatta bu yig'ilishning guli edilar. Yog'liq palov tortildi, ko'k choy quyildi, qandolat, mayizlar ulashildi, so'z bo'lsa, qanday qilib Odinadan Arbob Kamol «haqi»ni undirish ustida borar edi. Yig'ilish bu masalada shu qarorga keldiki, erta bilan Odinani chaqirib, machit oldiga keltiradilar. Qozi noibi uni qamashga hukm qilib qo'rtitadi. «Kattalar» bo'lsa oraga tushib, shu yo'l bilan sulh qiladilarki, Odina Arbobning «haqi»ni tamom to'laguncha unga ishlash to'g'risida tilidan xat beradir. Noibning xizmatonasi, qozining muhronasi ham Odinadan olinadi.

Erta bilan Odina o'z uyida to'yi va holidan xabar olmoq uchun kelgan ish va yo'l o'rtog'i Sangin bilan gurgunglashib o'tirganda, uni machit oldiga chaqirdilar. Sangin ham Odina bilan chiqdi.

Qozi noibi Odinani ko'rgan hamon uni «o'g'ri», «moli mardumxo'r», «qochog» deb so'kkandan keyin qamoqqa o'lmoqqa amr qildi.

Imom mulla Xakirah bir islohchi sifatida oraga tushib dedi:

— Odina noib janoblariга yaxshigina xizmatona va janobi shariatpanoh (qozi) uchun muhrona bersin. Arbobga bo'lsa qarzini tamom to'laguncha xizmatidan bo'yin tovlamasligi to'g'risida tilxat bersin. Noib janoblari uning o'tgan gunohlarini bolaligidan, tajribasizligidan bilib kechirsinar.

Noib:

— Yo'o'q, bo'lmaydi. Mamlakat egasizmi? Bunday boshi buzug, otabezori bolalarning qattiq jazolanishi kerak, toki boshqalarga ibrat bo'lsin! — deb baqirmoqda edi.

Qishloq kattalari ham imomni «karda»sini maslahat bilib, noibga yuz o'girib, uning xizmatonasi uchun Odinadan bir to'p chit olib bermakni, qozining muhronasi uchun har ni-maiki u munosib ko'rsa, uni ham Odinadan undirib bermoq-ni va'da qilib, Odina tilidan Arbob Kamol o'tiga xat yozib, janjalni shu yerda bitirmoqni undan iltimos qildilar.

Bu qaror yuzasidan chit va boshqa narsalar albatta ketadi, bu mayli, eng og'ir ishi: Odinaning umr bo'yi Arbob Kamol-ga qul bo'lib qolmog'i edi.

Sangin Odina uchun ishning bu darajada og'irlashganini ko'rib, o'zicha bir iloj o'ylab maydonga otildi va noibni bir burchakka imlab, uning qulog'iga:

– Noib janoblari! Odinaning bir to'p chiti sizning «halob» haqingiz, bundan boshqa undan yana bir farang ro'mol bilan bir juft kavush ham olib beraman. Siz bir ish qilingki, Odina Arbob Kamol qulligidan qutulsin, – dedi.

– Bu ish juda qiyin. Ha, shunday bo'lsa ham, sening «Xo-tiring uchun» bir urinib ko'raman. Lekin o'z va'dangning ustida mahkam turmog'ing kerak. Agar va'daga xiloflik qil-sang, Odina gatorida sen ham bandi bo'lajaksan, – deb noib so'z berib so'z olmogchi bo'ldi.

Sangin:

– Xudo bir – gap bir, – deb noibni ishonitirdi.

Noib, darrov Odina tilidan daf mahzari yozdi, bu mah-zar bo'yicha Odina Arbob Kamol qo'lidagi Oyshabibi tilidan vasiylik sifati bilan berilgan xatni talbis (podlog), deb da'vo qiladi va o'zi Arbobdan uch yillik xizmat haqi talab qiladi. Bundan boshqa Arbob Kamolga talbiskorligi uchun qattiq jazo bermoqni «shar'i sharif» hokimidan so'raydi.

Noib daf mahzarini yozib, jamoat oldida o'qib, hamma-ni hayratda qoldirgandan keyin dedi:

– Endi ish boshqa tus oldi, men Odina bilan birga Arbob-ni ham qozixonaga olib borsam kerak. Bularning oralarida

Imob shariatpanoh qoziyi islomning o'zlari hukm qilsinlar, Imom Arbob Kamolning talbiskorligi taftish etilsin.

Arbob Kamol va kattalar o'z ishlarning buzilganini ko'rib o'zaro kengashib shu qarorga keldilarki, Odina bilan Arbob Kamol yarashib, har biri o'z da'vosidan majjanon o'tsin, noibning xizmatonasini va qozining muhronasini har ikkalasi baravar to'lasin. Shu qaror bo'yicha Arbobdan bir qo'y olib, noibga tortiq qildilar.

Noib:

– Yo'q, bo'lmaydi, bu ishni qoziyi islomning o'zlari ochmoqlari kerak, – deb bir necha qatla rad qilgandan ke-yin imom va boshqa kattalarning, «yuz xotirlari» uchun rozi bo'ldi. Odinaning bir to'p chitini ham olib xurjunga tiqdi. Da'vogarlarning tillaridan ibro xati²² yozib, o'zlarini iqrar qildirdi, endigi haftagacha bu xatlarni qozidan muhrlatib qo'ymoqqa va'da berdi. Qo'yni bir xolis odamga topshirib, kelajak hafta o'z uyiga elib berib, muhrlangan xatlarni olib kelmogchi so'radi...

Sangin ham o'z va'dasicha, farang ro'mol bilan kavushni qo'llig'iga tiqib o'tirgan edi. Noib ishni bitkazib, otini mina-yotganida, Sangin uning uzangisini tutib, minishga yordam qilish bahonasi bilan unga yaqinlashib, u narsalarni astagina xurjuniga soldi.

Noib o'tga minib qamchini Sanginning qo'lidan olayot-ganida:

– Umring uzun bo'lsin, ko'p yasha, o'g'lim, – deb uning haqiga «xolisona» duo qilib o'z yo'lliga ketdi.

Janjal biddi, shu bilan baravar Odinaning ham har narsasi bitib, to'y xarajati uchun yetarli narsasi qolmadi. Katta to'y nari tursin, non sindirmoq uchun ham puli yo'q edi. Chunki non sindirmoq uchun ham hech bo'lmaganda, bir necha kat-

²² Da'vodan kechish haqidagi hujjat.

talarni ziyofat qilib, ularga bir donadan ro' mol bermoq kerak edi. Buning uchun eng ozi yigirma tanga aqcha kerak bo'lar edi. Holbuki, bu vaqt Odinaning yigirma qora puli ham yo'q edi.

XV

SAFAR KENGASHI

Odina uchun qayta boshda Farg'onaga borib, u yerda ishlab, pul topib kelib to'y qilishdan boshqa chora qolmagan edi. Lekin o'z tilagini Oyshabibiga qanday aytadi, uni ne-chuk ko'ndira oladi. Oyshabibi birdan-bir nevarasidan yana aytilishni, tag'in ayriliq va kimsasizlik o'tida yonishni qabul qilarmi edi?

Odina, o'jar kampirga o'z muddaosini qaysi yo'l bilan aytishni o'ylab, bir necha kun sukut saqlab turgandan keyin, bir kecha u bilan so'zlashib gapni o'z muddaoi ustiga keltirmoqchi bo'ldi. Chunki, tilakni to'g'ridan-to'g'ri unga ocha olmas edi, dastlab to'y masalasidan gap ochdi:

– Endi qo'limizda hech narsa qolmadi, qanday to'y qilamiz? – deb Odina buvisidan maslahat so'radi.

Oyshabibi:

– Albatta quruqdan-quruq to'y bo'lmas, hozircha sabr qilmoq kerak, «xudo – poshshodir», deganlar, bu kun bo'lmasa ertasiga ham, marhamat nazarini solar, senga ham birov narsa berar, o'sha vaqtda to'y qilarniz, – deb maslahat berdi.

– «Xudo – poshshodir», deganlar deb qarab o'tirish, – dedi Odina, – beva kampirning ishidir. Pul va narsa, hech bir vaqtda osmondan tushgan emas va tushmas. Agar ishsiz, harakatsiz tavakkal qilib o'tirsak, to'y qilish nari tursin, ochlikdan o'larniz. Mening fikrimcha, xalqqa to'y bermasdan nikoh qilaylik, undan keyin, kundalik tirikchiligimizni kundalik mehnatimiz bilan bir nav qilib o'tkaza beramiz.

Odina katta onasining eng nozik yeridan tutgan edi. Chunki sochini urf-odat orasida oqartirgan yetmish yashar bir kampir ota-bobolar rasmini tamom yo'qotish nari tursin, undan bir qadam ham chetga chiqishni istamas edi. Shuning uchun:

– To'ysiz nikoh qilishimiz bo'lmagan bir ish, – deb Odinaning bu fikrini uzil-kesil rad qildi. – U holda, xalq orasida nechuk bosh ko'tarib yura olamiz. «Besh qadoq gurruch damlashga qurbingiz yetmas ekan, nima uchun xotin olishni, kelin tushirishni havas qildinglar», demaydilar? Xalq so'ziga quloq solmasak bu ish bo'ladigan ish emas. Chunki mening ham ko'nglimda orzu-havaslaring bor, sening to'yingda xalqqa osh-non tortish, kelin tushiruvimni do'st-dushman orasida ma'lum qilish birdan-bir istagimdir. To'y-tomosh qilmasdan seni uylanitirsam, dunyodan hasrat va armon bilan ketarman, – deb Oyshabibi o'z muddaosini isbot qilmoqqa tirishdi.

– Unday bo'lsa, – dedi Odina, – dunyoda to'y yuzini ko'rmasmiz. Chunki, to'y pulsiz bo'lmas, pul bo'lsa, ishsiz qo'lga kirmas, u holda uylanishni xayoldan chiqarib tashlashim kerak.

Oyshabibi bir oz qizib:

– Men senga ishsiz yurgin, deganim yo'q, birovning xizmatiga kir, haq ol, shunda ham kundalik tirikchiligimiz o'tar, ham to'y qilarniz, – dedi.

Odina o'z o'qini nishonga olgan edi. Chunki Oyshabibi unga birovning xizmatini qiluvni taklif qilgan edi. Endi Odina uchun bir muqaddima bilan o'z muddaosini ochmoq mumkin edi. Odina bir oz o'ylab dedi:

– Men birovning xizmatini qilishdan bo'yin tovlamayman, agar ish topilisa, hozir boshlayman. Ammo qacarda va kimning ishiga kiray? Buxoro amiri va uning hokim va qozilari das-

tidan boyo'g'li uyiga aylangan bu vatanimizda, tanxoxo²³ amaldorlar, qo'shigir²⁴ mullalar zo'ra vonliklaridan buzilgan bu vatanimizda, Arbob Kamoldek haq bermasdan odam ishlatadigan boylar vositasi bilan mardikorlar, chorakorlar hosingning beshdan birini berib ishlatadilar, kambag'allar zindoni bo'lgan bu vatanimizda ish topib ham tirkichilik qilish, ham to'y qilish qanday mumkin bo'lsin? Men bilan Arbob Kamol orasida bo'lgan voqealari unutingmi? Agar mening qo'limda Farg'onada ishlab olib kelgan bir to'p chit, bir ro'mol va bir juft kavushim bo'lmasa edi, men yana Arbob Kamol qullig'iga tushar va umrim bo'yicha o'lmas ovqat bilan ishlamakka majbur bo'lar edim.

Kampir taslim bo'layozgan edi:

– Unday o'lsa, nima qilmogchisan? Mening esimga-ku, hech bir chora kelmaydi, – deb ishning ilojini Odinaning o'ziga havola qildi.

O'dina yana kampingning nozik yeriga to'qindi:

– Menga qolsa, to'ysiz jimgina nikoh qilishdan yaxshi chora yo'q, – dedi.

Oyshabibi:

– Bu bo'lmag'ur, kulgili bir ish. Bundan boshqa biron iloj top, – deb Odinaning asli maqsadiga yaqin lashdi.

O'dina ham:

– Bu ish uchun birdan-bir iloj tag'in Farg'onaga borish, ishlab, bir oz mol-ashyo topib kelishdir, – deb muddaosini ochib soldi.

²³ Tanxo – butun hosilotini, u yerdagi tegirmoi va bosikka daromad manbalarini o'z foydasiga yig'rib olish uchun podsholik tomonidan katta beklar va amaldorlarga umrlik berilgan rayon va qishloqlardagi yer qit'alaridir.

²⁴ Qo'sh – sobiq amir hukumati zamonida hozirgi Tojikistonda bir qo'shho'kiz yoki qo'shho'kiz kuchi bilan ekitiladigan yerlar mahalliy hokimlar tomonidan ba'zi mahalliy mullalarga in'om qilinar ediki, shunday in'omga ega bo'lgan mullani «qo'shigir» der edilar. (A.)

Kampir tag'in qizishdi, tag'in o'yladi, tag'in yolg'izlik va kimsasizlik kunlarini eslab yig'ladi, javradi. Lekin shundan boshqa chora topa olmagandan keyin, o'zi va Gulbini birga olib ketish sharti bilan Odinaning Farg'ona safariga roziligini bildirdi.

Oyshabibining bu sharti O'dina fikriga ham juda mos keldi. Bu mushkulni shunday qulaylik bilan oson qiluv uchun o'zining boshiga shunday soddalik fikrining kelmaganligiga ta'ajjub qilar edi.

O'dina safar hozirligiga kiritishdi. Uning safar hozirligi ham eshagini parvarish qilmoq va uni bir oz semirtirib iborat edi. Eshak semirib bir oz kuchga kirgandan keyin ikki xotini navbat bilan dam-badam eshakka mindirar, o'zi bo'lsa piyoda bo'lib yo'lga chiqar edi. Lekin go'zal bir yosh qizni karvonsiz, yo'ldoshsiz uzog' yo'lga olib chiqish xatari edi. Shuning uchun o'zining jonkuyar do'sti Sanginga borib, shu to'g'rida u bilan maslahat qildi.

– Men ham, – dedi Sangin, – bir haftagacha yo'lga hozirlanaman, lekin o'z yaqinlarini birga olib ketish fikrini ko'nglingdan chiqar. Chunki, viloyat hokimi bu ishga sira rozi bo'lmaydi. Men ham bundan bir necha yil burun o'z enamni birga olib ketish fikriga tushganimda, hokim rozi bo'lmagan edi. Bir da'fa Buxoraga borib, u yerda birovga bir necha yil xizmat qilib, uning vositasi bilan bolachaganni ko'chirmoq uchun Qorategin hokimi otiga, qushbegi va qozikalondan xat olib kelgan edim. Hokim bularni ko'chirmoqqa tag'in rozi bo'lmadi. Hatto: «Bundan buyon shunday buzuv fikrlar orqasidan yursang, o'zingni zindonga qamab qo'yaman», – deb qo'rqitib qo'ydi.²⁵

– Vo ajabo! – dedi O'dina, – bizning hokimlar kanday ahmoq kishilar-a? Birov o'z ahli-ayoli bilan safar qilmoqchi bo'lsin, ular rozi bo'lmasinlar, bu qanday gap?

²⁵ Shunday voqea, hozir SAGUning sharq fakulteti studenti, buxorolik Aminjon Ziyovuddinov xizmatchisining boshiga ham kelgan edi. (A.)

Sangin Odinaga tikilib turib:

– Sen, – dedi, – hali tajribasiz bolasan, shuning uchun hokimlarni shu ishlari uchun ahmoq sanaysan, yo'q! Bizning hokimlar ahmoq emaslar, ular o'z manfaatini yaxshi biladi. Ish axtarib boshqa yurtlarga boradiganlar uchun o'z ahli-ayollarini ko'chiruvga ruxsat bermasliklarida bularning ko'pgina maifatlari bor.

– Qanday manfaat? – deb Odina yana taajjublandi.

– Qanday manfaat? – dedi Sangin, – o'zingdan so'rayman, biz Farg'onadan qaytishda Qorategin chegarasida zakotchi va hokimning odamlari qancha narsa to'plab oldilar?

– Qanchaligini bilmayman, – deb Odina javob berdi, – ammo ko'p narsa edi.

– Zakotchidan qolgan sening chit, ro'mol, kavush, choy, qand va boshqa narsalaring nima bo'ldi?

– Ajdarning komiga ketdi.

– Ha... otangga rahmat, – dedi Sangin, – bas, agar hokim o'z xonadonini birga olib ketishga senga ruxsat bersa, sen bu yurtga qaytib kelarmiding?

– Bu vayrona zulmobodni sira eslamas edim.

– Mana shuning uchun hokim ish izlab boradigan hech bir faqirga o'z uy ahlini olib ketuviga ruxsat bermaydi. Shu vosita bilan har yil Farg'onaga borib ishlab qaytadiganlardan minglab tanga foyda qiladilar. Agar bola-chaqasini ko'chiruvga ruxsat berilsa, hech bir faqir qaytib bu yerga kelmas, hokim, qozi, rais va shularning kosaeslari²⁶ bo'lgan kelmas, qosogol, imom va boshqalarning cho'ntaklari bo'sh, arbob, oqsogol, imom va boshqalarning cho'ntaklari bo'sh, kissalari quruq, qozonlari qaynamay qolar edi. Senga oxirgi so'zim shuki, bo'lmag'ur xayollar orgasidan yurma. Qanday bo'lsa ham kampirni bu yerda qoluvga ko'ndir, tezroq tayyorlanki, birgalashib yo'lga chiqaylik.

Odina Sangin oldidan o'z uyiga qaytdi. U katta davlat-

ga ega bo'laman, deb xayollanib turgan paytda butun bori yo'g'ini yutqizgan qimorbozlardek juda og'irlik bilan qaytdi. Hammasidan og'irrog'i uy ahli bilan safar qilish mumkin emasligini o'jar kampirga tushuntirib berdi. Qaytishda juda sekinlik bilan yurar, shu masala ustida o'ylar, lekin hech bir yo'l topolmas edi. Fikrlar, xayollar, o'ylashlar, andishalar bilan uyga yetib keldi. Bu gal gapni aylantirib o'tirmasdan, Sanginning o'z safarlari to'g'risidagi fikrini buvisiga ochiqdan-ochiq aytdi. Shodlik o'ti bilan qozondek qaynayotgan kampirning yuragiga guyo bir chelak sovuq suv quydi.

Kampir bunday so'zlarni eshitishni va tushunishni istamas edi, uningcha, Odinaning safar qilmasligi yo uy ahli bilan birga safar qilmog'i kerak edi.

Odina qaysar kampirga yalinish-yolvorish, dalil va hujjat keltirishning foydasizligini bilib, masalani uzil-kesil qo'ydi.

– Sen, – dedi Odina, – xoh rozi bo'l, xoh rozi bo'lma, men shu hafta orasida yo'lga chiqaman. Agarda rozi bo'lib, kiyim-kechaklarini yamab, xushvaqtlik bilan oq fotha bersang, men ham o'z qismatimga tushgan bu ayriliq dardini bir oz yengillik bilan ko'tarib xush borib, xushvaqt qaytaman, sening qarilik va yolg'izlik chog'ingda senga farzandlik qilaman, ko'zing ochig'lik vaqtida to'y qilib, qizlaringning uylarini ochaman, chiroqlarini yoqaman. Agar sen to'zimsizlik bilan oh-faryod qilib, o'trangan yurak-bag'rinni tag'in tinayversang ajab emaski, men og'irlik ustida kelgan og'irliklarga chidayolmay yo'llarda, cho'llarda yoki g'urbat ellarda o'lib ketsam, u holda har bir maqsadingdan abadiy ayrilajaksan. Endi ixtiyor o'zingda.

²⁶ Kosaes – lagambar, xushomadgo'y.

Oyshabibi'ga chidashdan boshqa yo'l qolmagan edi, noiloj Odinaning safari uchun kerak bo'lgan narsalarni tayyorlovga kirishdi. Kiyim-kechaklarini yamadi, qurut, qoq non va tolgon hozirlab, bir ko'lvorni to'ldirdi.

Safar kuni yetishdi, Sangin ham o'z va'dasi bo'yicha Odinaning uyiga keldi. Oyshabibi tomonidan shu kun atab pishirilgan sariyog'li qurtobani Sangin bilan Odina ikkovlab ichishib, ko'lvor va xurjunlarni eshaklarga ordilar. Sangin ko'cha boshiga chiqdi, Odina buvisidan fотиha olmoq uchun ichkari hovli'ga kirdi.

Oyshabibi Odinani quchoqlab oldi. Lekin, biror so'z aytmoqqa tili-da, kuchi-da yo'q edi. Nursiz ko'zlaridan yosh tomchilari tomizishdan boshqa hayot asari ko'rsata olmadi.

Sangin kucha boshida ancha vaqt kutgandan keyin:

— Tez chiq, Odina! Kech qolsak manzilga yetisha olmaymiz, — deb chaqirdi. Lekin kampir bor kuchi bilan Odinaga yopishib olgan va qo'yib yubormas edi. Oqibat, Odina zo'r bilan o'zini uning quchoq'idan qutqarib olib, fотihaga qo'l ko'tardi. Oyshabibi ham tiroq qo'llarini ko'tarib, Odina uchun umr-davlat, baxt-saodat, xayru barakat, obro' va izzat, oq yo'l, uzun yo'l safari bexatar... yana qancha narsalar tilab duo qilmogda edi.

Odina bu uzun duoning bitmas-tuganmasligini ko'rib, ikki qo'lini betiga tortdi, va:

— Xayr-xo'sh, ko'rguncha omon bo'linglar, — deb eshikdan chiqdi.

Eshikdan yolg'iz Odinagina chiqmadi, balki u bilan birga kampirning go'yo joni ham birga chiqqan edi. Oyshabibi daf'atan o'lgan odamdek yerga yiqildi.

Gulbibi ochilishga tayyor bo'lib turgan bir g'uncha ediki, mehribon sevgilisi bilan safar qiluv umidi havasida ochildi, faqat bu safarda yuz bergan noumidlik yei bilan ochilish chog'ida so'lib yerga to'kildi. Gulbibi bir g'uncha ediki, u bir nafasda ham bahorni ko'rди, ham xazonni ko'rди.

Odina uyda qoldirganlaridan ajralish holatining ta'siri bilan so'zlashga kuchi yetmas, go'yoki, Sanginga shuursiz ergashib borar edi. Odinaning bu ahvolidan ta'sirlangan Sangin ham jim qolgan edi. Bu ikki yo'ldosh bir-birovi bilan do'stlashgan ikki devonadek so'zsiz jim yurmogda edilar.

Bu holda birmuncha yo'l yurgandan keyin boshlab Sangin naqsha (ashula) aytish bilan bu jimlik suhatini buzdi. Sanginning bo'g'zidan chiqadigan har bir faryod, har bir nola go'yo Odinaning ahvolini tarjima qilar edi. Odina ashula ta'siri bilan yuziga sovuq suv sepi'lgan hushsizlardek seskana berdi; qisilib, nafas oluvga yo'l qoldirmagan yuragi qattiq qattiq tepa boshladi, shishadek qurib qolgan ko'zlaridan tir-qirab yosh chiqaverdi, ayniqsa Sangin ovozini baralla qo'yib:

Oshiq degan yor ko'yida ketarmi?..

Bulbul sirva gul bahridan o'tarmi?..

Safar qildim, faqirlikning dastidan,

Tong otarmi, qorong'u tun bitarmi? —

mazmundagi bandini o'qiganda Odina ortiq chiday olmadi: yig'i aralash tovushini yuksaltirib Sanginning bu yurak tirnovchi nolasiga qo'shildi.

Sanginning ashulasi tugaguncha Odinaning ham siqilgan ko'ngli bir oz bo'shab o'zi ham ashula o'qiy boshladi:

Sel oqar tog' boshidan,

Ajralib yo'ldoshidan.

Soy toshar ko'z yoshidan,

Ishqning ko'yi shulmidi?

Notavon ko'nglimidi?

Odinaning bu bandiga Sangin:

*Unga ko'ngil bog'lagan,
Ko'ksini g'am dog'lagan.
«Gulbibi» deb yig'lagan,
Senni yo bulbulmidi?
Benavo bulbulmidi?—*

bandini ilova qilib, uning o'rtangan ko'ngliga yana o't qaladi.

Odina bu qadar azob va uqubatlarning iqtisodiy sababiga ishorat qilib:

*Chorasiz men benavo,
Yorindan bo'ldim judo.
Hukm surgan el aro
Xonmi, bekmi, pulmidi?
Kambag'allar qulmidi?*

Bandini hasrat qilib o'qidi.

Zavod ishchilarining turmushini va fevral inqilobi munosabati bilan bo'lgan ishchilar namoyishini hali esdan chigarmagan Sangin:

*Kecha-kunduz ishlagan,
Non debon tosh tishlagan.
Og'ir isyon boshlagan,
Mardikorlar qulmidi?...
Yo egasi ulmidi?*

Bandini o'qib ma'yuslana boshlagan Odinaning ko'nglini ko'tardi.

²⁷ Shu to'rt band she'r Abdulla Qodiriy (Jalqunboy)ning «Mehtobdan chayon» olti romanining «Qirg'izlar» bobida «Nazmi» taxallusi bilan yozilgan she'riga shakl jixatidan o'xshamadir. (A.)

Biz bu safarning butun tafsilotini yozishdan ko'z yumamiz, faqat shunchaligini esga tushirib o'tamizki, avvali juda og'irlik bilan boshlangan Odinaning bu safari Sanginning shoirona yordamlari soyasida bora-bora yengillashdi, kamkam so'z Gulbibi va Oysahabiblar doirasidan chiqib, zavod ishchilari va ish doirasiga kira bordi. Fevral inqilobi ruhi bilan sug'orilgan bu yaqinda kelgan ishchilar, bu yil zavod ishidan ko'p foyda, ko'p rohat kutmoqda edilar.

Andijonga yetganlari hamon eshaklarini saroyga bog'lab, o'zlari bultur ishlagan zavodlariga bordilar. Bularni ko'rgan pudratchi Qurbon Ali umidlari xilofida bir oz sovuqlik bilan qarshi oldi:

— Sentyabr boshida, — dedi pudratchi, — zavod ish boshlaydi, o'sha kunga yetib keluvingiz kerak, agar kechiksangiz o'rmingizga boshqa ishchi olinadi. — Odina bilan Sangin eshaklarini sotib, bir necha kunni valandoshlari va yori og'ainilarini ko'rish bilan o'tkazib va'da kunida zavodga borib ishga kirishdi.

XVII

«YUNON USULIDA DAVOLASH»

Odina o'tgan yillarda zavod ishida juda ko'p aziyat chekkan edi. Yosh boshiga og'ir yuklarni ko'tarish, har ish ustida ish boshqaruvchidan, pudratchidan «yaramas bola», deb haqorat eshitish, ishni kattalar bilan baravar qilib, oylikni oz olish kabi hollar Odinaga boshqa ishchilarga ko'ra ortiqcha tushgan og'irliklar edi. Shuning uchun keyingi yillarda zavodda ishlamay, boshqa ish topishni o'ziga muqarrar qilib qo'ygan edi.

Bu orada fevral inqilobi bo'ldi, xo'jayinlarning tillari kesilgandek bo'lib, takabbur bellari bir oz sindi, ishchilarning har bir talabiga:

— Xo'p, darrov ijro qilamiz, — deya berdilar.

Bu holni ko'rgan Odina bundan buyon zavodda ishlar ishchilar manfaati tomoniga burilib, osoyishtalik va to'qchilik yuz berar, deb o'ylar edi.

Odina o'zining bu nekinligida²⁸ haqli edi. Chunki, fevral inqilobi chog'larida ommadagi shodlik namoyishlari har kimni shunday nekinlikka solar edi.

Haqiqatda bo'lsa, bu nekinlik quruq gumon va bo'sh xayoldan boshqa narsa emas edi. Chunki, podsho taxtidan tushirilgan bo'lsa ham, sarmoyadorlik burungidek o'z joyida barqaror edi. Podsho zamonasida hukumat sarmoyadorlar va katta yer egalari nog'orasiga qanday o'ynasa, fevral inqilobidan keyin ham haqiqiy hokim sarmoyadorlik edi.

Mamlakatning hokimi sarmoyadorlar bo'lib, har bir ish ularning ixtiyorida bo'lgandan keyin, ularning zararida bo'lgan ishchilar manfaati qanday qilib yuzaga chiqqa olar edi? Qanday qilib sarmoyadorlar o'z qo'llari va ixtiyorlari bilan o'z cho'ntaklarini bo'shatib, ishchilarning och qorinlarini to'yg'azar edilar?

Albatta siyosiy tarbiya olgan ishchilar bu gaplarni bilar va sarmoyadorlarni quvlab, hokimiyatni o'z qo'llariga olish yo'lida urinar edilar. Ammo siyosiy savod nari tursin, alifbe savodi ham bo'lmagan bizning Odinadek ishchilar bunday chuqur o'ylay olmas edilar.

Odina mana shunday zo'r umidlar bilan zavodga kirgach, sinchiklab qarasaki, xo'jayin va pudratchining kirdori, ishchilarning xor-zorliklari, o'tgan yillardagidek, yolg'iz nomlar, unvonlar va laqablar boshqalangan.

Chunonchi, ishchilar uchun ishchilar qo'mitasi tuzilib, uning musulmon shu'basida boshliq bo'lib pudratchi Qurbon Ali o'tirgan. Xo'jayin, o'sha burungi xo'jayin, faqat shu qadargina farq qilganki, agar ishchilar unga ariza yozmoq-

li bo'lsalar, avvalgidek «janobi xo'jayin», deb yozmasdan «muharam vatandosh» unvoni bilan yozadilar. Boshqa ishlar ham shu yo'sinda bulturgicha edi.

Odina o'z uyidan aytilganda ko'ngil qo'yan yakayu yugona Gulbibidan va shu sababli har bir narsadan: tinchlikdan, sog'likdan va shodlikdan ayrilgan edi. Uni kuvontradi-gan, yupatadigan va yashashga undaydigan yolg'iz bir narsa qolgan edi: Farg'onaga borib, zavodda yaxshi bir sharoit bilan ishlash, to'y kam-ko'stlarini tayyorlab, vatanga qaytib, Gulbibiga uylanish va shu soyada kampirni ham quvontirish edi. Bu tilak milt-milt qilib yonadigan shamdek Odinaning umidsizlik kechalarga bir oz umid nuri berib turar edi. Zavod tartibini bulturgicha ko'rgandan keyin, unda qattiq bir umidsizlanish yuz berdi. A'zolari bo'shashdi, ruhi tushdi, ishlaydigan ishida ham maza qolmadi. Aslida buzilgan sog'lig'i yamada yomonlashdi. Ishning og'irligi, Turkistonda yuz bergan bu yilgi hosilsizlikdan boshlangan qimmatlilik, buning ustiga urush sababi kundan-kunga pulning qadri yo'qolishi va shular sababidan tirikchilik o'tkazishning kundan-kun yomonlasha boruvi uni kundan-kun ishdan chiqara berdi, nihoyat xastalanib yostiqqa yiqildi.

Odinaning bu yilgi barakasiz ishidan o'zi uchun tuzuk manfaat ko'rmagan pudratchi Odina kasal bo'lib yiqilgandan keyin, uni boqib o'tirmas edi. Darrov o'z qo'l ostida tuzilgan musulmon ishchilar qo'mitasi²⁹ nomidan Odinani ishdan ketkazish to'g'risida qaror chiqardi. Bu qarorni jiro qilib, kasal Odinani zavoddan quvlatdi.

Sanginning:

²⁸ Fevral inqilobidan keyin hatto Oktyabr inqilobining avvallarida ham Turkistonda tuzilgan ishchilar qo'mitasi yoki kasaba soyuzi «musulmon» va «evropaliklar» nomlari bilan ikki nomda tashkilot topgan edi. Bu bilan ishchilar va mehnatkashlar baynalmilal tarbiya ko'ra olmas edilar. Keyinroq bu yomon odat bitirildi. (A.)

— Oylaksiz bo'lsa ham zavodda yotsin, — deb pudratchiga qilgan iltimosi ham foyda bermadi, va:

— Uning o'riiga boshqa birorta ishchanroq ishchi olamiz, uning uchun yotar joy kerak bo'ladi, — deb Sanginning iltimosini ham rad qildi.

Bu muomala bilan Odina butkul xarob bo'ldi, Sangin vositasi bilan Ardiyon saroylarining birida saroybonlik qiladigan bir tojik saroybonning hujrasiga ko'chdi.

Saroybon undan hech bir mehribonlikni ayamadi, uning ust-boshiga, yeyish va ichishiga, yotish-turishiga qarashdi, buning ustiga, o'zi ixlos bog'lab yurgan bir duoxonni o'z hisobidan chaqirib, Odinani «o'qidi» va tumor yozdirib oldi.

Duodan hech bir foyda ko'rilmagandan keyin, o'z aytishicha, «yunon usuli»da davolaydigan bir mahalliy tabibni boshlab keldi.

Tabib «Bismillo-bismillo» bilan uyga kirib o'tirdi.

Saroybon to'shakda yotgan Odinani ko'rsatib:

— Taqdir, bu kimsasiz bir musofirdir, xudoning irodasi bilan kasal bo'lib qoldi, duoxon keltirdim, bir foyda bermadi. Endi umidimiz avval xudodan bo'lsa, ikkinchi sizdandir. Bir ish qilingki, bu bechora tuzalsin, har qanday xizmat bo'lsa bajo keltiraman, — dedi.

— Ko'p yaxshi, ko'p yaxshi, — dedi tabib, — duoxonlik ham qo'limizdan keladi, pulni behuda begona qilibsiz. Zamonada duoxonlarining barisi xatsiz-savodsiz, usta ko'rmagan shogirdirlar, taxtaga o'yilgan duo nusxalar chigar (chiga gul bosuvchi) larning muhridak bir parcha qog'ozga bosib berib, pulni oladilar. Duolari naf qilmaydi. Bizning bo'lsa, alhamdullo, summa alhamdullo, xatimiz bor, savodimiz bor. Duo o'qish va yozish to'g'risida rahmatlik padarimiz katta eshoni hakimdan ijozaimiz bor va u marhumdan meros tariqasida qolgan duo kitobimiz ham bor.

Saroybon tabibning bu uzundan-uzoq manqibxonligiga chidayolmay, uning so'zini kesib:

— Ko'p yaxshi, qani kasalni ko'rsinlar, axir, — dedi.

— Qani qo'lingizni bering, qaeringiz og'riydi, — deya tabib qo'lini saroybonning o'ziga uzatdi.

— Yo'q, taqdir, xudo saqlasin, men kasal emasman, mana bu ukamiz kasal, — deb saroybon Odinani ko'rsatdi.

— Xo'b-xo'b, — deb tabib Odinaning biligidan ushlab va ko'zini yumib muroqabag'a ketdi, bir necha minutdan keyin ko'zini ochib, bu fursatda go'yo butun ichki va tashqi kasalliklarning barisini anglagandek to'la qanoat bilan:

— Hech bokisi yo'q, bu bolada biror qo'rqinchli illat paydo bo'lgan emas, yolg'iz me'dasi bir oz lat yegan, ichki bo'g'inlarida bir oz bod paydo bo'lgan. Luqmoni hakimning ilmi hikmatlari bo'yicha, bir oz oshhal (ich suradigan dori) ichirsak shifo topadi.

Tabib dori tayyorlagani ketmoqchi bo'lganida saroybon qadam haqi uchun ikki tanga, dori xarajati uchun xam ikki tanga — hammasi bo'lib to'rt tanga berib, uni uzatdi. Tabib o'z uyiga borib, ikki kosa suyuq surgi dori qaynatib keltirib Odinaga ichirdi. O'zi ham dorisining amalini sinab ko'rmoq uchun shu yerda qoldi.

Ikki soatdan keyin, Odinani qattiq yurak og'rig'i tutdi, aslida zo'rg'a eshikka chiqadigan Odina bir necha bor hojaxonaga borib qaytgandan keyin, butunlay oyogdan qoldi.

Odina har daf'a hojaxonaga borib qaytganda tabib: «Ilalarning o'ndan birisi ketdi, to'qqizdan birisi ketdi, sakkizdan birisi ketdi...», deb quvonar va saroybonni ham quvontirmoqqa tirishar edi.

Hojatxonadan yurak burug'i shiddatidan qichqirgan Odina tovushini eshitganda tabib: «Yo daf'ar riyax!» (ey yellarni daf' qiluvchi) deb xudoga sig'inib duo o'qir edi.

Nihoyat kasalning ichida ozorlangan ichaklardan boshqa narsa qolmagandan keyin, doringing amali ham to'xtadi, tabib ham:

– Illatlarning barisi ketdi, – deb faxrlandi.

Bundan keyin qadam haqi bir tangaga tushgan bo'lsa ham, tabib qadamini kasal boshidan uzmani. Aroqi nona, ma'juni mustaki, gulqand, ma'juni turbut, sharbati sikanja-bin, sharbati nilufar kabi bir-biroviga zid bo'lgan ma'jun va sharbatlardan kunda bir miqdor keltirib yegizar, ichirar, qadam haqi va dori puli olar edi.

Kasalda bo'lsa sog'ayish alomati ko'rilmadi, balki u kundun-kun darmonsizlanmoqda va og'irlanmoqda edi, buning ustiga, ishtahasi va yo'tali zo'raydi. Odina yo'taldan shikoyat qilganda, tabib:

– Zarari yo'q, tumovsiz; buni tojiklar «juro'bi badan», ya'ni ba ma'noyi inki, badanning supurgisi, ya'ni badan eritadi deydlar, qozoqlar bo'lsa: «Havo tuman bo'lsin, kasaling tumov» deb duo qiladilar. Qozoq xalqi xudodod hakim kishi «saksovul»³⁰ degan xaxm kasalining dori ham ularning cho'lida o'sadi. Va lixazo yo'taldan qo'rqish ba chi ma'ni³¹ Nihoyat saroybon:

– Taqsi! Dori-darmon bir sabab, umri boqiy bo'lsa, shunchalik bilan sog'ayar, ko'p xizmat qilib oz haq oldingiz, rahmat! Endi kelmasangiz ham bo'ladi, – deganda:

– Xo'p-xo'p, boz siz bizning dorilarga shakkoklik qilgan bo'lmagaysiz, unda sizga ham, kasalga ham zarar bo'ladi. Bizning mus'hil dorimizning sanoyi makka deydiarki, marhum padarimiz haj safariga borganlarida uni Makkatullodan o'z qo'llari bilan keltirgan edilar, ma'jularimiz va sharbatlarimiz bo'lsa, Hindiston degan «shahar»ning «Saran-dib» degan, Odam Ato ko'milgan mozoridan keltirilmish ko'katlardan pishirilgan. Sulaymon shayxi afg'oniy³² ham

³⁰ Bizning tabib «sarsabi» degan xaxm kasali uchun gaynatilib ishladigan bir dorini, qizil cho'lda «saksovul»ga ishtiboh qilganga o'xshaydi. (A.)

³¹ Ba chi ma'ni – qaysi ma'noda.

³² Sulaymon shayx Andijonda ham savdo, ham duoxonlik qiladigan bir afg'on edi.

bizning ma'jularidan iste'mol qiladilar, u kishi kichik odam emaslars, sulukda kashfi qobul³³ sohibidirlar, – deb eshikdan chiqdi, tag'in boshini eshikdan sugib saroybonga qarab: – Yana bu ukamizmi, o'zingmi, kasal-pasal bo'lib qolsangiz, fiqirni chagirasiz-da, – deb ta'kidladi.

Saroybon:

– Xudo saqlag'ay, – deb yuzini undan o'girdi.

XVIII G'ARIBLAR OQSHOMI (SHOMI G'ARIBON)

Bir dam olish kuni Andijonda ishlaydigan tojiklar San'inning chaqirishi bilan Odina boshiga yig'ildilar, kasaldan hol-ahvol so'ragandan keyin, o'zaro kengashib, tabdili havo uchun uni Toshkentga uzatmoqchi bo'ldilar; o'z o'rtalaridan yordam yo'li bilan bir necha so'm yig'ib, o'sha kunning ertasi kuni vokzalga chiqardilar. Toshkentgacha temir yo'l bileti olib, uni Andijon–Toshkent vagoniga o'rnatirib uzadilar. Biletidan ortgan pulni yo'l xarji uchun uning qo'lga topshirdilar.

Odina bir kecha-kunduzda Toshkentga yetib, poezd-dan tushdi. Ammo qayoqqa boruvini bilmas edi; yo'lovchilarning orqasidan ergashib zaldan o'tib, tramvay tomonga chiqdi. Yo'lovchilarning ba'zilar tramvay bilan, ba'zilar arava bilan, ba'zilar piyoda bir tomonga – shahar tomoniga qarab jo'naverdilar.

Odina yo'lovchilarga qancha termilab qarasa ham, ularning hech birisi bunga qaramas, hatto «shunday kimsasiz, uysiz bir g'arib bunda hayron bo'lib qolibdi», deb esiga ham solmas edi.

Nihoyat, vokzal tevaragida yuk tashuvchi hammollardan boshqa kishi qolmadi. Ular ham shahar tomonidan vokzalga

³³ Kashfi qobul – kashfi qolub yo kashfi qubur degani bo'lsa kerak.

kelayotgan yangi yo'lovchilarning yukimi tashib, non puli to'pish bilan ovora bo'lib, Odina degan g'arib, bir musofirdan xabarsiz edilar.

Odina hech bir kishi tomonidan yordam va rahbarlik ko'rmagach, asta-sekin tramvay yo'lining aylanmasi orasidagi maydoncha tomoniga o'tdi va bir daraxtning tagida cho'zilib yotdi, holsizlikdan hushsizlandi yoki horiganlikdan uyqu eltdi, har nima bo'lsa bo'lsin, bir necha soatdan keyin ko'zini ochib qaradiki, oqshom yaqinlashgan, dunyoni qorong'ilik bosayozgan, hali ham tramvay «jarang-jurung» qo'ng'iroq chalib maydonchani aylanmoqda, hali ham odam bolalari Odina tomoniga qaramasdan u yon-bu yonga qarab yugurmoqda edilar.

Bu oqshom uysiz, ko'ysiz Odinaning qaerga boruvini bilmaydigan birinchi oqshomi edi, bu oqshom g'arib Odina uchun haqiqatan «g'ariblar oqshomi» (shomi g'aribon) edi.

XIX

KUTILMAGAN YORDAM

– Tojikmisan?

Umidsizlik bilan dunyoning har bir narsasidan yumilgan ko'zini bu ona tilida eshitilgan tovush bilan ochgan Odina boshi ustida turgan bir yigitni ko'rib:

– Ha, baxtsiz bir tojik, – deb javob qaytardi.

– Bunda nima qilib yotasan?

– Bilmayman.

– Turadigan joying qaerda?

– Shu yer.

– Bu yer turadigan joy emas, bu yerda turish mumkin ham emas, qorovullar qo'ymaslar, boshqa biron joyga bormog'ing kerak.

– Biron joyni bilmayman, hech kimni tanimayman.

– Demak, bu shaharga yangi kelgansan, yur men bilan.

– O'rminndan qimirlashga madorim yetmaydi. Odina bilan gaplashib turgan yigit uning qo'ltig'idan tutib turg'izdi, o'ziga suyak maydonchadan chiqardi va tramvayga mindirib olib ketdi.

Odinaning g'ariblik, kimsasizlik yostig'i oldiga kelib, kutilmagan bir vaqtda unga yordam qo'lini uzatgan bu yigit, necha yillardan beri Toshkentning yangi shaharida bir choyxonada yollanib ishlab kelgan Shohmirza o'tli bir tojik edi. Bukun u g'alla kelirmoq uchun Oqtepaga borayotgan o'z xo'jayimini vokzalga chiqarib, qaytishda kesma yo'l maydoncha orqali o'tayotganda to'sardan Odinaga ko'zi tushgan, uning afti basharasidan tojikligini sezib, u bilan gaplashgan edi.

Shohmirza Odinani o'z choyxonasiga keltirib yotqizdi. Yo'lovchilar va horiganlarga mos keladigan mastava pishirib unga ichirdi. Bir karavot ustiga tozagina ko'rpa-yostiq solib uning uchun o'rin tayyorladi.

Horigan, holsizlangan kasal Odina mastavani ichgandan keyin bir oz o'ziga keldi, umidsizlangan chog'ida tanimagan bir kishi tomonidan o'ziga qilingan muncha yaxshilik va yordam uning ko'nglini ko'tardi, uni haddan tashqari quvonirdi, bu hol ham Odinaning darmonlanishiga katta yordam qildi.

Odina bu kecha toza to'shakni umrida birinchi daf'a ko'rmogda edi. Shuning uchun bu kecha to'la tinchlik bilan yotib erta bilan uyqudan tuzukkina quvvat topib turdi, birovga yoki tayogga suyanmasdan eshikka chiqib, yozilib, yuviniib kirdi.

Samovar oldidagi taxta ustida, dastro'mol bilan choymaklarning og'iz va jo'mraklarini artib o'tirgan Shohmirza, yuviniib kelgan Odina uchun o'z yaqinidan joy ko'rsatib, uning ahvolini so'radi.

Odina Shohmirza ko'rsatgan joyga o'tirib:

– Shukur, bu kecha tinch uxladim, bukun o'zinni teik-roq sezyapman, – dedi.

Shohmirza bir patnisga ikki dona non solib, Odinaga uzatdi va o'z oldidagi choynakdan bir piyola choy kuyib berdi. Choy ichishib turganda undan qaerdan va nima niyat bilan Toshkentga kelganini so'radi.

Odina boshidan o'tgan voqealarning barisini aytmasa ham kasal bo'lib zavoddan qovilganini, duoxon tabib voqealari gapirib, eng oxirida:

– Vatandoshlar kengashi bilan havo almashtirish uchun Toshkentga keldim, – dedi.

– Xush kelbsan, – dedi Shohmirza, qo'lidagi uchi qayilgan sim bilan samovar o'txonasidagi kullarni titkilab tushirib, – Toshkent katta shahardir. Sog'ayganingdan keyin bu yerda ish topmoq oson bu yerda davolanish ham oson, bunda donishmand doktorlar ko'p, bugun seni o'z tanishlarimdan bo'lgan yaxshi bir doktorga ko'rsataman; uning dorilari sen-ga foyda berar.

Odina umrida doktorga borgan emas va borishni ham istamas edi. Uning e'tiqodicha doktordan davolangan kasallarning ko'pisi o'lar, bu e'tiqod unga zavod hayotidan paydo bo'lgandi, zavoddagi ishchilar tif, o'pka shishidek qattiq kasalliklarga duchor bo'lardilar, ularning sog'liqlarini saqlov va doktorga ko'rsatuv uchun zavod idorasi tomonidan hech bir chora ko'rilmay edi. Kasalning sog'ayishidan butunlay umid uzilgandan keyin uning o'troqlari «har nima bo'lsa, bo'lsin» deb doktor chaqirar edilar. Vaqt o'tgach, davolanishning ko'pisi foydasiz bo'lib, kasal o'lar edi. Bu holni ko'rgan Odinadek tajribasiz ishchilar «doktor dorisi kasal uchun foydasiz, hatto o'limni tezlatadi», deb o'ylar edilar.

Odina o'zining doktor to'g'risidagi shu badgumonligi bilan Shohmirzaning taklifini rad qilib:

– Ko'p yaxshi, lekin men doktordan qo'rqaman, – dedi, – agar akalik qilib birorta musulmon tabibga ko'rsatsang, meni

minnatdor qilar eding. Toshkent katta shahar ekan, bunda donishmand hakimlar ham bo'lsa kerak. Shohmirza, qaynab-toshib bo'lib bo'lgan samovarni dastro'mol bilan artdi, qamish may bilan samovarning tagiga qo'ngan kullarni puflab tozaladi, so'ngira Odinaga qarab kulimsirab:

– Sen yanglishasan, uka, – dedi, – men ham boshda senga o'xshab doktor haqida badgumon edim, shu samovarxonaga xizmatga kirganimdan beri, doktorlarga ixlosmand bo'ldim va ularning odam bolalari uchun katta bir ne'mat ekanliklariga ishonдим, har yil Buxoro, Samarqand, Farg'ona va boshqa shahar va viloyatlarda yuzlarcha kasallar o'zlarini doktorga ko'rsatmoq uchun Toshkentga keladilar. Bularning ba'zilari bizning samovarxonaga qo'nadi. Bizga mehmon bo'lgan kasallarning ko'pisi bilan birga men doktor oldiga boraman, shu yo'sin doktor dorisi bilan sog'aygan ko'p kasallarni o'z ko'zim bilan ko'rdim. O'z aytishlaricha, ularning ko'plari, o'z shaharlaridan bir necha vaqt duoxonlar, eski tabiblar oldiga borib ko'p pulni behudaga sarf qilganlar, hech bir foyda ko'rmagach, doktorga kelganlar. Durust, ularning ba'zilari doktorga ko'rsatganlari holda o'lar edilar. Lekin buning sababi, doring ta'sir qilmaganligida yoki zarar qilganligida bo'lmagan, davolanish vaqtining o'tganligida va o'z vaqtda doktorga ko'rsatilmaganlikdandir. Sen unday bo'sh vasalarni boshingdan chiqar va doktorga borishga hozirlan.

Odina Shohmirzaning bu dalil va hujjatlarini rad qilmogqa hech bir vaj topa olmay, boshqa bir yo'lni tutdi:

– Men, – dedi, – bu yil tuzuk ishlayolmay kasal bo'ldim, dori-darmon nari tursin, kundalik ovqatimni topishga ham qudratim yetmadi. Shu holda qanday katta doktorlarga borib o'zinni ko'rsataman.

– U tomonlarni o'ylama, – dedi Shohmirza, – doktorga ko'rsatish, sog'ayuningcha boqish mening gardanimga. Bu choyxona o'z zimniki bo'lmasa ham, o'z zimnikidek bo'lib qol-

gan. Men necha yillardan beri bu yerda ishlab, xizmat haqi olgan emasman. Keyingi yillarda esa, xo'jayin choyxona kirimiga xaltachilikni foydaliroq bilib Samarqand bilan Oq-tepa orasida qatnamoqda: Samarqanddan mayiz olib xaltachalarga joylab, Oqtepa eladi, u yerdan bug'doy, un olib Toshkentga keltiradi. Choyxona ishini butun menga topshirgan. Men bu yerda kecha-kunduz ishlab yo'lda qolgan bir faqir vatandoshimni bir necha kun boga olmasam, bu qora mehnatdan menga nima foyda? Seni yil bo'yi boqsam ham xo'jayin menga bir nima deyo'lmas, agar zo'r bo'lsa, choyxonasini olar. Bu dov-dastgo'lni mendan boshqa bir kishiga topshirsa, bir oyda hamma narsalarini barbod berishini u yaxshi biladi.

O'dina uchun doktorga ko'rsatishga rizo bo'lishdan boshqa yo'l qolmagan edi. Lekin hali ham ko'ngli tinchlangan emas, hali ham doktor to'g'risida shubhada edi, shuning uchun til uchida:

— Xo'p, borsak boramiz, — deb qo'ydi.

O'dina doktor masalasini bir yoqqa tashlab, Shohmirza to'g'risida o'ylay boshladi.

«Bu qanday yaxshi odam? Hech bir tanishligi bo'lmagani holda menga shuncha yaxshiliklarni qildi, menga joy berdi, osh berdi, non berdi. Buning ustiga, sog'aygunimcha yordam qo'lini tortmaslikka va'da ham berayotir. Gaplariga qaraganda, ko'pni ko'rgan dono yigitga o'xshaydi».

O'dina yana doktor ustida fikr yuritdi:

«Shunday yaxshi dono kishi, doktorni durust sanamasa, nima uchun birovi unga ko'rsatishga undasin, iima uchun meni ko'chadan topib kelib boqsinda, o'z xarajati bilan yana meni xatari bir yo'lga solsin, yo'q, bu gap aqlga to'g'ri kelmaydi. Ajab emaski, mening sog'ayishim shu odam ko'rsatadigan doktoring qo'lida bo'lsa...»

O'dina shunday mulohazalar bilan doktorga ko'rsatishni o'zicha muqarrar qilib:

— Doktorga qachon boramiz? — deb so'radi Shohmirza-dan.

Shohmirza, O'dinada yuz bergan fikr o'zgarishidan quvonib:

— Shu bugun, peshindan keyin, soat to'rtida, — dedi.

XX

DOKTOR

Doktor qabulxonasining yo'lida kasallar qatorida O'dina bilan Shohmirza ham o'tirgan edilar. Bir kasalni ko'rib bo'lib, uni uzatayotgan doktor ikkinchi bir kasalni chaqirmoq uchun boshini yarim ochilgan eshikdan tashqariga chiqarib, yo'lakdagi kasallarni ko'zdan kechirdi, kasallar qatorida Shohmirzani ko'rgach, uni imlab navbatsiz kirmakka taklif qildi. Shohmirza O'dinani ergashtirib boshqa kasallarning:

— Navbatsiz? Bu qanday tartibsizlik? — deb do'ng'illashlari ostida qabulxonaga kirdi. Doktor O'dinaning yirtiq choponini ko'rib bir oz o'zgargan bo'lsa ham, tezdan avvalgi ochiq yuzli vaziyatini olib:

— Kasal shu kishimi? — deb O'dinaga qaradi.

Birinchi daf'a O'dinaga ko'zi tushganda doktoring yuzi burushganligini ko'zidan qochirmagan Shohmirza:

— Ha, kasalimiz shu kishi, buni ko'chada yiqilib yotganini ko'rib rahmin kelib o'z do'konimga keltirdim va o'z hisobindan dori-darmon qildirmoqchi bo'ldim. Bechora yosh yigit ekan. Sog'ayib ketga, bir foydasi tegar, — deb kasal faqir bo'lsa ham davolash puli kuymasligiga ishorat qildi.

Doktor:

— Ko'p yaxshi, — deb O'dinani kiyimlarini yechuvga buyurdi.

Doktor O'dinani yaxshigina muayana qilgan — tekshirgan-dan keyin, uning uchun dori yozmoqchi bo'lib otini so'radi. Haligacha Shohmirza o'z himoyasiga olgan kasal mehmon-

ning otini bilmas edi, doktordan uyalgandek bo'lib, Odina-
dan:

– Oting nima? – deb so'radi.

– Odina, – deb javob berilgach, doktor, dori xatini yo-
zaverdi, o'z ichida Shohmirzaning sof va keng yurakligiga
tahsin qilmogda edi. Shohmirza savodsiz bir faqir bo'lgani
holda, yo'lda qolgan boshqa bir faqirni qo'llasin, uning
otini bilmagani holda, o'z hisobidan unga dori-darmon qil-
dirmogchi bo'lsin, «insoniyat yo'lida xizmat qilaman» deb
o'qib doktor bo'lgan madaniy bir kishi «bu faqirdan tabobat
haqi ummas yoki oz unar» deb yuzini burushirsin. Doktor
bu o'ylar bilan o'z-o'zidan uyaldi, qizardi, dori xatini yozib,
Shohmirzaga topshirib, ichish soatlarini va miqdorini tayin
qilgandan keyin:

– Ertasi bilan nahorda yo'talib tashlagan tupugingni bir
idishga solib menga keltir, – deb tayinladi.

Shohmirza haq bermoq uchun cho'ntagini kovlayotganda
doktor:

– Yo'q, kerak emas, sening rahming kelgan odamga me-
ning ham rahmim kelmog'i kerak, holbuki, sen keltirgan
pulli ko'p kasallarni davo qildim, birisi pulsiz bo'lsa zarar
qilmas, – dedi. Yana qo'shimcha qilib:

– Sizing «yuz qovunning bir partovi bor», degan bir
maqolingiz bor. Bu juda hikmatli so'zdir. Bu ham yuzta pulli
kasallar orasida partov bo'lsin, – deb kulib qo'ydi.

U kunning ertasi Shohmirza Odinaning tupugini keltir-
ganda, doktor unga:

– Mening topishimcha, kechagi kasal sil bo'lgan, u biror
yil bundan ilgari bu kasallikka uchraganga o'xshaydi. Lekin,
sira dori-darmon qilmaganligi, turmush va ovqatning yo-
monligi uchun, bu muddat ichida o'pkasi juda ko'p zararlan-
gan. Ahvolining ko'rinishidan men shunday topdim, tupu-
gini tahlil (analiz) qilib ko'rilgandan keyin yana yaxshiroq

bilinadi. Bechora kasal, qattiq asabiy ham bo'lgan, bulardan
boshqa yomon ovqatdanni, yo boshqa biror sababdanni,
me'da va ichaklarida ham illat paydo bo'lgan ekan, shuning
uchun ovqat hazm bo'lmay, ishtahasizlik va kamqonlikka
uchragan. Kecha yozgan dori-larim shu keyingi dardi uchun
edi. Agar dori-larni o'z vaqtida ishlat-sa, tezlik bilan ichak va
me'dasi sog'ay-ar, ammo silligi uchun tupugini tahlil qilib
ko'rgandan keyin dori yozaman.

– Durust topgansiz, o'zining aytishicha, bundan bir ne-
cha kun burun Andijonda bir musulmon tabib unga surgi dori
ichirgan, – deb Shohmirza doktor so'zini tasdiq qildi.

– Xayriyatki, o'lmay qolgan, – dedi doktor, ichini sur-
dirish bunday kasallar uchun o'limni chaqirishdir. Ayniqsa
tabiblarning surgi dori-lari har qanday sog' va kuchli odam-
larni ham yiqitadi. Shunday dori-larning birinchi xosiyati
yurakburug'i bo'lganidan bechora kasalning ichaklari ta-
mom ozorlangan.

Doktor o'z so'zining oxirida:

– «Sen sil bo'lgan ekan-san» deb kasalga ayta ko'rma,
bo'lmasa umrining qisqaruviga sabab bo'lursan, doktor «tez-
lik bilan sog'ayadi» dedi, deb uni yupat, tag'in ertaga kelib
mendan xabar ol, tupugini ko'rgandan keyin dori yozaman,
– deb Shohmirzani uzatdi.

Ertasi Shohmirza doktor oldiga kelganda u:

– Tupukning tahlili mening aytganlarimni tasdiq qildi, –
deb boshqa bir dori yozib berdi, – yengil hazm bo'ladigan
ovqatlar yeb, toza havo-joylarda tursin, ovqat uchun sut,
tuxum, tovuq go'shti, sariyog'dek narsalarni ko'proq ish-
latsin, agar topa olsa gand o'rmi-da asal, choy o'rmi-da kakao
iste'mol qilsin, oftobdan ko'proq foydalansin, gimiz mavsu-
mi kelganda gimiz ichsin, – deb buyurdi... Shuni ham bilib
olki, – dedi doktor, – bu dard yuqumlidir, ozgina ehtiyotsizlik
bilan sog' kishilarga o'tadi. Shuning uchun kasalning kosa,

tovoq, choynak, piyola va bo'lak narsalarini boshqalarniki-dan ajrat, ishlatilgan idishni qaynoq suv bilan yuvib, oftob-da qurit, tupurish uchun maxsus tufdon saqla, yerni chuqur qazib, tufdonni shunga to'k, so'ngra chuqurni qalin tuproq bilan bosib ko'm, tufdonni chayqaganda qaynoq suv ishlat, oftobda qurit, kasalning narsalari boshqalarning qo'llariga va ovqatlariga tegmasligi to'g'risida qat'iy ehtiyot bo'l...

XXI

OKTYABR INQILOBI

Toshkent ko'chalarini to'p, miltiq tovushi o'rab olgan, ko'chadagi xalq har tomonga qochmoqda, do'kon, uy va saroylarning eshiklari yopilgan, derazalarga qora pardalar tortilgan, devorlar, derazalar o'q zarbidan yoritilgan va tes-hilgan...

Shohmirza sichqonning mushukdan qochayotgandagi shoshilishi kabi shoshib-pishib, yugurib kelib o'z do'konining ko'cha tomondagi taxtabandlarini bog'liq ko'rgach, saroy ichidagi pastqam eshikdan choyxonasiga kirdi. Unda o'n besh-yigirma nafarcha noma'lum kishilar yig'ilgan va navbatma-navbat taxtaband orgasiga borib tashqariga qaramoq-da edilar.

O'z o'rnidan turib tashqariga qarashga kuchi yetmasa ham, to'shak ustida yarim cho'zilgan holda yostiqqa suyanib nimalar bo'layotganini anglamoq uchun intilmoqda bo'lgan Odina, Shohmirzaning kelib kirganini ko'rgach:

— Salomat qaydingmi, to'polon boshlanganda qacarda eding? O'zi nima gap? — deb ustma-ust so'roqlar berdi.

Shohmirza ko'ylagini qo'li bilan qimirlatib ko'kragini yelpigani holda:

— Men, — dedi, — bir ish uchun Salor bo'yiga chiqqan edim, qaytishda qancha kutsam ham, tramvaydan darak bo'lmadi, Pushkin ko'chasi bilan piyoda yo'lga tushdim:

yo'l ustidagi butxonaga yaqinlashganimda, Skver tomoni-dan qars-qurs qilib miltiq tovushi eshitila berdi. «Soldatlar mashq qilayotgandir», deb kela berdim, har kancha ilgari-lashsam, shuncha miltiq tovushi, xalqning shov-shuvi ortar edi. Yana ilgari-lanib Skverga yaqinlashganimda qarshimdan beshalab-o'ntalab qochayotgan xalq chiqqan boshladi.

— Bu nima gap? — deb bergan savolimga hech kim javob bermay: «Bilmayman», — degandek qilib yelkasini qisib o'z yo'lida yugurib keta berdi.

O'shanda ham men o'zimcha bu «qars-qurslar»ni sol-datlar mashqi deb o'ylar edim. Shu paytda bir o'q g'izillab quloq-chakkam yonidan o'tib ketdi. Men beixitior yiqildim. Chunki, o'q tegdi, deb gumon qilgan edim. Qulog'imning tagini siypab ko'rdim, suyuq bir narsa qo'limga tegdi:

— «Hay darig', bekorga o'ldim shekilli?» — deb qo'limni ko'zimga yaqin keltirib qaradim, qon tusi ko'rinnadi, u su-yuq narsa ter ekan.

Shu qo'rqish bilan o'lar holatga yetgan bo'lsam ham, jon aching'ida surila-surila o'zimni bir tor ko'chaga oldim...

— O'q tekkan bo'lmasa muncha qo'rqish nima uchun edi? — deb u yerdagilardan birovi Shohmirzaning so'zini kesdi.

— Men-ku, quloq-chakkamdan o'q o'tganda qo'rqdim, sizlar «qo'rqmas botir» ekansiz, hech bir narsani ko'rmasdan bu do'konning burchagiga tiqilib nima qilasizlar? — Hamma kulib yubordi.

Hikoyaning oxirini eshitishga havaslanib turgan Odina:

— Xayr, qo'y, gapir, so'ngra nima bo'ldi? — dedi.

— So'ngra, — dedi Shohmirza, — tor ko'chada devor tagi-da o'tirib esimni boshimga yig'ib oldim, tom ustidan daraxt shoxlari orasidan o'qlar ketma-ket g'izillashib o'ta berdi. Bu to'polonning soldat mashqi emasligini, balki jon olib, jon be-rish mashqi ekanligini tushundim. Bir oz o'zimga kelganim-dan keyin tor ko'chalar, hovli va bog' orallari, suv yo'llari

bilan yo'llandim, tag'in bir nechta bor qulog'im tagidan g'zillab o'qlar o'tgan bo'lsa ham, avvalgidek qo'rqmadim, o'qning kelish tomonidagi devorlarga kapishib kela berdim.

— Ko'p yaxshi, to'olon sababi nima ekan? — deb so'radi Odina.

— Boya aytdimcha, — dedi Shohmirza, — boshda men bu to'polonni soldatlar mashqi deb o'ylagan edim, so'ngra buning katta bir voqea ekanligi bilindi. Lekin qanday voqea va sababi nima ekanligini bila olmadim.

Odina keyingi so'roqni takrorlagan choqda ko'chadan qochib pasiqam eshikdan kelib kirgan bir noma'lum kishi:

— Bu to'polonning sababini men bilaman, — deb gapga qo'shildi: — Kerenkiy, — dedi noma'lum kishi, — Nikolayni taxidan tushirib, uning o'miga o'zi podsho bo'lgan edi, endi ishchilar va mujiklar³⁴ Lenin qo'l ostida bosh ko'tarib, uni bekor qilib, hokimiyatni o'z qo'llariga olganlar. Bekor bo'lgan Kerenkiy odamlari Nikolay odamlari bilan birgalashtirib, ishchi va mujiklarga qarshi chiqqanlar. Shunday bo'lib Rossianing har tomonida to'olon boshlangan, shu qatorda bugun Toshkentda ham nikolaychi va kerenskiychilar bir tomonda, ishchi va mujiklar ikkinchi tomonda bosh ko'tarib urushganlar.

— Bekor gap, Nikolay podshodan ham zo'r chiqib, uni yiqitgan Kerenkiyni bir «hovuch» ishchi va mujiklar qanday bekor qila olsinlar? Bu qip-qizil yolg'on, — deb u yerdagilar-dan biri noma'lum odamni yolg'onchi qilmog'chi bo'ldi.

Noma'lum odam o'z so'zini quvvatlab:

— Men, — dedi, — bu gaplarni o'z-o'zidan to'qib chiqarmadim, balki bir nechta yillardan beri Piyonbozorda do'kondorlik qilib ruschani o'rgangan, savodsiz bo'lgani

holda ancha-muncha zakondan xabardor bo'lgan bir tanishimdan eshitdim.

U noma'lum kishi siyosat va hukumat tartiblaridan butun xabarsiz bo'lib, o'z eshitganlarini avomona naql qilgan bo'lsa ham, u kunlardagi siyosiy ahvolni shu qisqagina so'z bilan butun ifoda qilgan edi: chunki, Kerenkiy o'zini podsho e'lon qilmagan bo'lsa ham, podsholik siyosatini ayni davom qildirmog'chi edi, hatto ishchi va dehqonlarning uylarini buzib, xotinlarini beva, bolalarini yetim qoldirgan, mamlakatning butun borliq va obodonligini kuydirgan urushni ham davom qildiruvga qaror berib, hujumga buyurgan edi.

Ishchilarning yagona dohiysi Lenin Muvag'qat hukumatining siyosiy va ijtimoiy boshqarishini boshdan, fevral inqilobi kunlarida aniqlab qo'ygan, shuning uchun fevral inqilobi keyingi maqsad emas, balki buyuk ijtimoiy inqilobning daromadi, deb ikkinchi inqilobga hozirlana boshlagan edi.

Mana shunday bo'lib, Lenin va uning partiyasi — bolsheviklar partiyasi rahbarligi ostida ishchilar, askarlar va mehnatkash dehqonlarning fikrlari bir nuqtaga — hukumatni Sho'rolar qo'lliga olish nuqtasiga to'planib, 1917-yil 25 oktyabrda (yangicha 7 noyabrda) katta va zo'r qo'zg'olon yasadi. Hukumat Sho'rolar qo'lliga olinib, bu inqilob tarix sahifalariga Oktyabr inqilobi nomi bilan yozildi.

Bizning soddasiyosatchimiz aytgancha, har yerda Nikolay va Kerenkiy odamlari (boyilar, sarmoyadorlar, katta yer egalari, eski amaldorlar va ularning yuvindixo'rlari bo'lgan ziyolilar va ruhoniylar) birlashib, Oktyabr inqilobiga qarshi qo'zg'almog'chi edilar.

Bizning siyosatchimizning ma'lumotini eshitgan bir toshkentlik:

— Bizning sho'royi islom qaysi tomonda ekan? — deb so'radi, u kishi:

— Bilmayman, — deb javob berdi.

³⁴ U vaqtlarda Turkiston ommasi rus faqirlarini umuman mujik deb aylar edilar.

Odina so'zga qo'shilib:

— Sho'royi islom kim? — deb so'radi. (Odina sho'royi islomni bir shaxs deb o'ylagan edi, shuning uchun «kim» deb so'radi.)

U yerdagilardan birovni Odinaga qarab:

— Nikolay bekor bo'lgandan keyin, — dedi, — eski shahar boylari, mullalar va boshqa ruscha o'qiganlar bilan birgalashib bir jamiyat tuzgan ediarki, bukungacha eski shaharda shu jamiyat hukm suradi. Mana shu jamiyatning oti «sho'royi islom»dir.

— Agar sho'royi islom mullalar va boylardan to'plangan bo'lsa, albatta ishchilar va faqirlarga qarshi chiqib, Nikolay va Kerenskiy tomonga qo'shilar, — deb Odina sho'royi islom to'g'risida so'ragan birinchi toshkentlikka javob berdi.

Odina sinfiy qarshiliklarni, gaysi tabaqaning manfaati, gaysi sinf bilan bog'langanligini albatta bilmas edi. Lekin o'zining boshidan o'tgan voqealardan tajriba bilan boy va mullalarning faqirlarga qarshiliklarini bilardi. Boyning eng kichiklari bo'lgan Arbob Kamol uni shuncha ezmagan, imom mulla Xakirah va qishloqning boshqa odamlaridan ham boy tomoniga o'tib, uni xonavayron qilmaganmi edi?.. Ehtimol Odina Arbob Kamol va mulla Xakirah voqealaridan ham sinfiy qarshiliklarni fahmlay olmas edi; lekin uch yillik zavod xizmati, u yerdagi siyosiy savodli ishchilarning tashviqotlari, nihoyat fevral inqilobidagi ishchilar namoyishi va u kundagi nutqlar uning fikrini o'z boshidan o'tgan voqealardan ibrat oladigan darajada ochgan edi.

— Tiq, tiq, tiq, tiq...

— Gurs, gurs, gurs...

Odina o'z so'zini bitirgan choqda choyxona eshigi ko'cha tomondan boshda sekinroq, «tiq-tiq» urildi. Bu yerdagilar jinn bo'lib qoldilar. Uzoqni o'ylovchi ehtiyokkorlar sandiq va shkaf oralariga, rafchalar ustiga, ko'rpa-yostiqlar orasiga yashirindilar.

Ichkaridan javob bo'lmagach, gursillatish shiddatlanib, eshik sinayozdi. Javob berishga yoki borib qarashga tag'in hech kim botirlik qilolmadi. Eshikni qoquvchi noma'lum kishi asabiylashib:

— Shohmirza! Shohmirza! — deb baqirib chiqardi.

Shohmirza qo'rqish va titrash bilan eshik orqasiga borib tirqishdan qaragandan keyin ko'ngli tinchlantib:

— Ivan! Semnisan, men xuliganlarnikan deb o'ylagandim, xo'sh, nima deysan? — dedi.

— Eshikni och! Suvsab o'layozdim, — dedi eshik qoquvchi.

— Orqadagi pastqam eshikdan kel, — dedi Shohmirza.

— Nimadan qo'rqasan, eshikni ochaver!

— Agar suv kerak bo'lsa orqa eshikdan kel, bo'lmasa bizni tinch qo'yib, o'z ishingga ketaver, tovarish Ivan!

Ivan «Chort!...» deb so'kib, choyxonaning orqasiga o'tib, qo'lida yarqillab turgan bir to'pponcha bo'lgani holda pastqam eshikdan kirdi. Uning qo'lida to'pponcha ko'rgan choyxona ichidagi odamlar shivirlashib qoldilar. Shohmirzani qo'rqoq deb ta'na qilgan kishi bo'lsa, qo'rguvdan boshini ko'mir chelagining ichiga tiqdi.

Shohmirza:

— Qo'rqmanglar, bu mening oshnam, yomon odam emas, — deb tasalli bergach, uydagilar tinchlendi. Lekin, boshini ko'mir chelagiga tiqqan odamning yuzi qop-qora bo'lib chiqqan edi.

Shohmirza unga:

— Ha, «qo'rqmas botir», to'pponcha otlmasdan ilgari uning tutuni yuzingizni qoraytirib qo'yibdimi? — deb yana uni bir qarta ezdi, hammalari kulishdilar.

Ivan supachaga o'tirib, to'pponchasini yoniga qo'ydi. Shohmirzaga qarab:

— Tez bo'l, bir kosa sovug suv ber! Tashnalikdan tomog'im quridi, — deb peshmat kamzulining tugmalarini yechib, ko'kragini shamollataverdi.

– Terlab kelibsan, – dedi Shohmirza, – sovuq suv zaraf qilar, choy ichsang-chi?

Ivan yengini shimarib, bilaklarini ko'z-ko'z qilib:

– Bu qo'llar, – dedi, – o't ko'ralari, qor bo'ronlariga surilib, otash pechkalariga suyanib pishgan; biz ishchilar mehnat ostida, mashqat ichida dunyoning barcha issiq-sovuqlarini ko'rib o'sganmiz; endi biz na sovuqdan qo'rqamiz, na issiqdan qochamiz. Bu kengashingni qo'llarini issiq-sovuqqa urmasdan, sira ishlamasdan, boshqalarning qo'l kuchlari soyasida tirikchilik qilib, erkalik to'shagida yastanib yotganlarga ber.

Shohmirza Ivanga bir kosa lim-lim sovuq suv uzatib:

– Qyel, qo'y, ko'p gapirma, suvni ichib aytib ber-chi, shaharni ostin-ustun qilgan to'polonning o'zi nima gap? – dedi.

Ivan kosadagi suvni batamom sipqarib:

– Tag'in to'ldir, – deb kosani Shohmirzaga uzatgach:

– Da, – deb so'zga kirishdi: – Hali, – dedi Ivan, – bu shahar ostin-ustun bo'lgan emas, hatto bu shaharda birorta tovuqning katagi ham buzilgani yo'q. Agar butun bu shahar va butun shaharlar, hatto butun dunyo ostin-ustun bo'lib ket-sa ham ajab emas va shunday bo'lmog'i kerak. Tamoman yangi bir dunyo qurmoghimiz, buning uchun eski dunyo buzilmog'i lozim: bu buzilishdan xafa bo'lish to'g'ri emas. Agar sen o'z choyxonangni yangidan qurmogchi bo'lsang, boshlab bu eskirgan imoratni buzasan, keyin yangi imoratning poydevorini qurasan va «eski imoratim buzildi» deb xafa ham bo'lmaysan.

Ivan labini artib, oldiga qo'yilgan ikkinchi kosa suvni ichib:

– Tag'in to'ldir, – deb kosani Shohmirzaga uzatdi. Shohmirza kosani olmay pafirni keltirib undan kosani to'ldirdi:

– Men sening bu gaplaringdan, – dedi Shohmirza, – hech narsa anglamadim, o'zing ham tushummasdan so'ylayotganga o'xshaysan, ichib kelibsan shekilli, maslarga o'xshab gapirayotirsan.

– Tuzuk, – dedi Ivan, – bir oz ichganman, lekin gaplarimni juda yaxshi tushunib gapiryapman.

– Unday bo'lsa bizga tushunarli qilib gapir, bunday Bedil o'qib, afsona to'qimal!

Ivan boshini bir-ikki gimiratgandan keyin:

– Har nima desam, boya aytganlarimdan ortiq bir narsa bo'lmas; xo'p, sening xotiring uchun tag'in bir daf'a so'zlay, – deb so'zga kirishdi:

– Biz ishchilar, – dedi Ivan, – uzoq yillar podsho hukumati va sarmoyadorlar zulmi ostida qon yutdik, ezildik: bizning minglarcha kasbdoshlarimiz, bobolarimiz ochlik va qullik ostida jon berdilar. Biz korxonalarda, fabrika-zavodlarda, temir yo'llarda, ko'mir, temir va neft konlarida ishladik: ammo butun foydani bo'lsa, sarmoya egalari o'z cho'ntaklariga urib, kayfi safo qildilar, biz o'lmas ovqat tilaganda, bizga non o'rimga podsho hukumating o'qini yubordilar. Bizdan biron «ayb» ko'rilganda uyimiz zindonu tomoshagohimiz Sibir taygalari bo'ldi.

Nihoyat, ishchi rahbarlari shu fikrga keldilarki, sarmoyadorming qonun-qoidolari oradan ko'tarilib, ishlab chiqarishning ixtiyori ishchilar qo'lga o'tib, jamiyat tartibi o'zgartmaguncha, xalqning ko'pchiligi bo'lgan mehnatkash va kambag'allar tinchlik yuzini ko'ra olmaslar.

Shuning uchun ishchilar o'z dohiylari Lenin va o'z partiyalari bo'lgan bolsheviklar partiyasi rahbarligi ostida, ko'p yillardan beri hukm surib kelgan sarmoyadorlik tartibini yo'qotish va ya'ni tirikchilikning yangi usulini qurishga tayyorlanmogda edilar. Shunday qilib bir qo'zg'olon bilan podshoni yiqidilar, bu fevral inqilobi edi.

Lekin, bu inqilob bilan ishchilarning murodi hosil bo'lmadi: fursatdan foydalangan Muvagqat hukumat – Kerenskiy hukumati ish boshiga kelib, tag'in sarmoyadorlar usulini davom qildirtdi...

Bizning soddasiyosatimiz, o'zini yolg'onchi qilmoqchi bo'lgan kishining qulog'iga pichirlab:

— Ana ko'rdingmi, Kerenskiy sen o'ylagancha zo'r kishi emas ekan, ishchi va mujiklar Nikolayni quvlagandan keyin, tayyor oshga bakovul bo'lib taxtga mingan bir aldovchi ekan, — deb o'zini oqladi.

Shohmirza ularga qarab:

— Pichirlashmanglar, gapni eshtaylik, — Ivanga qarab, — gapiraver, — dedi.

— Shu bilan, — dedi Ivan, — yana bizning dushmanimiz, boshqacha aytganda, ko'pchilik xalq dushmani — sarmoyadorlar ish boshiga qo'ngaygan edilar. Albatta ishchilar, soldatlar va mehnatkash dehqonlar bu ishga rozi bo'la olmas edilar, rozi ham bo'lmadilar.

Butun dunyo ishchilarining yo'lboshchisi va dohiysi o'rtoq Lenin o'z bolsheviklarini yaxshi tartibyalab ishga soldi, sinfiy manfaat nuqtai nazaridan hamma fikrlarni birlashtirib ishchi-dehqon ommasini yagona maqsad yo'lida — hukumatni qo'lga oluv yo'lida bir yogadan bosh chiqartirdi. Shunday bo'lib, mehnatkashlarning bari Kerenskiy hukmati va sarmoyadorlik tartibiga qarshi qo'zg'aldi va Kerenskiy hukmatini oradan ko'tarib tashlab, hukumat ishining ixtiyorini ishchi-dehqon va askarlar sho'rosi (soveti)ga toshirdi, bu esa Oktyabr inqilobi...

— Molodets! Yasha! — deb yubordi bizning siyosatchi, so'ngra o'rman turib Ivanga qaradida:

— Ayt-chi, tovarish! U, qizitaloq Kerenskiyning o'zi nima bo'ldi? — dedi.

— Qochdi, — dedi Ivan.

— Hay, attang, qo'lga tushmabdi-da, qaerga qochgan ekan? — deb takror so'radi siyosatchi.

— Chort bilsin, — dedi Ivan, — biror go'rga ketgandir-da, gap uning qochishida yoki qo'lga tushishida emas, gap uning dumlarini, u maydonga tashlagan sinfiy dushmanlarimizni

utib, yo'qotishdadir. Kerenskiy qochdi. Lekin, shu bilan bu lah tinch o'tmas edi. Asrlardan beri Hukmronlik qilib, mehnatkashlarning qonlarini so'rgan, ishchilar boshida o't yoqib kelgan sinf tinchgina ish boshidan ketmas, o'z qo'li bilan o'z hukokati uchun chiqarilgan hukmga muhr bosmas edi. Haqiqatda ham shunday bo'ldi: har yerda kerenskiychilar, nikolaychilar, fabrika-zavod hamda katta yer egalari, umuman, boy savdogarlar va sarmoyadorlar, ularning dumlari bo'lgan ruhoniylar birlashib bizga qarshi — mehnatkashlar va ularning hukumatlariga qarshi ochiqdan-ochiq va yashirin xuruj qildilar va xuruj qilmoqdalar. Albatta, ishchi va mehnatkashlar ham ularning xuruj va hujumlariga jim qarab turolmamas edilar, o'z qonlari baravariga qo'llariga kirgizgan huquqlarini saqlab qolishlari kerak edi. Haqiqatda ham shunday bo'ldi. Mamlakatning har tomonida sinf bilan sinfning to'qinishi, proletariat sinfi bilan ekspluatator sinfning urushi boshlandi; bugun Toshkentda yuz bergan to'polon o'sha voqealardan biridir. Lekin bu eng so'nggi voqealar emas; sarmoyadorlik usuli va imorati butunlay buzilguncha, uning tarafdorlari butunlay yo'qolguncha, ishchilar hukmati mustahkamlanib, yangi hayot binosi — sotsializm dunyosi qurilguncha shu kurashning davom qilmoq'i kerak va davom qilajak.

Men so'zining boshida shu gaplarni «eski dunyoni buzamiz, yangi dunyo tuzamiz» so'zi bilan qisqartib, senga anglatmoqchi bo'lgan edim, ammo sen tushumading. U gaplarning mastlik asari yoki xayol bo'lmaganligini, balki bir kitob, gapning xullasi va qisqasi bo'lganini endi tushungan bo'lsang kerak.

Ivanning bu soddasiyohiq gaplarini yolg'iz Shohmirzagina emas, bu yerdagilarning hammasi tushunib, bugungi to'polonni tag-tug'i bilan angladilar va Ivanni:

— Urra! Yashasin ishchilar va Oktyabr inqilobi, yo'q bo'lsin sarmoyadorlik va uning tartibi! — deb olqishladilar. Bu umumiy shodlikka yolg'iz Kerenskiy zo'rligini da'vo qilib,

bizning siyosatchini yolg'onchi qilgan kishi qo'shilmadan, ichida:

«Hay, darig', agar ish shunday bora bersa bizning ko'n zavodimiz ham qo'ldan ketadi, desang-chi», – deb zorlanmoqda edi.

Temir yo'l deposi tomonidan hayqirib ustma-ust chalingan gudok sadosi bilan Ivan yana bir kosa suvni ko'tarib to'pponchasini qo'lga olib, o'rnidan irg'ib turdi-da, choyxonadan chiqib, depoga qarab yugurdi.

XXII 1918 YIL

1918 yil. O'rta Osiyo mehnatkashlari uchun juda qat'iq yil bo'ldi. Bu o'lkada 1917 yil yog'ingarlik bo'lmagani uchun ochlik va qimmatchilik boshlangan edi, shu yilning oxirida xalqning zaxiralari bitib, qahatchilik yuz berdi. Burchak-burchaklarda oz-moz oziq topilsa, uni darrov boy va xannotlar olib o'z omborlariga tiqar, so'ngra deyarli jon baravariga qimmat narx bilan ochlikdan o'layotganlarga bir parcha non berar edilar.

Shu hol bilan 1918 yil kirdi, mamlakada ochlik qo'rqinchi mash'um qanotini yoydi: qishloqlardan kambag'al dehqonlar, mardikorlar, cho'llardan uysiz-joysiz ko'chmanchilar qoramol podasidek to'da-to'da bo'lib ovqat izlab shaharlarga kelar, ular yo'l ustida, ariflar bo'yida, soylar tagida, qum tepalari ostida o'lib yotar edilar. Bu fojiali manzara yolg'iz dalalardagina bo'lmadan, shahar ko'chalarida ham odat hukmiga kirgan edi. Ko'klam yaqinlashgan sayin o'lkaning xirasi tag'in ozaya borib, ochlar va ochdan o'layotganlarning sonlari ko'payar edi.

Buning ustiga, ochlik va qahatchilikning to'ng'ich bolasi bo'lgan tif (terlama kasali) paydo bo'lib, xalqni ikkinchi tomondan qirib, tuproqqa topshira berdi.

Qo'qon muxtoriyatining boshlig'i Ergash va boshqa boshmachilarning xuruji, dashnaqiyunlarning tartibsizliklari O'rta Osiyoning boqchasi sanalgan Farg'onani boyo'g'ilixonaga aylantirdi.

Kolesov voqesi bahonasi bilan boshlangan amrning jallodligi u tomondagi mehnatkashlarning boshlariga boshqa bir balo bo'lib tushdi.

Durst, Sho'rolar hukumati mustahkamlangan yerlarda bu falokat selobining oldi bir oz olindi: har yerda ochlik bilan kurashadigan qo'mita va jamiyatlar tuzildi, hukumat qo'lidagi oziqlar, kundalik muayyan norma bilan xalq ommasiga taqsimlana bordi. Uysiz-joysiz ochlar umumiy yotoqxonalariga to'planib, imkon boricha yedirib, kiyintirildilar. Tif kasalligining oldini olmoq uchun tibbiy va boshqa choralar ko'rildi. Lekin bu ishlar shaharlarda, yuqorida aytilganicha, Sho'rolar hukumati nufuz topgan yerlarda edi. Ammo boshqa joylarda, ayniqsa qishloqlarda odam bolalarining tolei taqdirga havola qilingan edi.

Bu hol 1918 yilning bug'doy pishig'i vaqtigacha davom qilib, xalq qo'lga g'alla kira boshlagach, oz-moz yaxshilana boshladi. Lekin bu vaqtda butun Rossiya va O'rta Osiyoda g'rajdanlar urushi boshlangan edi. Tashqaridagi sarmoyadorlar ichkaridagi aksilingilobchilarga yordam berib, bu keng mamlakatning boshidan oyog'ini och-yalang'ochxona va qassobxonaga aylantirgan edilar. O'rta Osiyo Orenburg tomonidan Rossiyadan ajralib, bu o'lkadagi mehnatkashlar yolg'iz o'z quvvatlari bilan bosmachi, tif, ochlik va boshqa qiyinchiliklar bilan kurashuvga va har qanday qurbon berib bo'lsa ham, bu tomonlarda Sho'rolar hukumatini saqlab qoluvga majbur bo'ldilar. Shu pallada Ishqobod (Ashxobod) oqlari inglizlar yordamida Boku yo'lini to'sib, neft va lampamoy kelishini to'xtatib, o'z nazarlarini Turkiston mehnatkashlari va Sho'rolar hukumatiga o'qatib, Chorjo'y yaqiniga hujum qilib keldilar. Buning natijasida mahalliy kor-

xonalar ishdan to'xtadi, naqliyat buzildi. Turkiston o'lkasi afsonalarda hikoya qilingan zimmiston o'lkasiga aylandi, temir yo'l o'tin bilan qimirlanib, qizil Turkistoni qo'rimoq ishiga qo'shilmogga majbur bo'ldi.

Tabiiy, bu holning ta'siri bilan bizning kasal Odinaning holi ilgariyidan yomonroq bo'ldi, qimiz ichish va sog'ayishi bo'lsa, Gulbining visoli qatoriga kirib, bo'lmag'ur bir xayolga aylanib ketdi. Xayriyatki, Odina toleiga Shohmirza bor edi, bo'lmasa, bu umumiy falokatning birinchi qurboni Odina bo'lar edi. Shohmirzaning choyxonadan keladigan daromadi ilgariyidek emas edi, iqtisodiy ahvoning umumiy tangligi o'z ta'sirini bu yerda ham ko'rsatgan edi. Lekin Shohmirza bu qiyinchiliklarga qaramasdan, topgan bir burda nonini avval Odinaga yegizar, doktorning ko'rsatuviga muvofiq, uning to'shagini, kiyim-kechagini toza tutar edi. Ayniqsa, mamlakatda tif kasali paydo bo'lgach, doktor bu to'g'rida qattiq ta'kid qilib, Shohmirzaga:

— Kasalningni juda toza tut, hushyor bo'! Iki, biron tif bo'lgan kishining biti unga o'tmasin, bo'lmasa, darrov tif bo'lib aslida zaif va kuchsiz bo'lgan badan bu kasallikka chidayolmay, tez halok bo'ladi, — degan edi.

Shohmirza doktorning butun gaplariga ishongani, uning kashflarining to'g'riligini bir necha yillardan beri ko'rgan va ham Odinani o'z tuqgan qarindoshidek asragani uchun doktorning buyruqlarini nuqta-nuqta bajarar edi.

Bu tabiblar soyasida Odina tirik qolgan bo'lsa ham, juda kuchsiz va zaif bo'lib qolgan, birovga suyanmasdan yura olmas, tuffaganda, balg'amida qon parchalari ko'rinar, ba'zan oyoqlarining yuzi shishar edi. Buning ustiga, Odinani juda yomon siggan ahvol bir yildan beri o'z mahubasidan, o'z onasidan xabarsizligi va ularning boshlariga nimalar kelganini bilmastigi edi. Zaiflik va kuchsizlikdan bo'lgiziga kelgan joni chiqish uchun go'yo yolg'iz o'z jonidan biror xabar eshituvni kutib turmogda edi.

XXIII BUXORO KO'HISTONI

Amirlar qo'liga o'tigandan beri, ro'shmolik ko'rmagan Buxoro Ko'histoni, ayniqsa 1918 yilda juda tanglikka tushgan edi. 1917 yildagi qurg'oqchilik u yerda ham qahatchilik va ocharchilik keltirgan edi. Mamlakat non bilan to'lib-toshib yotgan yillarda ham, non puli topmoq uchun Turkistonga muhtoj bo'lgan tog'yalang'ochlarining bunday ocharchilik yilida ehtiyojlari birga o'n ortgan edi. Lekin amir hukumati bu yil Turkistonga borish-kelish yo'lini bog'lab, biror kishini chegaradan chiqmogga yoki kirmogga qo'ymas edi. «Xalq Turkiston bilan borish-kelish qilsa, bolsheviklar va Buxoro jadidlarining tashviqotlariga tushib menga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar», deb qo'rqar edi. Ayniqsa Kolesov voqesasidan keyin amir hukumatining bunday qisishlari ortdi. Shuning ustiga, amir bu yil inqilobga qarshi hozirlanish uchun har yildagidan ortiqroq soliq soldi. Amir tomonidan bu yerlarda hukmronlik qiladigan beklar bo'lsa, amir solgan soliqni bir necha gatta o'rtirib olib, amir xazinasiga topshirtiladigan miqdordan ortganini o'z cho'naklariga tiqar edilar. Bu odatdan tashqari soliqlarni bermagan yoki bera olmagan kimsalarni zindonga solat yoki «bog'iy» deb band qilib, Buxoroga jo'natar edilar.

Tabiiy, hokimning bu zulm-ta'addisiga mahalliy amaldorlar va mulkalar yordam berar va yo'l ko'rsatar edilar. Chunki fuqaro qo'ldan chiqadigan narsalarning bir qismi, hokim qo'li orqali in'om-ehson va sadaga nomlari bilan ularning cho'ntagiga kirar edi.

Kolesov voqesi boshlanganda, amir Ko'histonning amaldor va mulklarini Buxoroga chaqirgan edi, bu voqea tugallib, Qiziltepa sulhnomasiga qo'l qo'yuvdan keyin ham, amir kuch yig'ish ishini davom qildirib, kelajak uchun tayyorlanar, shu qatorda Ko'histon xalqini ham yordamga chaqirgan edi.

Albatta tanxoxo'rlar va amaldorlar amirga yordam bermogga tayyor edi. Ammo amir uchun bugina oz edi. U, o'z toj-taxtini saqlov uchun Ko'histonning har bir moddiy va ma'naviy kuchidan, jonli va jonsiz narsalaridan foydalanishni tilar edi. Amirning bu murodini hosil qilmoq uchun amaldor va mullalar xalq orasida tashviqot yurgizar edilar.

Bir tomondan, bularning tashviqlari, ikkinchi tomondan, hukumatning jabr-zulmlari bir qism xalqni amirga yordam bermogga majbur qilgan bo'lsa ham, ko'pchilik faqir va kambag'allar bu ishga rozi bo'lmadilar, fursat topildi deguncha, amir va uning hukumatiga yordam berishdan qochar edilar. Hatto, yashirincha unga qarshi tashviqot ham yuritilar edilar. Bu ish uchun (amirga qarshi tashviqot yurgizuv uchun) ularning qo'lida ota-bobodan og'izma-og'iz eshitilib kelgan tarixiy hujjat va sanadlar³⁵ ham bor edi.

Biz bu to'g'rida bir necha asrlik voqealardan ko'z yumib, yolg'iz mang'it amirlari davrini o'quvchilarimizga eslatib o'tamiz.

Buxoro hukumati Ashtarxoniyarlardan mang'it qo'lga o'tgan paytda butun Ko'histon o'z boshiga mustaqil edi. U vaqtlarda Ko'histon xalqining tirikchiligi ibtidoiy ravishda, hukumat tartiblarni oqsoqollik bo'lsa ham, dehqonchilik va chorvachilik bilan kun ko'rar edi.

Mang'it sulolasining boshlig'i bo'lgan Rahimxon, o'z hukumatini Buxoroda mustahkamlab, Ko'histon tomoniga yurish qilganida, uning hisorliklari bilan birinchi to'qinishi Poshxo'rd qal'asining yaqinida Tangdevon qal'asida bo'ldi (hijriy 1169 yil). Rahimxon bu urushda g'olib kelgach, qo'lga tushgan butun erkaklarni o'ldirdi, xotin-qizlarni asir qilib, Qarshiga uzatdi va bozorda jar chaqirtirib tilagan kishilarga ularni sotdi. Bu urushda Rahimxon qo'lga kirgan boshqa g'animatlar shu qadar ko'p ediki, ularni sipohilariga bo'lib bermog uchun olti kun vaqt sarf bo'ldi.

Rahimxon ikkinchi safarida Sherobod qal'asining yaqinida Ko'histon qal'asidan hisorliklar va Ko'histonning boshqa ozod xalqlari bilan uchrashdi. Rahimxon bu qal'ani qo'lga olgach, asir tushgan erkaklarni so'yib, boshlaridan kalla minora³⁶ yasatdi, xotin-qizlarini bo'lsa, o'z sipohilariga taqsimlab berdi (h. 1170).

Bu voqeaning dahshatini ko'rgan Ko'histon xalqining qoldiqlari mol va jonlarini omon saqlov uchun o'z ixtiyorlari bilan o'z qal'alarini topshirib, Rahimxonga itoat arz qildilar. Ko'histonning katta beklaridan bo'lgan Hisor hokimi Muhammad Aminbek bo'lsa Afg'onistonga qochdi.

Rahimxon taslim bo'lgan aholidan yigirma ming uyli kishini Buxoro va Miyankal tomonlariga ko'chirdi, xalqdan omon puli nomi bilan yigirma ming tilla naqd pul, uch ming bosh ot, besh yuz tuyaga otilgan qimmatbaho mollarni yig'ib oldi. Har bir shaharga o'z tomonidan hokim belgilab, bu hokimlarni qo'rimoq uchun ilg'or qo'ydi. Bu qatorda mahalliy beklardan o'ziga yordam bergan G'uljabekning o'g'li Sarimsoqbekni Dushanba shahriga hokim belgiladi.

Rahimxon xalqni butun talab, bo'yinlariga qullik zanjirini solgandan keyin Buxoroga qaytib ketdi. Uning beklari xalqqa o'zidan ham ortiqroq zulm qila boshladilar. Xalq muncha zulm, haqsizliklarga chidayolmay, ikkinchi yil qo'zg'olon ko'tarib, «Cho'rzak» qal'asini mustahkamlab, shu yerga sig'indilar. Rahimxon navkarlari u yerga hujum qilgach, u yerdan ko'chib Sina qal'asiga, undan «Darai Nihon»ga bo'rib, umumiy qo'zg'olon uchun tayyorlik ko'ra boshladilar. Qo'zg'olonchilar yetarli kuch to'plagandan keyin, 1171 yil ramazon oyida Denov qal'asiga yurish qilib, shaharni Rahimxon odamlari qo'lidan oldilar. Rahimxon kishilari Denovning Ark qal'asiga – ichki qal'aga qamaldilar.

³⁵ Sanad – rasmiy hujjat, isbot, dalil.

³⁶ Kalla minor – kesilgan boshlarning minora shaklida ustma-ust tishidan bino bo'lgan minoradir. (A.)

Yuqori Hisorda bo'lgan Rahimxon ilg'ori boshqa tomonlardagi ilg'orlar bilan birgalashib, Denov shahrini qamal qildilar. Shunday bo'lib, qo'zg'olonchilar ikki jabha-frontda: bir tomondan, Arkka qarshi hujum bilan, ikkinchi tomondan, shahar tashqarisiga qarab mudofaa bilan urushar edilar. Bu urush qirq kunga cho'zilib, oqibat Rahimxonning o'zi yetib kelgach, shahar olindi.

Rahimxon qo'zg'olonchilar boshlig'i bo'lgan Omon Bomini qoziqqa o'tqazib o'ldirdi. Qo'lga tushgan boshqa aholini qo'ydek so'ydirib, kesilgan boshlaridan Denov darvozasining qarshisida bo'lgan Tepa ustida kalla minora tikladi. So'ngra Sario'y, Regar, Dushanba va boshqa shaharlarga qirg'in solib, u yerlarda kesilgan boshlarni ham Denovga yuborib, boyagi kalla minora ustiga zamladi.

Hisor xalqining yordamiga borgan to'rt yuz nafar Xo'jand va Uratpepa xalqi «Darai Nihon»da Rahimxoi odamlari qo'lga tushib o'ldirilib, ularning boshi ham Denov kalla minorasi ustiga chiqarildi.

Shunday fojiali hollar yolg'iz Hisor va uning tevaragida yuz bermay, Panjakent, Yoriy, Kishut, Urmetan, Mog'iyon, Farob va Falg'ar ham shunday dahshat va vahshat bilan Rahimxonning qo'lga kirgan edi (h. P66)³⁷.

Rahimxondan keyin amir Doniyol davrida ham Ko'histon xalqining kosasiga suzilgan osh shu edi. Qo'histon xalqi ozodlik istaydi, o'z mehnati samarasiga o'zi ega bo'lmog'ini tilaydi. Doniyol bo'lsa, ularni qul qiluv va bor-yo'qlarini qo'llaridan tortib olmog'ini xohlaydi. Yana o'sha qo'zg'olon, yana o'sha hujum, yana o'sha qirg'in, yana o'sha kalla minora...

Amir Shohmurod, Haydar, Boturxon (Nasrullo) va Muzaaffar davrlarida ham shunday mojarolar takrorlanadi.

³⁷ Bu bobda naql qilingan shu tarixiy fojialar Rahimxonning buyrug'i bilan karminalik qozi Zuhayr o'g'li qozi Muhammad Valo (Shuhrat) tomonidan o'z ko'zi bilan ko'rib yozilgan «To'htai xoniy» nomli kitobdan xulosa qilinib olindi.

Ayniqsa, amir Muzaaffar davridagi fojialar Rahimxon ahddagiylarni qayta boshdan tirgizadi³⁸; bir dasta rus yaroqlari bilan yaroqlangan sarboz Yoqub qushbegi qo'l ostida Ko'histonning butun soy va tog'larini aylanib, xalqning bor-yo'g'ini «omon puli» o'ti bilan talab oladi³⁹.

Denov shahri amir Muzaaffarning o'z qo'l ostidagi ko'shin bilan olingandan keyin, qo'lga tushgan aholining barisini asir, deb bir tepa ustiga to'plab qo'ydi. «Tojut-tavorix» ta'biricha, ho'kizdek bosh kesdi.

Abdulahad va Olimxon davrida bo'lsa, Ko'histon aholisida bosh ko'tara olarli kuch qolmagan edi. Xalqning molashyo, bola-chaqa, oru nomusi amir va uning beklari oyog'i ostida ezildi...

Amir Olim o'zining zulm va istibdod qarini yana o'z oyog'i ostida qolib ezilgan xalq qo'li bilan saqlamoqchi edi. Qonlarini to'kish vositasi bilan qo'lga kirgizilgan aholini tag'in o'z jallodligi yo'lida ishlatuvni tilar edi.

O'z manfaatlari amir manfaati bilan bir bo'lgan kishilar albatta unga yordam berar va xalqni ham unga yordam berishga chaqirar edilar.

Ammo xalq ommasi amir va uning yuvindixo'rlari bilan munosabati bo'lmagan kishilar, unga yordam berishni sira istamas edilar.

³⁸ Bu ikki «qahramon» (Rahimxon va Muzaaffar)ning tarixiy jihatdan bir-birlariga ajovib bir o'xshashliklari bor. Rahimxon Eron, Afg'oniston, Hindiston va O'rtal Osiyoda bir muntazam hukumat yasab, Darabeklik davrlarida buzilgan savdo yo'llarini olish vazifasini bo'yiga olgan Nodirshoh yaroq'i bilan yaroqlanib, O'rtal Osiyodagi Tepa belgilarni yo'qotuvga kirishgan bo'lsa, shu xilda amir Muzaaffar ham rus sarmoyasi uchun o'lkani amniyat ostiga olish vazifasini ehor Rossiyasidan o'z ustiga olgan edi. Amir Muzaaffar Rossiya bilan yarashib, uning himoyasiga kirgandan keyin, uning yaroq'i bilan Ko'histoni tasarruf qildi.

³⁹ Bo'stonli Mirza – Azim Somiyning «To'htai shohiy» degan kitobidan.

Amir beklari xalqning rozi, noroziligiga qaramasdan, og'ir soliqlar solib undirib oldilar, amaldorlar va navkarlarni amirga yordam uchun Buxoroga yubordilar. ular qatorida zindonda qamalib yotgan bandilarni ham uzadilar⁴⁰.

Buxoroda bo'lsa Ko'histonan kelgan amaldorlarni podshohlik bog'larida yerlashtirib, boqib, semitirib saqladilar, bandilarni o'g'rlardan tuzilgan «sherbachalar» qo'lga topshirdilar.

XXIV NOTANISH KISHI

Odina o'z karavotida oftobda yarim uyqu holatida cho'zilib yotgan va Shohmirza kelgan-ketganlarga choy, chilim berib yurar edi; choyxona oldida notanish bir kishni paydo bo'lib, chorpoqa labida, Odina karavotiga yaqin bir yerdan oyog'ini osiltirib o'tirib Shohmirzadan bir choynak ko'k choy so'radi.

Bu kishining afti basharasi tog' tojigiga o'xshasa ham, boshidagi uzun qo'zi terisidan kavkazcha telpagi, egnidagi Buxoro sarbozlari kiyimiga o'xshagan yirtiq kuluchasi, oyog'idagi qizil meshdan tikilgan keng va yirtiq shalvari, baland poshnali eski ufayka etigi tog' tojklari kiyimiga o'xshamas edi.

Shunday bo'lsa ham, Shohmirza bu odamni tojik gumon qildi, chunki u odamning choy buyurgandagi ikki kalima o'zbekcha so'zi, xuddi tog' tojklarini o'zbekcha so'zlaganlaridek xatoli bo'lib, uning afti basharasiga mos kelar edi.

Shohmirza o'z gumonining to'g'ri yo noto'g'rligini sinamogchi bo'lib, u odam bilan Odina orasida o'tirib, olib

keltirgan choyini o'zi quya boshladi. Avval bir piyola quyib o'zi ichdi, keyin piyolani yarimdan ortiqroq quyib u odamga uzatdi.

— Mehmon! So'ramoq ayb emas, sen qaerdan bo'lasan? — dedi.

— Qorateginan.

Notanish odam tomonidan berilgan bu javob Shohmirzaga o'zi qilgan taxmindan ortiq bir narsani anglatgan bo'lmasa ham, xayolga botib yotgan Odinani sekkantirdi va birdan boshini yostiqdan ko'tarib, tirsagiga suyanib, u odamga tez-tez bir-ikki qaradi: ko'ziga tanish ko'rindi. Ammo qaerda va qachon ko'rganini eslayolmadi. Esini boshiga to'plab bu odam to'g'risida tuzukroq o'ylamogchi bo'lsa ham, orqada kelgan «Qorategin» so'zi uning fikrini boshqa yoqlarga tortar edi. Bu so'z eshitilishi bilan Odinaning ko'ziga yoshlik kunlari, achchiq-chuchuk xotiralari bir-bir ko'rinish o'tar edi, bu xotiralar orasida hammadan ko'proq Odinaning o'ziga tortgan albatta Gulbibi xotirasi edi.

Qorategin... bu qanday xarobayi zulmobod ediki, uning arbob kamollari shumligidan, uning kambag'allar uchun zindon bo'lganidan, Odina o'z sevgilisidan abadiy aytilgan edi.

Haqiqatda ham Odina bu kunlarda o'zini sevgilisidan abadiy aytilgan sanar edi, chunki bu kunlarda uning kasalligi juda zo'rayib, undan qutulib, sevgilisiga qovushish umidi batamom so'ngan edi. Odinada qolgan so'ngi orzu shu tirikligida o'z yori, diyori to'g'risida birgina xabar eshisa, agar yaxshi xabar bo'lsa, uning lazzati bilan, agar yomon bo'lsa, uning alami bilan jon bersa.

Bu orzuga yetishuv umidida yana esini boshiga to'plab, qorateginlik notanish kishining so'zlariga diqqat bilan quloq sola boshladi.

— Bu shaharga yangi kelganga o'xshaysan? — deb so'ragan Shohmirza, u odam:

— Bir oy bundan burun, — deb javob berdi.

⁴⁰ Kolesov voq'ecasidan keyin amir hamma bandilarni askar qilib, taxtni o'shalar qo'li bilan saqlamogchi bo'lgan edi. Ko'histon zindonlaridagi bandilar ham shu maqsad bilan Buxoroga uzatilgan edi. (A.)

– Qorategindan qachon chiqqan eding?

– Taxminan bundan to‘rt oy burun.

– Farg‘ona bilan keldingmi?

– Yo‘q, Farg‘ona yo‘li berk, Qorategin hukmdorlari biror kishini Farg‘ona tomoniga qo‘ymaydilar.

– Bo‘lmasa sen qanday va qaysi yo‘l bilan bu yoqqa chiqib kelding?

– Men, – dedi notanish kishi, – avval Qorategindan Buxoroga keldim, to‘g‘risi, meni Buxoroga keltirdilar, bir necha vaqt u yoqlarda yurgandan keyin bu yerga keldim.

– Biz ham, – dedi Shohmirza o‘zi va Odinaga ishora qilib, – tojikimiz, shuning uchun seni ahvolingni tuzukroq bilmoqchi bo‘ldim. Bunday qilib so‘ray boshlaganimdan xafa bo‘lmagaysan.

– Men ham sizning tojikligingizni bilaman, bu shaharga kelganimdan keyin: «Bu yerda tojik bormi, yo‘qmi», deb so‘raganimda sening do‘koningni darak berdilar. Senlar bilan tanishaylik, deb bu yerga kelgan edim.

– Xush kelibsan, – dedi Shohmirza, – o‘z ahvolingdan gapir, qani, seni nima uchun va kimlar Buxoroga keltirgan edilar?

Notanish kishi soviq qolgan choyini bir ho‘plab:

– Men Qorategin zindonida qamogda edim, – deb sarguzashtini gapirmoqqa kirishdi.

– Bu yil amir, – dedi u kishi, – bandilarni ham navkarlar qatorida Buxoroga chaqirgan edi, hokim meni ham boshqa qamogdagilar qatorida Buxoroga uzatdi. Bizni u yerda o‘g‘rlardan tuzilgan sherbachcha nomi dastaga kirgizdilar. Bu dastaning ba‘zi birlari mendek tulnat bilan qamogqa tushganlardan bo‘lsa ham, ko‘pchiligi chinakam atog‘li kalakesar o‘g‘rlardan edi.

Shohmirza soviyozgan, u kishining oldiga qo‘yilgan bir piyola choyga bir oz issiq choy quyib, tezroq ichishini so‘ragandan keyin:

– Sizga qanday xizmat topshirilgan edi? – deb so‘radi.

U kishi yarim sovigan choyini ichib:

– Biz, – dedi, – bir necha vaqt Buxoro va uning atrofida soqchilik qildik.

– Nimani va kimdan qo‘tir edingiz?

– Unisini o‘zim ham bilmayman, lekin menga ma‘lum bo‘lgani shuki, bizning soqchiligimizdan xalq dodga keldi. Bizning dastadagilar qaysi qishloqqa borsalar, u yerdagi chiroyli bolalar va xotin-qizlarni yig‘ib bazm qilardilar, fuqaro molini ochiqdan-ochiq talardilar, dehqonlarning yetilgan ekinlariga otlarini qo‘yib boqardilar. Shunday ishlarga norozilik bildirgan yoki yomon ko‘z bilan qaraganlarni, «bolshevik yoki jaddid», deb qo‘l-oyoq‘ini bog‘lab, Buxoroga jo‘natardilar. Shu yo‘l bilan Buxoroga jo‘natilganlar, agar unda ko‘p pul xarjlay olsalar, ya‘ni tuzukkina pora bera olsalar qutular, bo‘lmasa, Buxoro obxonasida bo‘g‘ib o‘ldirilib, murdalari O‘g‘lon darvozasidagi ko‘lga tashlanar edi.

– Bu holga qarshi gapiradigan bironta odam yo‘qmi?

– Bor va bor edilar, faqat qarshi chiqqanlarni, hatto ochiqdan-ochiq qarshi chiqmasa ham, qarshiligi sezilganlarni to‘da-to‘da qilib o‘ldirdilar. Kolesov voqesi kunlarida shunday odamlarni o‘nlab-yuzlab o‘ldirdilar. Shunday o‘ldirilganlarning suyaklarini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, – dedi notanish odam quti uchib.

– Qanday, qacirga ko‘rding? – deb so‘radi Shohmirza.

– Bir kun, – dedi u kishi, – dastamizdagi bir sherigim bilan Qiziltepa stansiyasi tevaragida kezib yurardik, yo‘limiz u yerdagi o‘t tushgan paxta zavodi ustidan tushib, undan bir chuqur ichida hali jasadi u qadar o‘zgarmagan bir to‘da o‘liklarni ko‘rdim. Ularning ko‘z va quloqlarini qarg‘alar cho‘qimogda edilar.

– Bular urushda shahid bo‘lganlari bo‘lsa kerak, nima uchun ularni biror yerga ko‘mib, boshlariga tug‘ ko‘tarmaganlar? – deb so‘radi.

— Bular shahid-mahid emaslar, — dedi yo'ldoshim, — ular rus ishchilari bilan shu zavodda ishlaydigan musulmon ishchilar edi. Bu zavod Buxoro jadidlarining birisinki edi. Ko'lesov urushda shikast yeb, bolshevik va jadidlar qochgani-da bu yerdagi rus ishchilari ham bir sostav poezdni tuzatib, temir yo'li bilan qochganlar. Ammo musulmon ishchilarini o'zlari bilan birga qochishga undaganda, ular:

— Yo'q, biz qochmaymiz, biz islom podshosi himoyasida qolamiz, — deb rad qilganlar.

O'sha vaqt biz zavodni kuydirish va bu yerdagilarni o'ldirish to'g'risida Buxorodan buyruq olib yetib yeldik. Hammadan burun biz shu ishchilarni o'ldirishga kirishdik, ular:

— Bizni nima uchun o'ldirasiz, biz musulmonmiz, rus ishchilari bilan birga qochmay, islom podshosi panohida qolishni a'lo ko'rdik. Bizning gunohimiz shu, qo'shimagan islom podshosining himoyatini ko'rib ruslar bilan birga qochmagan musulmon faqirlarning jazosi shumi, deb yalinar edilar. Ular o'zlari aldangan shu so'zlar bilan bizni ham aldamoqchi edi. Lekin biz aldamadik, chunki Rossiyada qo'zg'alib, imperatori a'zamni bekor qilgan ishchilar ekanini, Buxoro jadidi va bolsheviklariga yordam berib, amirga tig' tortgan yana shu ishchilar ekanini biz yaxshi bilardik. Durrust, bu zavoddagi musulmon ishchilar urushga qo'shimaganlar. Lekin ularning hamisha shunday turishlariga kim kafil bo'la olard edi? Shuning uchun ularni yer yuzidan yo'qotmoq kerak edi. Ularni ko'z yumib ochguncha tig' damidan o'tkazib, gavdalarini zavodning suv ombori bo'lgan shu chuqurga tashladik. So'ngra zavoddagi qimmatli narsalarni o'lja qilib, imoratlariga o't qo'yib, kulini ko'kka sovurdik. U vaqtda bu chuqur suv bilan to'la bo'lgani uchun bu gavdalar yonmay qolganlar. Kogon qochog'lar bu yerdan o'tayotganda bu chuqurning suvini ichib bitkazgan, bu gavdalar yuzaga chiqib, qarg'a-quzg'unlarga yem bo'lgan.

Shohmizra:

— Yo'ldoshingning bu gaplariga qarshi hech nima demadingmi? — deb so'radi notanish kishidan.

— Nima deya olar edim, hatto qarshi biror narsa deyishimni sezsa, dasta boshlig'iga xabar berib, meni o'ldirishi aniq edi. Yolg'iz shunday gunohsizlarni shunday vahshiylik bilan o'ldirishlariga qarshi ichimdan qon yig'ladim.

O'dina bu fojiani eshitganda azob va intiqom o'ti bilan ko'zi mash'aldek yonar edi, cho'pdek qurigan qo'llarini o'ynatib:

— O'rtiq, — dedi, — u yerdagi ishchilar dardhaqiqat gunohkor ekanlar. Ularning zo'r gunohlari shuki, xalqni aldash, o'z dushmanlarini yo'qotish, kambag'allarning ko'zlariga qum sepi, o'z cho'ntaklarini to'ldirish uchun amir va uning dumlariga islom, din, millat, vatan otining qurol bo'lganini bil-maganlar. Agar tarqoq yashaydigan kambag'allar va qishloq mehnatkashlari buni bilmasalar ayb emas edi. Ammo bir ish-xonada to'planib ishlaydigan ishchilar o'z sinfiy dushman-larining nayranglarini bilmaklari kerak edi: chunki, unday yerlarda biluvchilar to'pladi, musulmonlardan topilmasa, ruslardan topiladi, albatta u biluvchilar, xon va beklarning dindorliklari xalqning ko'zini bo'yov uchun bo'lganligini, sarmoyadorlarning millatparastliklaridan maqsad milliy sar-moya to'plash nomi ostida faqirlarning qo'l kuchidan foy-dalanib o'z cho'ntaklarini qappaytirish ekanini, umuman, din, millat hamda vatan nomlari yuqori tabaqalar qo'lida xalqning tuban tabaqalarining qonini so'rmoq uchun qurol bo'lganini bilmovchilarga tushuntiradi. Shunday bo'la turib, «dindoshim, millatdoshim», deb o'zini qassab qo'lga tops-hirilgan qo'ydek, odamxo'r dushmanlarga topshirishi gunohi azim emasmi?

Durrust, bular endi o'timishdagi gunoh va jazodir, lekin agar biz bulardan ibrat olsak, bundan buyon do'stimiz kim, dushmanimiz kim ekanligini bilsak, mehnatkashlarning qu-

tulishlari din va millat ayirmasiga qaramasdan xon, bek, sarmoya va sarvat ahliga qarshi birgalashib qo'zg'alishda ekanini tushunsak, sinfiy dushmanga ishonish o'zini aldash bo'lganini fahmlasak, o'z xaqimizni va kasbdoshlarimizning qonini talab qilishga tayyor tursak, u haqsiz to'kilgan qonlar bo'shga ketmaslar.

Shohmirza Odinaga qarab:

– Xayr, qo'y endi, – dedi, – o'zingni ko'p koyitma, o'zing aytgandek, ular o'lmishdagi narsalar. Ajab emas, bizning kambag'allar ham bu hodisalardan ibrat olib kelajakda ishlarni bilib qilsalar. Hozir hikoyani eshitaylik.

– Xo'p, eshitaylik, – deb Odina notanish kishiga qaradi.

– Ular to'g'risida eshitadigan bir narsa qolmadi, – dedi u kishi.

– Sen Qiziltepadan to'g'ri Toshkentga qarab kela berdingmi? – dedi Shohmirza.

– Yo'q! Yana bor, – deya u kishi so'zga kirishdi:

– So'ngra, – dedi, – bizning dastani Yovqochdi to'qsoba degan bir sarkardaning qo'li ostida Karmanaga yubordilar. Eshituvinga qaraganda, Yovqochdi to'qsoba yevropalik fohishalardan olib to mahalliy qalandar bachchalargacha amirga topib beradigan bir qo'shmachi odam ekan. Karmana chegaraga yaqin bo'lib, bolsheviklik tashviqoti darvozasi bo'lgani uchun amir o'zining ko'rpa ko'tardisini va sinalgan odami bo'lgan Yovqochdisini u yerga yuborgan ekan.

Karmanaga kelganimizdan keyin dastamiz o'z talonchiligini belgili bir tartibga soldi: bu dasta har kun mayda guruhlariga bo'linib, Samarqand yo'lini kuzatish va Malik cho'lini qo'rimoq uchun qidirishga chiqadi, uchragan yo'lchilarni qo'lga oladi, «sen bolshevik, sei jadid», deb bor-yo'g'ini talagandan keyin, qo'yib yuboradi, norozilik qilganlarni o'ldiradi yoki qo'l-oyoqlarini bog'lab Karmanaga Yovqochdi oldiga yuboradi. Yovqochdi, agar lozim topsa, bunday bandilarni Buxoraga jo'natadi, yoki bir necha kun qamab

ta'zir bergandan keyin, ko'pgina pora olib, mo'tabar odamlar kafli bo'luvi bilan qo'yib yuboradi.

Dasta nafarlari yo guruhlari qo'lida «meni taladilar» deb kelib, Yovqochdiga arz qiladigan ba'zi soddadilllar ham uchrar edi. Yovqochdi shunday kishilarga:

– Mening odamlarim seni talaganini kim ko'rgan, sen bolshevik, janobi oliyning fidokor qullarini badnom qilmoqchisan, yo'qol ko'zimdan, bo'lmasa hozir bandi qilib Buxoroga jo'nataman, – deb quvar edi,

Men bunday voqealarning hech birini ko'ruvga toqat qila olmas, bu jallodlar orasidan qochib qutulishni tilar, ammo qaerga va qanday qochishni bilmasdim. Albatta, o'z vatanimga borolmas edim, chunki yo'lida qo'lga tushmasam ham, u yerda qo'lga olinib, yana qamalishim aniq edi. Samarqand va Toshkent tomonlariga ham qochib chiqishga botirlik qila olmas edim, chunki «Buxoro tomonidan u yoqqa borganlarni bolsheviklar o'ldirar, u yerlardagi xalqning o'zi ham bolsheviklar qo'lidan dodga kelgan», deb bizni qo'rqitar edilar. Bolsheviklar qo'lidan qochib, Buxoroga borayotgan boy va mullalar ham amir odamlarining shunday ig'volarini o'n chandon o'rtirib tasdiq qilardilar. Buxoro qochloqlaridan gap ochilib qolsa: «U murtadlar tuproqqa aylanib ketdi, endi u kofirlardan dunyoda asar ham qolmagan», der edilar.

Bir kun Kattago'rg'on tomonidan bir kishini bandi qilib olib keldilar. Yovqochdi u odamga dedi:

– E, murtad, endi xorlik-zorlik bilan itdek o'ldirilasan. Agar Buxoro qochloqlarining nima qilib yurganlari, janobi oliyga qarshi qanday tayyorlik ko'rayotganliklari, rus bolsheviklari bilan qanday munosabatda ekanliklarini rosti bilan aytasang, janobi oliyga arz qilib sening qoningni bag'ishlatmog'im mumkindir.

– Meni aldayman, deb bekorga ovora bo'lma, – dedi mazkur bandi, – men sendek nomussiz yolg'onchilar so'ziga ishonadigan ahmoqlardan emasman. Men o'limdan

qo'rqmayman. Biz amirga qarshi qo'zg'alganda o'limni bo'ynimizga olgan edik. Men qo'lga tushgandan keyin tirik qolmasligimni yaxshi bilaman. Lekin mening o'limimdan senga va amirga hech bir foyda yo'qligini bilib qo'y, yolg'iz mengina emas, butun Buxoro qochoqlari o'ldirilsalar ham, siz qutula olmaysiz... Bizning organimizdan keladiganlar sizni daf qilib, dunyoni murdor vujudingizdan aritajaklar.

Yovqochdi bu achchiq va ochiq so'zlarni eshitib ko'zlari qo'yni ko'rgan bo'ri ko'zidek g'azabdan yonar va bu odob-sizni o'ldirib, murdasini o'tda kuydirishni tilar edi. Lekin ko'p mashaqqatlar bilan qo'lga kirgizilgan bu ovni tiriklayin amirga tortiq qilishni munosib ko'rib quloq-chakkasiga bir-ikki shapaloq urdirish bilan o'z g'azabini bir oz pasayitirdi va uni tez yuruvchi choparlar bilan Buxoroga, amir huzuriga uzatdi.

— Amir u bandini umri qamogga hukm qilgandir? — deb so'radi Shohmirza.

— Yo'q, — dedi u kishi, — amir u bandini Staromaxossa chorbog'ida o'z ko'zi oldida qilich bilan chopitirib, qiyma-qiyma qildirgan.

— U bandining o'zi kim ekan?

— Keyinchalik u kishining Buxoro qochoqlaridan Mirza Usmon degan bir kishi ekanligi, uni kattago'rg'onlik aksitil-qilibchi aldab, Toshkentdan Qattago'rg'onga keltirib, Buxoro chegarasi yaqinligida amir «sherbachchalari» (o'g'rilari) qo'lga topshtirib, Yovqochdiga yuborganligi ma'lum bo'ldi. Notanish kishi o'z sarguzashtini davom qilib:

— Men, — dedi, — bu hodisadan Turkistonda Buxoro qochoqlari jim turmasdan, amirga va bu qadar haqsizliklarga qarshi hozirlik ko'rayotganliklarini anglab, shu tomonga qochishni muqarrar qildim. Hamda bir kun tong qorong'isi bilan Karmana shahridan stansiyaga qochib, u yerdagi temir yo'l ishchilariga o'z maqsadimni aytdim va ularning yordami bilan vagonga yashirilib, bu yerga keldim.

— Bu g'ayri rasmiy kiyimlarni qochish uchun kiygan-dirsan-a? — deb so'radi Shohmirza.

— Yo'q, — deb javob berdi notanish kishi, — boshimdagi bu kiyimlar «sherbachcha»ligimdan qolgan nishonadir.

Odina so'zni Qorategin ustiga burmoqchi bo'lib:

— Qorateginda qanday gunoh bilan qamalgan eding? — deb so'radi.

— Bu vogue juda qiziq, — dedi u kishi, — o'tgan yil men tojik ishchilari bilan Farg'onadan Qorateginga borayotganida chegarada xurjumdan choy o'ralgan eski bir gazeta chiqqani uchun amir odamlari meni jaddid deb..

Notanish kishi so'zini bitirmasdan Odina bo'ynini tiklab, u odamga diqqat bilan qaradi-da, birdan:

— Voy, sen Sharif emasman? — deb baqirdi.

Notanish kishi subatdoshining bu nogahoniy kashfiyotidan hayratda qolib, diqqat bilan unga bir qaradi va uning so'rog'iga javob berish o'tmiga, o'z navbatida:

— Voy! Sen Odina emasman? — deb so'radi.

Bu bir-biroviga notanish bo'lgan ikki eski oshna, o'z so'roqlariga javob olish o'rtaida joylaridan turib, quchoqlas-hib ko'rishdilar.

XXV SHARIF

Bu manzara juda qiziq edi. Bundan ikki daqiqa burun bi-
ror xabar eshitmak uchun notanish kishini tadbir bilan o'z matlabi ustiga keltirishga uringan Odina hozir kutilmagan vaqtda u kishi bilan eski oshna bo'lib chiqdi, endi u har bir xabarni to'g'ridan-to'g'ri bu kishidan so'ray olar va hech mulohazasiz unga o'z sarguzashtini gapira bilar edi.

Hammadan qizig'i Shohmirzaning vaziyati edi: u bundan bir soat burun bu kishining Odinani tanimasligini o'z ko'zi bilan ko'rgan, Odinaning ham bu kishini tanimasligi-
ni fahmlagan edi. Hozir nechuk bu notanish kishi daf atan

bir-birovlarini ot va belgilari bilan biladigan ikki qalin osh-na bo'lib chiqdilar. Bu qiziq manzara Shohmirzani taajjubga solgandi, u muammoning yashirin sirlarini tezlik bilan anglovga havaslandi.

Lekin Odina bunga yo'l bermadi:

– Sharif aka bizning aziz mehmonimizdir, agar bemalol bo'lsa, taom tayyor qilsang, yaxshi bo'lar edi, – deb Shohmirzani suhbatdan chetlatdi.

Shohmirza:

– Darrov, – deb o'rtidan turgani holda, – nima ovqat qilay? – deb so'radi Odinadan.

– Palov qilsang, yaxshi bo'lar edi, men ham Sharif aka-ni qadamini o'zim uchun muborak sanab bukun parhaye-zimni ochar va senlar bilan birga palov yerdim, – dedi Odina.

Haqiqatan ham, bu vaqt Odina sog'aygan kabi edi. Kulmagan soatda Sharifdek eski oshnasini topishi uni odatdan tashqari quvonitirib, sog'lardek ruhlantirgan edi. Shuning uchun parhyezni ochishga haqi bor edi.

– Ikki qozonimiz bor, – dedi Shohmirza, – birtisida palov damlasam, ikkinchisida senga tovuq sho'rva pishiraman, butunlay sog'ayib doktor ijizat berguncha parhyezni buzmasliging maslahat.

– Rahmat, – dedi Sharif, – men uchun tashvish chekma, qo'shxonamizda tayyor oshimiz bor; kishining sog'lig'i kerak, osh yeyish qochmaydi.

– Choyxona hayotiga odatlangan odamga osh damlashning hech bir tashvishi yo'q. Farovonchilik zamonlarida kunda o'n daf'agacha osh damlar edim, endi bir daf'a osh damlash malol keladimi? O'zim ham juda ochiqqanman.

Shohmirza bo'shagan choynaka qaytadan choy damlab keltirib Odina bilan Sharif oldiga qo'yib, o'zi qozon-tovoq boshiga ketdi. Odina bilan Sharif choyni oraga olib, qayta boshdan ikkovlab suhbatga kirishdilar.

Odina Sharifi o'zining keyingi sarguzashtidan qisqacha xabardor qilganidan keyin, dedi:

– Bir yildan ortiqroq bo'ldi. Shundan beri buvim va qaylig'im ahvolidan bexabarman, ular haqida eshitgan bo'lsang, menga aytib tashvishdan chiqarsang-chi!

– Meni chegaradan bandi qilib... – deb Sharif hikoya boshlaganda Odina asabiylik bilan uning so'zini kesib dedi:

– Sening bandi bo'lganini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Undan so'ng boshingdan nimalar o'tganini keyin aytib berarsan, hozircha mening uyim to'g'risida biron xabar ber, deymen.

– Sening uyingdan uncha xabarim yo'q, bandi bo'lib Qorategiga... – deb Sharif so'zni yana o'z sarguzashtiga urmoqchi bo'lgan edi, lekin «uncha xabarim yo'q» jumlasini Odinani shubhaga tushirib, Sharif uchun qochish yo'lini to'sdi:

– «Uncha xabaring yo'q», demak, ozgina xabaring bor, – deb Odina yana uning so'zini kesdi, – o'sha ozgina xabarni xoh yaxshidir, xoh yomon menga aytib, meni tashvishdan qutqar, – deb uni siqa boshladi.

Sharif uchun aytilmaydigan narsalarni ayitishdan boshqa chora qolmagan edi, lekin aytilajak xabarlarini keyinroq ham yengilroq qilib aytilish yo'lini axtarar edi.

– Sabr qil, sening uyingga daxli gaplar juda oz, ham mening sarguzashtimga bog'liqdir, chunki men zindondan boshqa joyni ko'rgan emasman, zindondagi o'z sarguzashtimni aytmadan uning ichidan senga daxli xabarni nechuk ajratib aytaman, – deb Sharif yana o'z sarguzashtini ayitishga kirishdi:

– Meni, – dedi – chegaradan bandi qilib Qorategin qo'rig'omga keltirganlaridan keyin kiyimlarimni yechib, o'zimni bir uychaga qamadilar. Bir oz fursatdan keyin mirg'azab bir necha odamlari bilan birga mening oldimga kirdi, otimni, otamning otini, Farg'onada necha vaqt bo'lib, qanday ishlar qilganimni birma-bir so'radi, so'roqlariga ro'yirost, to'g'rilik

bilan javob berdim. Eng oxirida: «Sen jadidlikni kimdan o'rgandig'» – deb so'radi. «Men jadid-madidni bilmayman», – dedim. Mirg'azab orqa tomonda boshim ustida tik turgan ikki odamiga ishorat qildi, ularning ikkovi ikki yuzim-ga birdan ikki shapaloq qo'ndirdilar. Burrim tirqirab qonab ketdi, ko'zim yoshlandi, boshimdan hushim uchi, quloqlarim jaranglab ketdi, o'zim yuztuban yiqildim. Bir-ikki odam darrov yelkamdand tutib turg'izib, mirg'azab ro'baro'siga cho'kkalatib o'tqazib, ushlab turdilar. Mirg'azab: «Hali sen boshlang'ichini ko'rding, bu xamir uchidan patirdir. Tez bo'l, endi rostini ayt, yosh boshingni g'azabdan qutqar», – dedi.

«Bilmaganim bir narsa to'g'risida nima deya olaman, har balo boshimga kelsa toleimdan ko'rib, sabr qilishdan boshqa choram yo'q», deganida, mirg'azab o'z odamlaridan biri-ga:

– Tayoqni keltir, – dedi.

– Xo'p, taqdir, hozir! – deb u odam yugurib ketdi-da, bir nafasda bir yarim gazlik qirg'ellik dona irg'ay tayog' keltirib tashladi.

– Ayt! Bo'lmasa shu tayog'lar ostida, oshpichog' tagida qiymalangan go'shtdek titilib o'larsan! – dedi mirg'azab.

– Nimani aytay?

– Jadidlik to'g'risida bilgan narsangni.

– Boya hech narsa bilmayman, dedim-ku.

Mirg'azab g'azablanib:

– Gapirishga hushing kelmaydi, hali daming bor, hali, – dedi-da, odamlariga qarab:

– Bosing bu murtadni! – deb buyurdi.

Ular meni yuzimni yerga qilib bosdilar, biri bo'yinimga minib boshimni, boshqa birisi sonimga minib, oyoqlarimni bosib turdilar. Haliyi tayog'lardan bir donadan olib, ikki kishi ikki tomonimdan turdi. Mirg'azab:

– Ur! – degach, ular «paxta savar» qilib ura berdilar.

Bir necha da'f a urganlaridan keini mirg'azab:

– Qo'ying endi, ipakday yumshagan bo'lsa kerak, – dedi.

Ular meni tag'in turg'izib o'tirg'izmoqchi bo'ldilar, lekin o'tirishga majolim yo'q edi.

– Qalaysan? – deb mirg'azab kulib mendan hol so'radi,

– birgina tayog' sinmay turib, hushdan ketding. Shunchalik holing bor ekan, nega rostini aytmadig'ing? Bu podsholikning o'tiz ikki xil qiyog'idan biriginasi, bundan keyin tirnoq uchi va tizza suyag'iga urishlar, boshdan-oyoq badanini qonatib tuz sepiqlar, bosh barmoq bilan tik tutib turishlar, xamirdan oxurcha yasab, unga qizitilgan yog' quyishlar va boshqalar⁴¹ bor. Hali ham bo'lsa vaqt bor. Jadidlik yo'lida qilgan ishla-ringni aytib, o'z joningni qutqar.

Mirg'azab odamlaridan biri:

– Taqdir, hozir bir oz holdan toydi, bukun ayta olmasa, erta aytar, bu kecha o'ylasin, agar ertaga ham aytmasa, unda yana azoblaymiz, – deb oraga turdi.

Mirg'azab:

– Tuzuk, – dedi, – kun ham kech bo'ldi, har nima kerak bo'lsa, ertaga qilarniz, bo'yiniga jel, oyog'iga kunda uring, juda o'ktam ko'rinadi, qochib ketmasin, – deb chiqib ketdi.

Mirg'azab odamlari bo'yiniga jel urib, oyog'imni kunda-dadan o'tkazdilar⁴², kundaga pona qoqqanda jonim chi-

⁴¹ Podsholikning o'tiz ikki xil qiyog'i bir afsona bo'lmasdan, ularning barisi jabr, iqtidor qildirish yo'lida amirlar Buxorosi hukumatini zamoni-da amalga edi. Eng oxirgisi bunda aytilgandek, xamirdan oxurcha yasab, qizitilgan yog' quyish ediki, bunga uchragan mazlum miyasi erib o'tir edi. (A.)

⁴² Kunda – chor tarosh qilingan va har tomoni ikki qatich keladigan yo'g'on bir g'o'ladi, uning ikki oyoq sig'arlik bir teshigi bo'ladi. Bu teshikning ustidan ko'ndalang yana bir teshikchasi bor. Oyoqlarni katta teshikdan o'tkazib ko'ndalang teshikchadan ikki oyoq orasiga to'g'ri-lab pona qoqiladi. Maana shu pona qoqilganda oyoqlarning ilik va suyaklari ezilgudek bo'lib, har qanday to'zimli kishi bo'lsa ham, chidayolmay jon achig'i bilan dodlaydi. (A.)

qayozib, chirillab dod soldim, dodimni eshitadigan odam bo'lmadi, hammalari yudan chiqib, ustimdan eshikni qulflab ketdilar.

Albatta u kecha tong otguncha uxlay olmadim, bir yoqdan oyogning kundada azoblanishi, ikkinchi yoqdan ertaga kutilgan podsholik qiynoqlarining qo'rqinchi ko'z yumishga yo'l bermas edi.

Tong otdi, kun tug'di, tush bo'ldi, peshin keldi. Hali ham murg'azabdan darak yo'q. Ikki kundan beri shapaloq va kaltakdan boshqa narsa yegan bo'lmagam ham, ochlikni sezmayman, yolg'iz tabiiy hojat taqas qilgan va suvsizlik bo'g'zimni chaqatayozgan edi. Kun qaytgan choqlarda eshik qulfini birov ochib berdi, men ham podsholik qiynoqlarini tortishga hozirlana boshladim. Eshik ochildi, zindonbonlardan biri qo'lida bir parcha non va bir o'troba suv bo'lgan holda ichkariga kirdi, suv va nonni bir chekkaga qo'yib, oyog'imni kundadan chiqardi va uychaning burchagida bo'lgan bir chugurchani menga ko'rsatib:

— U yerga borib tahorat ushat, — dedi, tahorat ushatdim. Kelganimdan keyin tag'in oyoqlarimni kundadan o'tkazdi va ponasini kechagidan bo'shroq qoqib dedi:

— Oyog'ingni bo'sh qo'yib seni rohat qoldirdim, mening bu yaxshiligimni unutm, qarindoshlaring kelsalar anglat mening xizmatonamni yog'liq qilsinlar. — Men gapirmadim, so'ngra suv bilan nonni mening oldimga qo'yib chiqib eshikni qulflab ketdi.

Bu bandibon bir haftagacha kunda bir marta kelib, meni tahorat ushatishga chiqarar, oyoqlarimni kundadan o'tkazib, pona qoqayotgan chog'da, yana xizmatona masalasini oraga solar va mugarrar bo'lgan suv-nonni oldimga qo'yib chiqib ketar edi.

Sakkizinchi kun eshik ochilganda ikki bandibon kirib, jelni bo'ynimdan, kundani oyog'imdan olib, qo'llarimni qayirib, orgamga bog'ladilar.

— Muborak bo'lsin! Xizmatonani yog'liq qilarsan-ay endi, — dedi.

— Qo'limni bog'laganliging muborak bo'lsinmi? — dedim.

— Ha, — dedi u bandibon, — agar qo'ling oldingga bog'lansa edi, o'ldirilard eding, qo'lingning orgaga bog'lanishi tirik qolishingning alomatidir. Tirik qolgandan keyin, bir kun bo'lmasa, boshqa bir kun qamoqdan qutularsan, bu muborakbodlikka va xizmatonaga arzimaydimi?

Men o'z-o'zinga:

— Bu odat, o'ldiriluvchilar uchun yaxshi bo'lmasa ham, tirik qoluvchilar uchun yomon emas. Shuning uchun shunday rasmi odatni o'zimdek tirik qoluvchilar to'g'risida Buxoro hukumatining «odilona» odatlaridan sanasam bo'ladim, — dedim.

Qo'llarim orgamga bog'langani holda meni eltib hokimga ro'baro' qildilar. Hokim boshim ustida qo'lida tayoq tutib turgan yasovulboshisiga qarab:

— Jadid shumi? — deb so'radi.

— Ha, taqdir shu, — dedi yasovulboshi.

— Ta'zir qilib zindonga soling! — deb buyurdi hokim.

Meni qo'rg'on darvozasi olib chiqdilar. Unda meni yalang'ochlab bir odamning orgasiga ko'tartirdilar, ikki odam ikki tomonimdan turib iring'ay tayoq bilan yalang'och orgamga bir-ikki... deb bir kam qirq tayoq urdi. So'ngra meni u odamning orgasidan tushirib tikka turg'izib:

— Janobi oliyni duo qilish nari tursin, so'kish uchun ham darmon qolmagan edi.

So'ngra yasovulboshi zindonga olib borish uchun meni mirshabga topshirdi, mirshab ham meni ikki odami qo'l ostida zindonga yuborib qamatt. Zindonda bo'ynimga jel, oyog'imga kishan urgan bo'lsalar ham, oyog'imni kundaga solmadilar.

Zindonda mendan boshqa bandilar ham juda ko'p edilar: ularning har biri mendan gamalishim sababini so'rab, o'z qamalistish voqasini hikoya qilar edi.

Bir kun yasovulboshi odamlaridan birov kelib qarindosh-urug'larimdan kimlarim borligini so'radi.

Men, bir kampir onandan boshqa kishim yo'qligini aytdim. — Agar menga yaxshigina xizmatona va'da qilsang, onangga xabar yuboraman, kelib seni ko'radi, — dedi yaso-vulboshi.

— Keragi yo'q, yaxshisi, unga aytmaslik lozim, chunki agarda bechora onam meni bu holda ko'rsa, ajab emaski, qayg'udan halok bo'lsa, — deb rad qildim.

Shunday ham bo'lsa, xizmatona undirish umidi bilan onamga xabar yuborganlar, bu voqedan to'rt kun o'tgach, kampir zindonga keldi. Men uchun bir tovuq, bir kosa sarig' moy, bir oz non va bir ko'yak-ishton olib kelgan ekan, Zindon eshigida yaxna tovuq go'shti bilan sarig' moyini xizmatona nomi bilan qo'lidan olib, mening hissamga non va ko'yak-ishtonni qoldirganlar.

Onam zindonga, mening oldimga ajab bir holatda kirdi. Sochlari yulungan, yuzi timalgan, ko'zlari xo'p yig'lagandan shishib qizarib ketgan; ovozi hayqirishdan xirillab qolgan, o'zi shuncha darmonsizlanganki, menga yaqinlashgach, hushsizlanib yiqildi. Hushiga kelsin, deb bir qancha urin-ganimdan so'ng ko'zini ochib, devonalardek menga tez-tez qaradi-da, tag'in ko'zini yumdi. Hozir o'lar, deb o'ylagan edim, lekin boshqa bandilar yordamlashib, bir oz sovuq suv keltirib yuzi, ko'ziga sepdilar, shundan keyin hushyor tortdi va ro'paramda o'tirib, hol-ahvolimni va nima uchun qamal-ganimni so'radi.

— Mening taqdirimdan, sening baxtsizligingdan, — deb javob berdim.

Bir soat chamasiga gap-so'zsiz o'tirgandan keyin haftada bir qatla kelib ko'rishni va'da qilib, o'z g'amxonasiga qaytib keldi.

Zidondan chiqib ketayotganida unga zindonbon: — Har kelishingda menga bir kosa sarigog' keltirmasang, o'g'lingni kirib ko'rishga yo'l bermayman, — deпти.

Bechora kampir o'g'lini ko'rmasa bo'lmaydi. Lekin sarig' moy tayyorlash uchun moli yo'q, ishlab pul topib sarig' moy olish uchun kuchi ham yo'q. Noiloj gadoychilikka chiqqan. Kunda eshikma-eshik yurib, mening qamalganimni, o'zining baxtsizligini ma'yusona bir til bilan gapirib meni ko'rish uchun zindonbonga bir kosa sarig' moy kerakligini, o'zining hech vaqosiz kambag'alligini aytib bir qoshiq sarig' moy tilarkan, shunday qilib bir kosa moy tayyorlagach, meni ko'rishga kelarkan⁴³.

Meni Buxoroga jo'natgunlarigacha bechora kampir onamning holi shunday edi, undan so'ng boshiga nimalar kelganidan xabarsizman, har holda bukungacha tirik qolmagan-dir, — deb Sharif o'z boshidan o'tgan voqealarni tugatdi va hikoyasining oxirida yuziga tomgan yosh tomchilarni dast-ro'moli bilan artib, alamlı bir oh chekdi-da, gapirishdan to'xtadi.

Sharifning sarguzashtini eshitish Odinaga o'z fojialarini unutish, o'z musibatlari Sharifning boshiga kelgan falokatlariga qaraganda yo'q sanash darajasida ta'sir qoldirgan edi. Endi Sharif Odina ko'ziga «notanish bir kishi, yoki od-diy» saroybon Sharif bo'lib ko'rinnas, balki falokat, zulm

⁴³ Sobiq Buxoro amirlari hukumati tartibida gunohkorga solingan naqd katta jarimani ham gadoylik bilan to'lash odat hukmiga kirgan edi. Masalan, birov qon to'kishda ayblandi. Shunda da'vogarning talabidan tashqari, hukumat ham unga katta jarima qon puli solardi, agar bu jarima ni to'lashga gunohkorning qurti yetmаса, bo'yninga bir xurma osib, qish-loqma-qishloq kezardi. U holni ko'rganlar, unga qon puli tushganligini bildirilar-da, xurmasiga besh-o'n chaga tashlab yordam qilarlar, u gunoh-kor shu yo'sinda necha yillar gadoylik qilib qon pulini to'lar edi. Bunday hol ko'proq Qarshi shahri, Sabzavot, Chiroqchi tomonlarida bo'lar edi. Ammo, Karki va umuman, turkmanlar yashaydigan Labi Obda qon pulini gunohkorlarning el-urug'i o'z oralaridan to'plab, to'lar edilar. (A.)

va haqsizlik o'tida erib poklanib gavdalangan insoniyat gavhari bo'lib ko'rinar edi. Shuning uchun Odina bu gal undan to'g'ridan-to'g'ri o'z xonadoni ahvolini so'rashga botirlik qila olmay, uni va o'zini yupatish yo'li bilan dedi:

— Birodar! G'am yema, qayg'urma! Dunyoda, ayniqsa, bizning Ko'histonda musibatga tushgan va falokat ko'rgan yolg'iz men bilan sen emasmiz, balki ko'p shariflar, ko'p odinalar jafu zindonda tuproqqa aylangan va aylamoqdalar, agar g'amzada va alamdiya yolg'iz menu sen bo'lsak edik, olamdan nomu nishonsiz yo'qolib ketishimiz mumkin edi, jafu ko'rganlar ko'p, zulmga duchor bo'lganlar sanog'sizdirlar. Bukun bo'lmasa ertaga bu mazlumlar qo'zg'alib, bizni bu holga solganlarni yer yuzidan supurib tashlayajaklar, ayniqsa Rossiya mehnatkashlari maydonga otilib, imperatorning toji taxtlarini, sarmoyadorlarning dabdaba va hashamatlarini yer bilan yakson qilgan bir zamonda, bu inqilob to'foniga bizning arbob kamollar, mulla xakirahlar, xonlar, beklar, amirlar, mirg'azab va yasovulboshilar bardosh bera olmaydilar. Bir kun oldinroq yo keyinroq tojik mehnatkashlari ham Rossiya mehnatkashlarining yordam va rahbarliklariga suyanganlari holda o'z maqsadlariga yetib, o'z mehnatlarining samarasiga o'zlari ega bo'lajaklar. Bu holda mening va sening mahv bo'lib ketishimizdan sira g'am yeyilmasa ham bo'ladi, shu yo'lda dastlabki qurbonlar qatoriga kirishimiz biz uchun katta sharaftir.

Sening sarguzashtingni eshitishtan bilan men shu darajada o'zimni unutminki, agar buvimning shafqati, Gulbibining muhabbati zimmamga ulkan minnat yuklamaganda edi, ularning ahvoli to'g'risida sendan hech bir narsa so'ramas edim. Zimmamdagi haqlari meni ularning ahvoli to'g'risida biladigan narsalarini so'rashga majbur qiladi.

XXVI GULANDOM

Sharif, Odinaga oilasi haqida gapirib berishdan ilgari Odinaning ikkinchi safaridan keyin Qorateginda unga daxldor qanday voqealar yuz berganini o'quvchilarga hikoya qilishimiz zarurdir.

Oyshabibi bilan Gulbibini juda yomon holda qoldirib, Odinaning Farg'onaga safar qilgani ma'lum. Ularning yemak uchun biron narsalari va yordam olish uchun biron kimsalari yo'q edi. Hammadan yomonroq hol, Arbob Kamolning hamisha o'ch olish payida yurishi edi. U Gulbibini o'g'li Ibodga olib berib shu vosita bilan ham Odinadagi «haq-hisobini» baravar qilmogchi, ham Odina va Oyshabibidan o'chini olmogchi edi.

Oyshabibi Arbob Kamolning bu yomon niyatini orqavortidan eshitib, qo'rqdi va zo'r tashvishga tushib qoldi. Lekin bir daf'a uni qo'rqitgani uchun, ikkinchi safar hujum qilishga yuragi dov bermas, deb o'ylar edi. Haqiqatan ham, Arbob Kamol Oyshabibiga ochiqdan-ochiq hujum qilishga botirlik qila olmay, qulay bir fursat kutib yurar edi.

Kolesov voqesi munosabati bilan Farg'ona — Qorategin chegarasi bog'lanib, bu oradagi borish-kelish kesilgandan keyin, Arbob Kamolning o'z istagini qo'lga kirgizish uchun umidi zo'raygandek, Oyshabibining ham xavfi ortgan edi.

Arbob Kamol yo'lining bog'lig'i uzaya borsa, Odinani o'lgan sanab, qanday yo'l bilan bo'lmasin, niyatini amalga oshirish mumkin bo'lur deb umid qilardi. Oyshabibi bo'lsa, agar Odinaning kelishi uzozga cho'zilsa, yoki uning qaytishidan umidi uzilsa, tilar-tilamas dushmaniga taslim bo'lishga to'g'ri kelar deb, qo'rqardi. Chunki, bo'yga yetgan bir qizni yillaracha uyda yolg'iz saqlash mumkin bo'lur, deb bilmas edi. Har qanday hujumlarni daf' eta olsa ham, bu holni uzozga cho'za olmasligi aniq edi. Chunki yoshi yetmishdan oshgan va ajal xabari soat-basot qulog'iga yetishib turgan edi.

U qaysi soat olamdan ko'z yumsa, o'sha soat Gulbibi Arbob Kamol qo'lga tushar edi.

Oyshabibini bir oz yupatib turgan narsa Ibodning ahvoli edi. Ibod, Gulandom nomli bir qiz bilan sevishgan bo'lib, undan boshqa biron qizga uyalmogchi emas edi. Gulandom Arbob Kamolning shu qishlog'idagi jo'rasi va tengdoshi, davlat va hashamatda o'ziga baravar keladigan Shohnazar degan kishining qizi edi.

Shohnazar bilan Arbob Kamol yoshlikdan bir-birovlari bilan do'st va oshna bo'lganliklaridek, bularning xotinlari ham bir-birovlari bilan dugona edilar, shunday munosabat va aloqalar sababidan bu ikki xonadon orasida borish-kelish qalin edi. Gulandom bilai Ibod beshikdalik chog'laridan boshlab ota-onalari bularni kelin-kuyov deb atar edilar. Gulandom bilan Ibod oyoq va til chiqarganlarida bularning o'yinlari kelin-kuyov o'yini edi. Onalari ham bularni soatlarcha shunday o'yinlarga solib, tomosha qilur va zavq olardilar.

Gulandom bilan Ibod yoshlari yetib, orqa-o'nglarini tandandan keyin ota-onalarining ko'zlari oldida uyayib, bunday o'yin (kelin-kuyov o'yini) o'yinmasalar ham, pastqam yerlarda shunday hazil-mazaxlashib, bir-birovlaridan lazzat olishini tashlamaslar edi. Bora-bora bu hazil-mazaxlar chin sevgiga aylanib, oshiq-ma'shuqlik munosabati oraga tushgan, lekin bu vaqtlarda otalarning bu oradagi fikrlari o'zgargan edi.

Arbob Kamol Gulandomni kelin qilguday bo'lsa, talaygina xarajatlantishga majbur bo'lar edi; chunki Shohnazar o'zini zamonaning odamshavandalaridan sanab, kizini arzon-garov qo'ldan chiqib ketishiga rozi bo'lmas edi, u, katta «to'qqiz»lar, yetarli «qalin»lar olib «mening qizimga shuncha narsa keldi» deb do'st-dushman orasida faxrlanib, katta to'ylar berishni tilar edi.

Ammo Arbob Gulandom o'rniga Gulbibini qo'lga tushira olsa, bir tomondan, xarjisiz kelin tushirgan bo'lar, ikkinchi tomondan, Oyshabibi bilan Odinadan o'ch olgan bo'lib, xalq

orasida dong'i chiqar, xalq bir-biriga «Arbob Kamolga panja solish durust emas, Odina unga hurmatsizlik qilgani uchun vatangado bo'lib, qaylig'i Arbobning cho'riligiga tushdi», deb ishlarini bilib qilur edi.

Arbob Kamol shu mulohazalar bilan xalq orasida «men, Shohnazarning qizini kelin qilmayman, chunki uning husni o'g'limga munosibmas, yetimcha bo'lsa ham, Gulbibi menga kelin bo'lishga arziydigan husnga egadir», deb yurar edi.

Bu so'zlar Shohnazarning qulog'iga chalinib, izzat-nafisiga tegdi, u hech bir kishiga maslahat qilmasdan, qizini Omonboqi degan bir kishiga fотиha qildirib qo'ydi.

Omonboqi yoshi ellikdan oshgan kishi bo'lib, uch марта uylangan, har uch xotini ham o'lgan, endi uning uyini «shum» sanab, hech kim qizini unga bermaydir, shuning uchun bo'ydoq yashashga majbur edi.

Shohnazar o'zi tanlab qizini unga bermogchi bo'lganda u ham «odamgarchilik» qilib davlatining yarmini uning etagiga to'kmogchi bo'ldi. Shohnazar bu ishi bilan go'yo Arbob Kamolga: «Sen mening qizimni past urgan bo'lsang ham, sendan uch baravar ortiq pul xarjab, qizimning qadrini ko'kka ko'taradigan kuyov topildi», deb faxrlanar edi.

Leikin Ibod, Gulandom va ularning onalari bu ishga sira rozi emas edilar. Ibod bilan Gulandom bir-birovlarini sevishtgan bo'lib, boshqa kishini istamaslar edi. Ibodning onasi Arbob Kamolga «o'zimiz bilan davlat va obro' to'g'risidan tengdosh bo'lgan Shohnazar qizini rad qilmagil» deb yolvorganidek, Gulandomning onasi ham o'z eriga: «Guldek qizingni yoshi ellikdan oshgan «zankush» (xotin o'ldirar) bir shumqadamga bermagil, Arbob Kamolning ishi bir yoqli bo'lgancha kutib turgil», – deb yalinar edi.

Leikin bu e'tirozlar, bu yalinish-yolvorishlar, ikki xudbin erkakka ta'sir qilmadi, bo'lar ish bo'ldi.

Bo'lar ish bo'ldi, leikin Gulandom bilan Ibod orasidagi oshiqona aloqa kesilmadi.

XXVII KELIN TUSHIRISH

Oxiri baxt qushi Arbob Kamol boshiga qo'ndi. Oyshabibi umidsizlik, kimsasizlik orasida bir haftagina og'rib yotib o'ldi, bu xabarini hammadan burun qishloq imomi mulla Xakirah Arbobga eshittirib uni qulab, dedi:

— Bukun Oyshabibining azasi emas, sening to'yingdir. Oyshabibining juma oqshomini o'tkazish bilan Gulbibini darrov Ibodga nikoh qilamiz, bizning to'yonani tuzukroq berasan-da.

— Domla, — dedi Arbob, — sen nazari pastligingni sira tashlamading-da! Xudo xushvaqtlikni nasib qilsa, to'yona pisand emas, yor-do'stlarning esonliklari kerakdir. Hozir qishloqqa xabar berib, o'likni go'ru kafan qilib Gulbibini uyga keltirishimiz zarur.

Arbob janozaga hozir bo'lishdan burun o'z uyiga kirib, xotiniga:

— Oyshabibi o'libdi, uni ko'ngandan keyin, kelini o'z uyimizga keltiramiz, sen kelin-kuyov uchun bir siradan kiyim-kechak hozirla, shu hafta ichida nikoh qilamiz, — deb uydan chiqqa boshladi.

— Voy otasi, to'xtang, — deb xotini erini to'xtatdi.

— Sizga, — dedi xotin, — nima bo'ldi, to'y, kelin tushirish shunday bo'ladimi? Xalq nima deydi?.. Men bu yetimchani sira kelin qilmayman, bizning kelimimiz o'zimizga yarasha boy qizi bo'lishi kerak, to'y yuborishimiz, «to'q qiz» yuborishimiz, yopiq yuborishimiz, «bor to'vog'im» qilishimiz, el-yurtning rasmi rusumlarini o'rniqa keltirib orzularimizni qondirishimiz kerak, azaxonadan bir yetimchani sochidan sudrab olib kel-da, xalqqa «ko'rdingizmi, bu bizning kelimimiz» de, shu ham gapmi?.. Men shu umid bilan siz bilan bir yostiqqa bosh qo'yganimdim? Shu niyat bilan bola o'stirganimdim?..

Arbob bir qadam keyin tashlab:

— Xotini! — dedi, — ko'p gapirma, Arbob Kamol har nima qilsa, yana Arbob Kamoldir. Xalq meni ayblamas, davlatim bor ekan, izzatim ham o'z joyida turadi.

— Men azaxonadan sudrab keltirilgan yap-yalang'och bir qizni sira kelin qila olmayman.

— Xo'p, sen aytgancha bo'lsin, azaxonadan to'ppa-to'g'ri o'z uyimizga keltirmaymiz, avval imomning uyiga yuborib, o'likning juma oqshomi o'tgandan keyin, odat bo'yicha, to'y-tomoshga qilib olib kelamiz.

— Avval imomning uyiga yuborilishi bilan bu yetimcha «odamshavandaning qizi» bo'lib qolmaydi, gadoy qiz har yerda bo'lsin, gadoy qizdir. Domla-imomning uyida bo'lsa ham, gadoy qizdir, Arbob Kamolning kelini bo'lsa ham gadoy qizdir.

— Men Gulbibini, boy qizdir demadim-ku, uning gadoy qilgini o'zim ham bilaman, lekin kuygan «hisoblarim» badaliga keladi. Odina menga nimalar qilganini bilmaysanmi? Oyshabibi nima yomonliklar qilmadi? Bukun falak mening yo'rig'imga tushdi, bukun men Odinaning tirigidanu Oyshabibining o'ligidan o'chimni olaman, bilingimi?

— Ibodni nima qilasiz? U o'linga rozi bo'ladi, lekin bu ishga rozi bo'lmaydi.

— Ibod?! — Arbob qizishdi, — uning o'zi kim? Uning rozi bo'lishi yo bo'lmasiligining bu ishga nima daxli bor? Rozi bo'lsa ham shu, rozi bo'lmasa ham shu. «Rozi bo'lmayman» deyishga nima haqi bor? — deb chiqib keta berdi.

Xotin:

— Otasi! Menga qarang, menga qarang, — deb yig'lab qoldi.

Devorlari yiqilgan bir hovlida tomi pichan va qamish bilan yopilib, bir burchagi cho'kkan bir uy, uning yonida qiys-haygan devoriga turgovch qo'yilgan ikkinchi uy ko'rinar edi. Tomining bir burchagi cho'kkan uyda orgasi bilan devorga suyanib, tizzalarini quchoqlab olgan o'n olti-o'n yetti

yashar chamali bir qiz o'tirar edi. Bu qizning afti basharasi-dan barkamol bir go'zallik asari ko'rinib tursa ham boshiga tushgan musibatning og'irligidan bo'lsa kerak, xazon yeli urgan guldek sarg'aygan, ajin tushgan, qovoqlari shishgan, ko'zlari chuqur-chuqur tushib ketgan, u tom ma'nosi bilan so'lgan edi. Bu qiz yig'lamas, hayqirmas, dod-faryod qilmas, hatto bir «oh» ham chekmasdi, lekin uning dam shift-ga, dam yerga hasratli boqishidan, jonni o'rtab yuboradigan, yurak-bag'irni ezib tashlaydigan nolishlari sezilib turar edi.

Bu qizning qarshisida yoshi yetmishga yaqinlashgan bir kampir tiz cho'kib o'tirar va o'z-o'ziga so'ylagandek:

— Dunyo foni, bunaqangi qora kun hammaning boshiga ham tushadi, onadan tug'ilgan kishining o'lishi muhaqqaq, bu kun Oysha o'lgan bo'lsa, erta-birisi kuni biz ham dunyodan ko'z yumamiz, oldinma-keyin hamma bu dunyodan o'tadi, — derdi va gap orasida qizga qarab:

— Qizim! O'zingni tetik tut, betogatlik bilan o'zingni koytma, buving o'lgan bo'lsa, meni uning o'rmda ko'r, yolg'izlikdan cho'chib vahimaga tushganingni bilaman, lekin tirik ekanman seni yolg'iz qoldirmayajakman. Iltisang, bunda qol, men ham yoningda qolib, rahmatlik Oysha opamning chirog'ini sen bilan birgalashib yoqajakmiz, xohlasang, mening kulbanga ko'ch, unda birgalashib tirikchilik qilamiz. Sharif akangdan bo'lak hech kimmim yo'qligi senga ma'lum. U ham bo'lsa, zindonda, qachon qutulishi belgisi emas. Men ham sendek musibatxada, kimsasiz bir bechoraman, ikkalamiz bir yerda bo'lsak, dardlashamiz... — deb qizni yupatar, unga o'z yordamini taqdim etar edi. Qiz bo'lsa o'tirish vaziyatini buzmas, ko'zini dam shiftga, dam yerga tikar, go'yo kamping so'zlarining birini-da eshitmas edi.

Bu qiz buvisidan mangu ajralib, musibada qolgan Gulbi-bi, uning qarshisida o'tirgan kampir esa, Sharifning onasi edi. Xotirangizda bo'lsa kerak, Sharifning onasi sarig' moy to'plash uchun kunda gadoychilikka chiqib, qishloqma-qish-

loq yurar, har uyga borib o'z dardini ochar, o'z musibatini so'ylar edi. Shu qatorda bir kun Oyshabibining ham uyiga kirib qolib, o'z dardi, alamini gapirib, ko'nglini bo'shadi. Oyshabibi ham o'z boshidan o'tganlarini gapirib, unga hamdardlik qildi. Shu munosabat bilan ikki alamzada kampir do'stlashib, egachi-singil tuindilar. Sharifning onasi yo'lining uzog'ligiga qaramasdan oz bo'lganda haftada bir kecha kelib Oyshabibinikiga qo'nmasa uyqusi kelmas edi.

Oyshabibi kasallanib, to'shakdan tura olmaydigan bo'lganidan keyin Sharifning onasn uning oldidan qimirlamad, o'lganidan keyin engagini bog'ladi, ko'zlarini yumdirdi, qo'l-oyoqlarini uzatib bog'ladi, yuvish, ko'tarishga yordamlashdi, azaga boshchilik qildi, hozir Oyshabibining o'ligi mo-zorga uzatilgandan keyin, u Gulbibining ro'baro'siga o'tirib uni yupatmoqda, unga o'z yordamini taklif etmoqda edi. Bu uyga qishloq xotinlaridan ham bir nechalari yig'ilgan edilar, ular Oyshabibining o'ligi ko'tarilayotganda, o'z o'tliklarini eslab, bir oz dod-faryod qilib yig'ilgan bo'lsalar ham, o'lik mo-zorga uzatilgandan keyin tinchlanib, o'zaro gaplashmoqda edilar. Bularning biri erining yurish-turishidan nolir, biri kuyovining noqobilligidan zortanar, uchinchisi, qizining baxsizligidan hasratlanardi, boshqa birisi, kundosh alamidan shikoyat qilardi... Bu orada Oyshabibi bilan Gulbibiga aloqador so'z shu bo'ldi-ki, biri dedi:

— Men Oyshabibining o'ligi ko'chada qolar, deb o'ylagan edim, holbuki, janozasiga boy xotinlarinikidan ko'proq odam yig'ildi, tobuti qo'ldan qo'lga tegmadi.

Boshqa bir xotin, uning so'zlarini tasdiqlab:

— Ko'chaga qarang, — dedi, — qishloqning butun katta-kichigi fohixaxonlikka yig'ilgan. Oritboyning xotini o'lganda buning yarmicha ham odam yig'ilmagani edi.

Uchinchi xotin:

— Bularning barisi boyning yuz-xotiri, — deya xalqning ko'p yig'ilganiga sabab ko'rsatdi.

– Qaysi boyning yuz-xotiri? – deb so‘radi boshqa birisi.
– Qaysi boy bo‘lar edi, qishloqning ustuni hozir Arbob Kamol-ku.

– O‘yshabibining Arbob Kamolga nima daxli bor?

– Dugona, sen dunyodan butunlay xabarsiz ekansan-ku, Arbob Kamol Gulbibini o‘z o‘g‘liga aytirib qo‘ygan, shu ikki-uch kun orasida to‘y bo‘lib qoladi.

– Bu ish qachon bo‘lgan? Nima uchun shu choqqacha hech kim eshitmagan?

– Shu kun, O‘yshabibi jon bergach bo‘lgan.

– O‘likni qo‘y, tutxo‘rlik qil, deng-a⁴⁴.

– Xoh tutxo‘rlik qilu xoh qilma, bo‘lar ish bo‘lgan...

Kun botishga yaqinlashdi, oftobning keyingi shu‘lasi qabristonga yoqilgan chiroqdek devor boshlari, daraxt shoxlariga qayg‘u aralash bir yorug‘lik sochar edi. Fotihaxonlar ham birin-sirin O‘yshabibi hovlisi oldidan turib keta berdilar. Eng keyinda qolgan Arbob Kamol bilan imom azaxona eshigiga keldilar.

– Rahmatlik O‘yshabibini ko‘mib keldik, sizlar ham o‘z uylaringga targalinglar, – dedi imom azaxonadagi xotinlarga. Xotinlar paranjilari yopib keta boshladilar.

Uyda Gulbibidan boshqa kishi qolmadi.

– Sen ham mening uyimga bor, qizim, unda onangning oldida yotarsan, – dedi imom Gulbibiga.

.....

– Tez bo‘l, qizim! Shom ham yaqinlashdi, seni uyga qo‘yib, tezroq machitga borishim kerak.

Gulbibini yana javob bermadi.

– Uxlayapsanmi? yo uyg‘oqmi? Tez bo‘l, kech bo‘ldi deyapman.

O‘lik yuvilgan uyga chiroq yoqib chiqqan Sharifning onasi bu keyingi so‘zni eshidi:

⁴⁴ «Murdaya mon, tutxuriy kun» degan tojikcha maqolning tarjimasi. (A.)

– Bibisining birinchi kechasini o‘tkazmasdan qayoqqa boradi? Bu yerda chiroq yoqish, azadorlik qilish kerak, – dedi.

– Yosh bir qiz, – dedi imom, – yangi o‘lik chiqqan uyda yolg‘iz qanday yotadi? Chiroq bo‘lsa o‘zi yona beradi, unga qorovul kerak emas.

– Gulbibi bu uyda yolg‘iz emas, O‘yshabibi o‘lgan bo‘lsa, uning o‘rnida men onalik qilaman, – dedi Sharifning onasi.

Shu vaqtgacha jim turgan Arbob, bu keyingi so‘zni eshitib birdan qizishdi:

– O‘yshabibini hozirgina ko‘mib kelgan edik, – dedi, – bu ikkinchi O‘yshabibi tag‘in qaysi go‘rdan chiqib keldi? – keyin tovushini yanada balandroq qilib yedi: O‘zing kimsan? Qaerdan O‘yshabibiga noib, Gulbibiga sohib bo‘lib chiqding? Hozir yo‘qol! Bo‘lmasa kulingni ko‘kka sovruman. – Imomga qarab: – Sen tanimsanmi, bu kim? – deb so‘radi.

Imom eshitkidan bir mo‘ralab, Arboba:

– Bu bosh yalang, oyoq yalang, ko‘chalarda gadoychilik qilib yuradigan bir sayoq kampirdir, ajab emaski, Gulbibini yo‘ldan ozdirish uchun kelgan bo‘lsa, – dedi-da, uyga qarab: – Qani chiqib ket! Ko‘chada bosh yalang yuradigan xotin, shariat yuzasidan, begona erlar singari, nomusli xotinqizlarga nomahramlar. Hozir yo‘qol! – dedi.

Imom keyingi so‘zni aytganda, hassasini kampirga o‘qalib tahdid etdi.

Sharifning onasi uchun ortiq bu uyda qolish mumkin emas edi, chiqib ketdi. Imom uyga kirib shuncha janjallar bilan ham o‘z vaziyatini buzmasdan devorga suyanib dam shiftga, dam yerga boqib o‘tirgan Gulbibining qo‘lidan sudrab chiqardi, ko‘chada ham o‘z ixtiyori bilan yurmog‘ istamagan Gulbibini imom sudrar, Arbob Kamol turtkilar edi...

XXVIII YASAMA KASAL

Kecha juda qorong'i, ko'kning yuzini qalin qora bulut qoplab olgan edi, o'tkinchi bulutlar orasidan unda-munda ko'rinadigan yakka-yarim yulduzlardan, havoning qattiq guldurashi ostida ora-sira chaqiladigan chaqmoqlardan boshqa yorug'lik alomati ko'rinmas edi; o'qin-o'qin bir shuvillab yog'adigan yomg'ir yerni sirg'anchiq loy qilgan edi.

Shu paytda Arbob Kamol ko'chadan toyila-toyila o'z hovlisiga kirdi. Odati bo'yicha, Arbob har kecha xuftonni o'qigach, darrov uyiga kelar edi, bu kecha muhim ish to'g'risida imom bilan gaplashib qolgan bo'lsa kerak, ikki soat chamasi kechikib qaytdi.

Arbob ichkari hovlisiga kirib Ibodning uyi tomonga bu-rildi, sekigina borib eshikning tirqishidan qaradi: uyni bir burchagida chiroqpo'ya ustida cho'yan qora chiroq mitillab yonmoqda edi, ikkinchi burchakda Gulbibi tizzasini quchoqlab devorga suyanib o'tirmoqda va uyqu eliganday, boshini tizzasiga qo'ygan edi.

Arbob uyni har tomoniga diqqat bilan qaradi, Ibod yo'q. Arbob qaytib o'z uyiga kirdi, unda xotini chig'iriq chiqarayotganini ko'rib:

— Ertadan kechgacha seni chig'iriq boshida ko'raman, muncha paxtani nima qilmogchisan? — dedi.

— Sizning vaqtsiz to'yingizning kamchiliklarini to'ldirish uchun hali ko'p mehnat qilishim kerak, — dedi xotin, — har kim kelin ko'rgani kelisa uyardan o'layozaman, yer yorilmaydiki, kirib ketsam: kelin, yangi kuyov... uyda bir yangi ko'rpa-yosti q, dorda bironta yangi to'n, yangi ko'ylak, yangi belbog' yo'q, bo'g'chalarga yopilgan biron kirpo'sh, devorga yoyilgan biron dorpech yo'q... Agar siz mening so'zimga kirsangiz edi, bu narsalarning barisi kelin bilan birga kelar edi. Siz o'zbiarmonlik qilib, yap-yalang'och bir qizni kelin

deb sudrab keltirdingiz, o'z fikringizcha go'yo tekinga kelin tushirdingiz, men sho'ring qurg'ur jilhoz tayyorlash uchun ko'p urinsam kerak, buning ustiga, uydagi bor bisotimiz ham bularning jilhoziga ketib, xarji mumsik du chandon bo'ladi.

— Sen, — dedi Arbob, — temirchiligingni sira qo'ymading, bir og'zing ochildimi, sumaychidek nafas olmasdan sayray berasan. Sen bu kelin tekinga kelgan deb o'ylaysanmi? Unday emas: bu kelin menga bir qizdan qimmatroqqa tushdi. Odinaning otasini ko'mdim, o'zini uch yil boqdim, hokimlarga pora berib, uni mardikorlikdan qutqazdim. U mening shuncha yaxshiliklarimga qarshi bir qo'y va boshqa qancha narsalarimning haromga chiqishiga sabab bo'ldi. Oxirda Oyshabibini ko'mish xarajati ham mening gardanimga yuklandi. Shuncha tashvishu shuncha xarajalar badaliga bu qizni kelin qildim. Sen bu gaplarning hech birini o'ylamaysan-da, joning boricha: «Gadoy qizni kelin qilding», deb baqirasan... Bunday gaplarni qo'y, nikoh qilganimizga qirq kun bo'ldi, haligacha bularning birga yotganlari ma'lum emas. Sen qanday o'ylaysan: ayb kelindami, yoki juvonmarg bo'lgur Ibodami?

— Ayb kelinda ham emas, Ibodda ham emas, balki ayb sizning o'zingizda. Siz tentak bir gadoy qizni kelin, deb olib keldingiz. Ibod nima qilsin, u boshda ham uni istamayman, degan edi. Hali ham unga o'z xotinim deb qaramaydi. Kelining o'zi bo'lsa, kelganidan beri na menga, na Ibodga, na kelin ko'rish uchun kelgan xotinlarga bir og'iz bo'lsin gapirgan emas, qancha gap tashlasam ham javob bermaydi. Jig'iga tegsam hatto betimga ham qaramaydi, boshini ko'tarmasda, zo'r bilan bir qaraydi-da, tag'in ko'zini yumadi. Haligacha biron narsa yeganligini yo uxlaganini ko'rgan emasimiz, oldiga qo'yiladigan kundalik ovqatni qanday bo'lsa shundayligicha qaytarib olib chiqaman, o'rindan qimirlaganini ham ko'rgan emasman, qachon qarasam, tizzasini quchoqlab devorga suyanib o'tirgan bo'ladi.

– Har ishda meni ayblaysan, – dedi Arbob Kamol, – o'zing va boshqalar aybsizsizlar. Holbuki, aybning bari o'zingda. O'g'lingga nasihat qilmaysan, kelinni o'zingga va o'g'lingga rom qilish uchun urimaysan, balki joning bo-richa bularning oralarini buzishga harakat qilasan, so'ngira aybni mening bo'ynimga ag'darasan. Men bularning kelish-maganlaridan juda xafa bo'lsam ham, sening o'zing biron iloj toparsan deb indamas edim. Endi qarasan, sen biron ish qilmogchi emas ekansan, bundan so'ng bu ishga o'zim kiris-haman, imom bilan ham bu kecha shu to'g'rida gaplashdim, u issiq-sovuq qilib bermogchi bo'ldi.

Shu payt tashqari hovli-dan kelayotgan Ibodning oyoq to-vushi eshitildi. Arbob xotiniga aytayotgan gapini to'xtatib:

– Ibod! – deb qichqirdi.

– Labbay!

– Shu vaqtgacha qalarda eding?

– Hech qalarda, – deb otasining uyiga kirdi Ibod.

– Hech qalarda?.. Hozir tashqaridan kelding-ku?

– Ko'cha boshida bolalar bilan gurgulashib o'tirgan edim.

– Yangi uylangan kishi ko'cha boshida nima qiladi? Nima

uchun uyda o'tirmaysan, nima uchun kelinning ko'nglini ov-lashga urimaysan? «O'zboshimchalik qilib yursam, otam boshga xotin olib berar», deb o'ylarsan? Lekin bu xomxayol-ni boshingdan chiqar. Agar shuni tezlik bilan o'zingga xotin qilsang – qil, bo'lmasa ikkovingni ham tiriklay mozorga uza-taman. Meni «Arbob Kamol» deydi-lar sen hali bilmaydigan-ga o'xshaysan...

Arbob gapira turib tobora qizishar, Ibodning og'zidan nojo'ya gap chiqquday bo'lsa, uni urib boshini yoradigan ko'rinar edi.

Ibod bu holni ko'rib yumshoqlik bilan:

– U istamasa, men nima qilay? – dedi.

– Men bilaman, boshda o'zing istamasding, endi bo'lar ish bo'lgandan keyin, aybni uning bo'yniga yuklamogchi

bo'lasan. Agar sen rag'bat qilsang, bir mushipar xotin qarshi turib nima qila olar edi?

– Tuzuk, boshda men istamagan edim, lekin bo'lar ish bo'lgandan keyin, sizning xohishingizni har bir narsadan afzalroq bilib rozi bo'ldim. Lekin, har qachon unga yaqin-lashsam qochadi, qo'l uzatsam odamni jin-pilarga o'xshab qo'rtitadigan qiliqlar qiladi, – deb Ibod yig'lab yubordi.

– Tur, ket! – dedi Arbob, – senga tag'in bir hafta muhlat beraman, shu vaqt mobaynida biron ish qila olsangu, yaxshi, bo'lmasa nima ish qilishimni o'zim bilaman.

Ibod borib o'z uyiga kirdi, otasini fe'li bilai juda yax-shi tanish bo'lganidan, uning eshik orgasiga kelib poylashini bilardi, shuning uchun har kechalik odatiga xilof o'laroq, chiroqni o'chirmadi, nikohdan beri o'tgan bir kam qirq kec-haning aksicha yolg'iz shu kecha Gulbibiga yaqinlashib, uning qo'lini tutmogchi bo'ldi. Birq kecha-kunduzdan beri o'rtidan qimirlaganini hech kim ko'rmagan Gulbibi yolg'iz shu vaqt turib, devorga orgasini suvab, tik to'xtadi.

Ibod yaqin borib uning bo'yniga qo'l solmogchi bo'ldi. Gulbibi ikki qo'li bilan uni itarib yubordi.

Ibod orgasi bilan yerga yiqildi. Albatta holsizlangan bir qizning kuchi kuchli bir yig'itni itarib yiqitishga yetmas edi, bu ishda Ibodning o'z otasiga ko'rsatish uchun qilgan soxta-kortlari yordam berdi.

Ibodning o'ylaganidek Arbob Kamol eshikning orgasida poylab turgan edi, u bu holni ko'rganda o'zini tuta olmay yugurib uyga kirdi-da, Gulbibiga qarab:

– Uysiz qiz, o'z eringga shunday muomala qilasan-mi? – deb baqirdi.

Qirq kundan beri «lom-lim» deb og'iz ochmagan Gulbibi birdan tilga kirib:

– O'zing uyatsizsan, o'zing zolimsan, o'zing nomussiz-san! – dedi.

— Endi uyatsizlikni mendan ko'ra, — deb Arbob, Gulbibiga hamla qildi, uni yerga ag'darib tepish uchun ikki qo'llab unga yopishdi, Gulbibi ham jon achchig'ida Arbobning ko'ksini qoplagan katta soqolini ikki qo'ti bilan tutamlab oldi. Gulbibini yerga ko'tarib urganida Arbobning bir tutam soqoli yulindi. Darg'azab bo'lgan Arbob soqoli yulinalgach beshbattar g'azablanib, yerga ag'darilib yotgan Gulbibini o'choqchining loy pishitganidek tepa berdi⁴⁵.

Shu paytda shovqin-suroni eshitib narigi uydan kelgan Arbobning xotini kelini bu holda ko'rib, jonsiz suratdek devorga suyanib serrayib turgan o'g'liga qarab:

— Sen qanday erkaksan? Xotiningni bu zolimning oyog'i ostidan qutqar, — dedi.

Arbob Gulbibini o'z holiga qo'yib:

— Hali men zolimmi? — deb xotiniga qarab yugurdi, uni ham yerga ag'daratib bir-ikki tepgandan keyin:

— Bu ishlarning barisiga sening yaramasliging sabab bo'ldi, — deb Ibodga qarab yugurdi. Bu holning bo'lajagini ilgariidan chog'lab turgan Ibod ura qochdi. Arbob uni hovlilga quvlab chiqdi. Ibodning baxtiga, otasi hovlining o'trasida loyga to'yilib yiqildi.

Boshdan-oyog'igacha loyga belangan Arbob, o'z uyiga kirib, yulungan soqoli osti achishganiga chiday olmay igna yutgan idek ingillab yotdi.

Jon achchig'ida Arbobga tarmashgan Gulbibi yerga yiqilib tepki yegach, hushdan ketdi. O'sha kechadan beri uning o'tmidan turganini hech kim ko'rgan yiq.

⁴⁵ O'zaro kelisha olmagan kelin-kuyov orasiga kaynata tushib zo'r bilan kelishtirishga urinishi ko'p ko'rilgan hollardandir. Buxoroda bir mulla hatto bo'yiga yetmagan o'z qizi o'jarlik qilganida, uning qo'l-oyog'ini bog'lab kuyovi qo'lga topshirgan. Shu holatda tasarruf qilingan qiz kasal bo'lib o'lgan. Qizning otasi Siyokoron guzaridan mulla Boturcha deganning o'g'li, kuyov mulla Abdul Attoh degan darvonalik bir mulla edi.

Bir oygacha Arbob ko'chaga chiqmadi, so'rab kelgan odamlarga ko'rinnas edi, ehtimolki yana bir necha kun uydandan chiqmagan bo'lardi, lekin o'lgan kelini go'ru kafan qilish, janoza va fohixaxonligini o'tkazish uchun el ko'ziga ko'rinishga majbur bo'ldi.

Ta'ziyaga kelganlar, Arbob bilan ko'rishib, sog'ayishi bilan qutlaganda Arbob:

— Xudoga shukur, menga ikkinchi umr berdi, bo'lmasa dardim juda og'ir edi. A'zoyi badanimdagi mo'ylar batamom to'kilib, qayta boshdan chiqdi. Ko'rmysizlar-mi? To'kilgan soqolim hali ham avvalgi asliga qaytgan yiq, — deb soqolini tutamlab ko'rsatar va qayta-qayta xudoga shukur qilar edi.

XXIX O'G'RI

Yugoridagi bobdan bilinganidek, Gulbibi Iboddan qancha nafratlanasa, Ibod ham undan o'shanча nafratlanardi. Ibod yolg'iz Gulandomning havasida saytar, Gulandomning hajrida yig'lar, Gulandomning visoli umidi bilan yaytar edi. Gulandom yo'lida yolg'iz Gulbibiniga emas, ota-onasini, gavmu qarindoshini, hatto o'zini va nomusini unutgan edi.

Gulandom ham bir nafas bo'lsin Ibodning yodini esdan chiqarolmas, hech bo'lmaganda, kunda bir qatla uni ko'ra olmasa chidayolmas edi. Bu munosabat, Gulandomning uy qizi, Ibodning bo'ydoq chog'larida qanday bo'lsa, Ibod Gulbibiga uylangan, Gulandom Omonboqi uyiga kelin qilib uzatlgandan keyin ham uzilmadi.

Ibod hamisha Omonboqi hovlisining tevaragida aylanib yurar, qulay fursat topildi deguncha u yerga qo'nib, ko'z nuri bilan ko'rishar edi. Gulandom ham onasi chivin keltirishini kutib turgan qaldirg'och bolasidek doimo og'zini ochib, ikki ko'zini tikib turar va uy egasiga hech bir parvo qilmas edi.

Omonboqi qancha urinsa, yolvorsa va boru yo'g'ini uning yo'lga sochsa ham, bu yovvoyi qushni o'ziga rom qila

olmadi. Ibodning kecha-kunduz shu atrofda aylanib yurishini ko'rib, boshqa shubhalarga ham tushdi – bu qush boshqa tomonlarda don olishib yurmaganmikan, deb ko'nglidan o'tkazdi.

Bu tirikchilik Omonboqining joniga tegdi, bu muammoni yechish uchun bir tadbir o'yladi. Bir kecha uzoq bir yerga mehmondorchilikka ketmoqchi bo'lib, Gulandomga:

– Qo'rqmasang o'zing yolg'iz yot, qo'rqsang, onangni chaqir, men bu oqshom qaytmayajakman, – deb chiqib ketdi.

Bir haftalik oy botishga yaqinlashgan, devor, daraxt tublarida kishi kishini tanii olmaslik darajada qorong'ilik o'z pardasini yopgan edi. Dilgirliгинi yozish uchun yolg'iz aylanib kezib yurgan Gulandom, oy botishga yaqinlashgach, bir yerda turib qoldi. Bu yer uning eri uyda bo'lmagan kechalarda kelib allaqanday ishoratni kutadigan joyi edi. Bu kecha baxti uni qo'lladi: yong'oqdek bir kesakcha u turgan yerdan bir qadam narivoqqa kelib tushdi. Gulandom ham qo'lida o'ynab turgan ikki toshchadan birisini kesak kelgan tomonga qaratib oldi. Yana ko'p kutishga hojat qolmadi: devorning tosh otilgan joyidan bir qora ko'rinish pusib turdi. Gulandom qo'lidagi ikkinchi toshchani devorning qora bo'lib turgan joyidagi tubini chog'lab oldi. Bu ishorat ikkinchi ishoraning tasdig'i edi.

Gulandom bu ishoratni ham bergandan keyin, qo'l-oyog'i qaltiragan, yuragi gursillab tepgan, boshni aylangan holda kelib o'z uyiga kirdi. Devor boshidagi qora ham avaylab devordan surilib tushdi, devor tubidan emaklab kelib, qiya ochib qo'yilgan eshikdan uyga kirdi-da, eshikni yopdi.

Somonxonada turib tynukdan bu holni bir-bir kuzatib turgan Omonboqi, uyga birinchi kelib kirgan kimsaning Gulandom ekanligini aniqlab olgan bo'lsa ham ikkinchisini aniqlay olmadi. Ikkinchi qora uyga kirgach, qiya eshik yopilmasa edi, uni odamzod deb o'ylamas, balki ochiq qolgan eshikdan kirgan daydi it deb gumon qilardi edi. Lekin eshik-

ning yopilishi bu gumonga yo'l qoldirmagan, uning odam ekanligini aniqlagan edi.

Endi Omonboqi uchun bu odamni tutishgina qolgan edi. U sas-sadosiz somonxonadan chiqdi-da, oyoq yalang shipilab uy oldiga keldi, eshikni ochib, uyga ham kirdi, sichqon olovchi mushukdek o'zini u odamning ustiga otmoqchi bo'ldi. Lekin eshik ochilishi bilan uydagilar ikki burchakka yashiringan edilar. Bular nafas olmaslikka, o'zlarini qaysi burchakda ekanlarini bildirmaslikka qancha urinsalar ham, bo'lmadi. Gursillab tepayotgan yuraklar, qavarib shishayotgan o'pkadan pishillab chiqayotgan nafas olish yashirinishiga yo'l qo'ymadi.

Omonboqi ikki burchakda ikki odam borligini aniqladi, u eshik oldini tutib turmaganda, ehtimol bularning birisi allaqachonlar chiqib qochardi edi. Endi bulardan qochishga tayyor bo'lib turganini aniqlash va uning ustiga otish kerak. Lekin nafaslarining olinishi birday, qorong'i uyda afti-basharalari ko'rinmasdi.

Omonboqi, eshikning orgasidagi tokchada har ehtimolga qarshi turadigan tayov'ini izlab qo'l uzatganda, tayovq o'rnida gugurt yo'liqdi. Omonboqida aniqlash uchun asbob topilgan edi, gugurtini chaqdi, tutish lozim bo'lgan odamni ko'rdi, hatto uning kimligini ham tanidi va o'zini u kishining ustiga oldi.

Ov qo'lga tushdi, lekin ellik yashar ovchi yigirma to'rt-yigirma besh yoshli yigit ovni sarajonlay olmadi, balki u kuchli yigit bu kuchsiz ovchini ko'tarib yerga urdi-da, tuzoqdan qutulib qochdi.

Omonboqi yigit bilan yoqalashayotganda Gulandom ham uydan chiqib qochgan edi, kiyimlarini yirib, yuzini yulib to'ppa-to'g'ri otasining uyiga bordi:

– Erim urib o'ldirayozdi, zo'rg'a qochib qutuldim, – deb ota-onasiga shikoyat qildi.

Omonboqi og'ir bir holda qolgan edi, u qaysi yuz bilan xalqqa: «Xotinim menga xiyonat qildi», deya oladi. Raqib

qo'lga tushganda edi, ota-bobolardan qolgan odat bo'yicha, u bilan xotinining qonlarini to'kib qora dog' tomgan etagini yuvar edi, keksalik qursin, bu ham bo'lmadi. Xotinini qo'yib yuborib jim-jim ketaverish ham mumkin emas edi, chunki mullaning «qabul kardias ba zaniy?» degan so'rog'iga, «qabul kardamash»⁴⁶ javobi bilan o'z buyumi bo'lgan xotiniga xoinona qo'l uzatgan raqibdan o'ch olishi kerak edi.

Omonboqi yerga yiqilish zarbidan og'rib turgan belini ugalay-ugalay o'rtidan turib, tashqariga chiqdi-da, devorga narvon qo'yib, o'zini tomga oldi:

– O'g'rini ushlamlar, o'g'rini ushlamlar! – deb baqiraverdi. Qishloqning butun katta-kichigi Omonboqi hovlisiga to'plandilar. Jamoat orasida yolg'iz soqoli yulungan Arbob Kamol bilan, qizini «urib quvlagani» uchun Omonboqidan ko'ngli olingan Shohnazar ko'rinas edi.

To'plangan xalq oldiga Omonboqi tomdan tushib:

– Ushlamadinglarmi? – dedi.

Jamoatdan birov:

– Kimni? – deb so'radi. – O'g'rini, Ibodni.

– Qaysi Ibodni?

– Arbob Kamolning o'g'li Ibodni.

– Arbob Kamolning o'g'li Ibod o'g'ri, bu qanday gap?

– Men ham o'z ko'zim bilan ko'rmagan bo'lsam, inonmas edim, – deb Omonboqi boyagi gapini ta'kidlab tafsilga kiritishdi:

– Xotinim, – dedi Omonboqi, – otasining uyiga ketgan edi, men uyda yolg'iz yotgan edim, eshik ochilib, bir kishi ko'ziga ilingan narsalarni yig'a ber-di. Men uning ustiga tashlanib, ushlab oldim. Ibod ekan, lekin u mendan baquvvat chiqdi, meni yerga ko'tarib urib, chiga qochdi.

Men ham tomga chiqib dod soldim. Men xalq uni tutar va o'z qo'lim bilan uni hokimga eltib topshiraman deb o'yilgan

edim, endi hokimga borib arz qilib, mirshab kaltagi bilan unga gapiraman.

Omonboqi xalqning oraga tushishi va bu kecha qo'y, har gap bo'lsa erta kunduzi qilarsan, deysillariga qaramasdan, hokim mahkamasi yo'lini tutdi.

Bir qism soddadillar Omonboqining bu hikoyasiga inongan bo'lsalar ham, ko'pchilik inonmagan va «bu o'g'ri»ning nima «o'g'ri»si ekanligini anglab olgan edi. Inonmaganlarning birisi Shohnazar bo'lsa ham, u o'z obro'sini saqlash uchun bu sirni ochmas edi.

Sharif Qorategin zindonda gamalib yotgan chog'larda yigirma to'rt-yigirma besh yashar bir yigini keltirib zindonga qamadilar. Bu yigit zindonning go'rdek tor va qorong'illigini, hojatxona kabi sassiqiligini va u yerda gamalib yotganlarinig oyoqlaridagi ishkell, bo'yinlaridagi jelni ko'rib dahshatga tushdi va yig'lab «mohaq tuhmatga uchradim» deb zindonni boshiga ko'tardi.

Bandilardan biri u yigitdan:

– Sen kimning o'g'lisin? – deb so'radi.

– Men Arbob Kamolning o'g'li.

– Otang tirikmi?

– Ha, tirik.

– Mol va mulki bormi?

– Holiga yarasha bir suruv qo'yi, qo'shho'kizi, yet-suvi, uy-joyi va boshqa asboblari bo'lib, qishloqda ikkita odams-havanda bo'lsa, biri hisoblanadi.

– Unday bo'lsa, nimadan qo'rqasan? Bu zindonda umrbod qolib jel, ishkell, kunda va ming'azabning kaltagi ostida chirish bizdek kambag'allarning nasibasi, ammo sendeklar uchun zindon bir kunlik mehmonxonadir.

Boshqa bir bandi bu gaplarni tasdiqlab:

– Agar, – dedi, – seni zindonga keltirmayin, otangdan pul undirish mumkin bo'lsa edi, senga tashvish berib bu yerga keltirmas edilar, otang juda mumisik bo'lsa kerakki, ish shu

⁴⁶ (Xotinlikka) Qabul qildingmi? Qabul qildim.

darajaga yetibdi. Otang qanchalik mumsik bo'lsa ham endi seni qutqarish uchun harakat qilar va qutqarar ham, chunki hokimdan olib zindonbongacha barisini nuqtasi puldor odamning qo'lidir, tilasa, bularni har maqomga o'ynata oladi.

Yigit bu bandlarning so'zlaridan bir oz tasalli topib tinchlangan bo'lsa ham, shu paytda shiqirlab ochila boshlagan zindon eshigining qulfi tovushidan «zindonbon kelib bo'yninga jel, oyog'imga ishel solar», deb qo'rqib boshini eski bandlarning orgalariga yashirdi.

Zindon eshigi ochildi, qo'lida bir choynak choy, ikkita non bo'lgani holda zindonbon kirib:

– Boyvachcha qacarda? – deb so'radi. – Qanday boyvachcha?

– Arbob Kamolning o'g'li Ibod boyvachcha.

Zindonbon qo'lida choy va nonni ko'rib o'z otini eshitgan yigit tamom tinchlanib, pusib yotgan o'rmdan boshini ko'tarib:

– Ibod men, nima deysan? – dedi.

– Sen uchun nonu choy keltirdim, xudo xohlasa, tezda qutularsan, o'sha vaqtda mening xizmatimni unutma, xizmatonamni yog'ilqiroq qil, – deb zindonbon choy-nonni yigitning oldiga qo'ydi-da, uning qulog'iga pichirlab:

– Senga bularni yasovulboshi yubordi, otasiga «meni qutqazish uchun pulni qizg'anna, deb aytib yuborsin», dedi. «Agar otasi xasislik qilsa, boshqa bandilar tushgan holga bu ham tushar», dedi, – deb chiqib ketdi.

Sharif bu so'zlardan, bu yigitning onasi Oyshabibi uyidan «daydi xotin» deb quvlab yuborib, Gulbibini sudrab olib ketgan Abror Kamolning o'g'li ekanini bilgach Gulbibining keyingi sarguzashtini eshitish uchun u bilan o'zini yaqin tutib, Ibod zindondan qutulguncha undan bor voqeani va fojialarni payqab oldi.

XXX XABAR

Yuqorida ishorat qilingandek, Odina choyxonada Sharifdan o'z xonadoni to'g'risida xabar so'raganda, shu voqealarning barisini bilgan holda Odinaga yomon ta'sir qilar deb aytmoqchi emas yoki yengiltroq bir narsa yasab aytmoqchi edi. Sharif o'z sarguzashtini hikoya qilgandan keyin Odinani fojialar eshitishga to'zimli va muhokamali topdi, uning bu ahvoliغا aldanib yuqoridagi yozilgan, Odinaga daxldor voqealarning barisini hikoya qildi.

Sharif shu voqealarni Odinaga naql qiladigan har so'z boshida uning ahvolini kuzatar va uni ilgariyidan ham tinchroq ko'rib, hikoyasida davom qilar edi.

Sharif hikoyasini tugatgan choqda Odinani uyquda topdi va uni bu hikoyalarga sira e'tibor bermadi, deb o'yladi. Shu paytda Shohmirza palov bilan shorvani keltirib Odinani uyg'otmoqchi bo'ldi, lekin qancha urinsa ham uni uyg'otolmadi, chunki Odina uyquda emas, balki hushsizlangan edi.

Sharif bu holdan, Odinaning keyingi tinchligi fojialarga e'tibor bermaganligidan bo'lmay, holsizlanganidan va yuragining ishdan chiqayozganidan ekanini angladi.

Sharif bilan Shohmirza uning qo'l-oyoqlarini ug'aladilar, betiga sovuq suv sepdilar, lekin u hayot asari ko'rsatmas, zaif bir yo'talning ta'siri bilan paydo bo'lgan zaif bir harakatdan boshqa qimirlamas edi.

Shohmirza yugurib doktorga borib, bexos yuz bergan bu ahvolga qarshi vaqtincha bo'lsa ham bir iloj topib keldi, bu iloj qaynoq suv to'ldirilgan shishalarni uning oyoqlariga bosis edi.

Sharif bilan Shohmirza ikkovlab Odinaning karavotini ko'tarib choyxonaning ichiga olib kirdilar, qaynoq suv to'ldirilgan shishalarni uning oyog'iga bosaverdilar, bu tadbirning soyasida Odina ko'zini ochgan bo'lsa ham, osh

yemak nari tursin, qimirlashga ham majoli yetmas, ko'zini bir nuqtaga tikib, bir oz qarab turar, ko'zini tag'in yumar edi.

Bu holdan ta'sirlangan Sharif bilan Shohmirzaning ham tomoqlaridan osh o'tmadi.

Kun kech bo'lgan, oftoob botishga yaqinlashgan edi. Sharif o'z qo'shonasiga borib, o'z yo'ldoshlariga bu kecha qaytib kela olmasligini aytib kelish uchun Shohmirzadan ruxsat olib chiqib ketdi. Shohmirza, Odinning botishga yuz tutgan hayot ofobini to'xtatishga urinib, uning yostig'i oldida qoldi.

XXXI XAZON

1918 yil oktyabr oyining 22 sida Toshkent havosi odatdan tashqari sovuq bo'ldi, shu oyning boshidan beri sarg'aya bo'rgan daraxtlarning yashil barglari, bu kun yoqimsiz va izg'irin yelga chiday olmay qarchig'ay hujumiga uchragan kaprtarladek har tomonga uchalar, qochalar, o'zlarini chuqurchalarga, ariqchalarga urar va o'zlar uchun xazon yelining bu omonsiz hujumidan go'yo sig'inarli bir yer axtarar edi.

Yog'ayotgan qor aralash yomg'ir tuproqqa belanib ko'chalarni suvda bo'kkan eski uvadadek badnom qilgan edi.

Hali qish kiyimlarini tayyorlamagan yo'lovchilar vaqtsiz qor-yomg'irning ostida suvga tushgan temirqanot jo'jalardek titrab pana joy axtarib, qaerga borishlarini bilmaslar edi.

Qora bulut dunyoni o'rab, oftoob yashiringan, kunduz qorong'i kechaga aylangan, havo buzuq, yer toyg'an oq edi.

Bora-bora havoning buzuqligi shu darajaga yetdiki, ko'chalardan yo'lovchilar oyoqlari uzilayozdi. Toshkentdek g'ulg'ulali katta shahar tinchib qoldi, ko'chalarda shamolning guvillashi, daraxtlarning qarsillashi sinisidan boshqa tovush eshitilmas edi.

Shu paytda Qashqar mahalla tomonidan faqirona bir tobut ko'rindi, tobutning tevarigiga ro'yan bilan bo'yalgan to'r qari bo'z o'ralgan edi. Bu tobut bilan borayotgan guruh, sakkiz-o'n nafar oyoqyalang mardikorlardan iborat edi, bular ham tobut ko'taruvchi, ham o'lik uzatuvchi, ham o'likning egalari edilar.

Tobut, ko'p yuk ortilgan tuyadek juda og'irlik va sekinlik bilan yurmogda edi. Haqiqatdan ham, bu tobutning yuki og'ir edi, bu yuk tog' g'avdali kishilarning belini sindiradigai quyug'-alam, hasrat, hijron va yo'qsillik yuki edi, bu yukni, bu tobutni ko'tarib borayotgan mardikorlardan boshqa kishi ko'tara olmas edi.

Tobut sekin-sekin O'rda va eski shaharning boshqa mahallalaridan o'tib, g'arib mo'zoriga kirdi, unda yangi qazilgan bir qabrning oldida yerga qo'yildi.

Tobutni ochib, o'ilkni qabrga tushirdilar, lahading og'ziga bir-ikki katta guvalani qalab, ustidan tuproq tortdilar, ustini yerdan balandroq ko'tarib, tuyaning o'rkachidek uzunchoq qildilar, go'ning bosh tomoniga, qabr toshi o'miga bir-ikki dona chim bosdilar.

Bu ishlar tugagandan keyin birov:

– Jamoat! Odina qanday odam edi? – dedi.

– Odina yoshligida beklarning, boylarning, mullalarning xiyonat, zulm va jafolariga qurbon bo'lgan g'arib, faqir, mehnatkash bir yigit edi, – dedi birov.

Savol bergan Shohmirza, bunga javob qaytargan Sharif edi. Boshqalar:

– Odina o'ldi. Yashasin inqilobi! – deb kelgan yo'llari bilan qaytdilar.

Havo sekin-sekin ochilmogda, qora bulutlar tarqalmogda, oftoob ham o'z nurini sekin-sekin Oktyabr inqilobi oftobi-dek butun yer yuziga sochmogda edi.

XXXII XOTIMA

Asrlardan beri tojiklar Ko'histonida ko'p zulm va haq-sizliklar qilindi, ko'p qonlar to'kildi, ko'p uyalar buzildi, ko'p xonadonlar bo'shab qoldi. Tog' tojiklari o'z tirikliklari taxonida O'rta Osiyoning boshqa xalqlaridan ko'ra xaroblik-ni ko'proq ko'rdilar, bular bir tomondan, Buxoro amiri va beklari, o'z amaldor, oqsoqol va boylari qo'lida zulm chekkan bo'lsalar, ikkinchi tomondan, shunday tirikchilik bilan bog'liq bo'lgan eski urf-odat, rasmi taomildan ham ko'p azoblar, uqubatlar tortdilar. Bu yo'lda ko'p odinalar, ko'p shariflar, ko'p shohmirza va sanginlar ko'p o'yshabibilar, ko'p gulbibi va gulandomlar qurbon bo'ldilar.

1920 yildagi Buxoro inqilobi tog' tojiklari bo'yidan amir va beklar zanjirini rasman ko'targan bo'lsa ham amalda bu hol yana bir necha yil davom qildi. Tojik xalqi Buxoro so'nggi amirining parvarish qilgan bolalari va jahon imperi-alistlarining asrandalari bo'lgan boshmachilar qo'lida tarixda misli ko'rilmagan xarobliklarni ko'rdi.

Nihoyat, 1924–1925 yilda bo'lgan O'rta Osiyodagi milliy chegaralanish, tojiklar Ko'histonining ufqida ham ozodlik subhi sodiqini ko'rsatdi, milliy chegaralash natijasida tuzilgan Tojikiston Muxtor⁴⁷ Sho'rolar hukumati, Kommunistlar partiyasi rahbarligi ostida qizil askarlarning g'ayrati, Ittifoq proletariati va Tojikiston mehnatkash dehqon va cho'ponlar yordami bilan boshmachilik tugatilib, bu fojia kitobning oxiriga «tammam-bil-xayr» so'zini yozdim.

Bu orada Tojikiston yolg'iz boshmachilikdan qutuldigina emas, balki o'zining dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligini yo'lga solib, ko'pgina madaniy asarlarga ega bo'lib, faqirlikdan, madaniyatsizlikdan ham qutula boshladi. Bukun Toji-

kiston osmonida aeroplanlar uchmoqda. Bukun Tojikistonning tog'lari, daralarida avvalgi sharti ketib, parti qolgan eski ko'priklar, chang bosgan, kishini vahimaga soladigan so'gmoq o'rniqa temir ko'priklar, tosh yo'llar solinib, avtomobillar, avtobuslar, hatto poezdlar kezmogda. Bukun Tojikiston dalarida amerika va misr paxtalari o'smogda, bu-kun Tojikiston sharsharalaridan elektrik chiroqlar yonmoqda. Bukun Tojikistonning yolg'iz shaharlarga emas, balki uzoq qishloqlari va baland tog' cho'qqilarigacha maktablar, kasalxonalar, bolalar uylari, kutubxona va qiroatxona solinmogda va ochilmogda, bu-kun «kalla minoralar» o'rniqa te-legraf yog'ochlari, radio antenalar, zavod-fabrika mo'rillari ko'kka bosh cho'zmogda...

Odina o'ldi, Sharif va Shohmirzalarning o'lik-tirigidan xabarimiz yo'q, lekin shunchaligi bizga ma'lumki, Odina, Sharif va Shohmirzadek eski davr mazlumlari va faqirlari bu kun Tojikiston ishchi va dehqonlarining vakillari bo'lib, Tajikistonni yangidan tuzish ishini boshqarmogdalar.

Gulbibi va O'yshabibidek minglarcha mazlumlar eski rasm-odatlarining qurboni bo'ldilar. Lekin bu-kun tojik ayollarini rasmi odatga qurbon bo'lishga yo'l qo'ymay turgan, muruvvatsiz erlarning chirikligidan qutqazadigan yuzlarcha gulbibi va o'yshabibilar yetishganlar va yetishmogdalar. Bu-kun faqir tojik xotin-qizlari mehnatkash tojik erkaklari bilan teng huquqli bo'lib, jamoat ishlarida ishlamoqdalar...

Hali ham tojik xalqining orasida arbob kamollar, mulla xakirahlar va mulla mardixudolar bordirlar. Hali ham ular yashirincha tojik mehnatkashlarining zarariga ishlaydilar. Lekin biz xotirjamizkim, zulm chambaragidan bir da'fa boshini qutqargan tojik faqirlari bundan buyon ularning firib tuzoqlariga bo'yin bermaslar, balki, tojik ishchi-dehqoni unday hiylakor sinfy dushmani yer yuzidan supurib tashlar.

Uzun so'zning qisqasi: bugun Tojikiston gulladi, erta-indin u sharq olamiga o'zining shirin mevalarini berajakdir.

⁴⁷ Bu kitobning tojikcha yozilish bostilishi Tojikiston Muxtor Sho'rolar Jumhuriyati tuzilgan choqlarda edi. Tarjimada bu tarixiy xususiyat o'zicha qoldirildi. (A.)

Adabiy-badiiy nashr

SADRIDDIN AYNIY

ODINA

Qissa

Muharrir O. Xoldorova
Musahih S. Saydanirova
Sahifalovchi O. Ismoilova

Nashriyot litsenziyasi AI № 193. 10.05.2011 y.

Bosishga ruxsat etildi 03.07.2019-y. Bichimi 84x108 1/32.

Bosma tabog'i 9,5. Sharhli bosma tabog'i 7,98.

Adadi 1500 nusxa. Buyurtma № 24-19.

«Kamalak-PRESS» MChJda nashrga tayyorlandi
va matbaa bo'linida chop etildi.
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.